

**.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

AZIMOVA SOHIBJAMOL

**O‘ZBEK TILINI IDEOGRAFIK O‘RGANISH: PAYT BILDIRUVCHI
SO‘ZLAR TAHLILI**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar – filologiya fanlari nomzodi,

dots. D.A. Nurmonova

Andijon - 2011

MUNDARIJA

Ishning umumiy tavsifi.....	3
Kirish. Makon va zamon falsafiy kategoriya sifatida.....	6
I bob. Zamon va uni tadqiq etishning falsafiy asoslari	
1.1 Mazmuniy maydonlar tasnifi.....	9
1.2. Temporallik maydoni va uning tilda aks etishi.....	17
II bob. O‘zbek tilida paytning leksik vositalar yordamida ifodalanishi	
2.1. Ot leksemalarning payt semantikasi.....	36
2.2. Ravishlarda vaqt semantikasi	75
III bob. Vaqt ifodalovchi birliklarning matn shakllantirish imkoniyatlari	
3.1. Matn va uning tuzilishida temporal semantikaning o‘rni.....	85
3.2. Vaqt semantikali ot va ravishlarning sintagmatik imkoniyatlari.....	96
3.3. Payt otlari va ravishlarning matn shakllantirish imkoniyatlari.....	98
Xulosa	103
Adabiyotlar ro‘yxati	107

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday fanning taraqqiyoti unga xos bo'lgan analitik va sintetik tadqiqotlar nisbiy yetakchiligining tadrijiy almashinib borishidan iborat. Analitik bosqichning asosiy maqsadi o'rganish ob'ektini (predmetini) qismlarga ajratib o'rganish bo'lsa, sintetik talqin muayyan bosqich darajasida o'rganilgan qismlarni butunga (ob'ektga) birlashtiradi. Analitik va sintetik tadqiqotlarni keskin chegaralab bo'lmaydi. Zero qismlar o'rganilayotganda butunga asoslaniladi, butun tadqiqotida qismlar nazarda tutiladi. Shuning uchun analitik bosqich sintetik bosqichni, sintetik bosqich analitik bosqichni doimo taqozo etadi, lekin bulardan biri muayyan tadqiqotda nisbiy yetakchilik qiladi va asosiy ilmiy maqsad unga qaratiladi. Aslida ushbu bilish yo'llari (induksiya va deduksiya) asosida qism va butunning muhim belgilari aniqlanadi hamda tadqiqot ob'ektining mohiyati bosqichma-bosqich yechilaveradi.

Tadqiq yo'llari induksiya yetakchiligiga asoslangan an'anaviy o'zbek tilshunosligi bilan deduksiya usuli hukmronligida ish ko'rayotgan hozirgi o'zbek sistem tilshunosligining ilmiy yo'nalishlari bir – birini inkor etmaydi, aksincha sistem lingvistikamiz an'anaviy tilshunosligimizning muayyan til birliklari, muayyan kategoriyalar (qismlar) yuzasidan olib borgan qimmatli tadqiqotlarning yutuqlariga asoslanibgina o'zining til butunligi (sistema va mikrosistemalar) haqidagi ta'limotini yarata oladi. Ma'lumki, sistema o'zining tashkil etuvchi elementlari, munosabatlari va strukturasi ega.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida vaqt ma'nosining sistemalilik (butunlik), elementlik (qismlik) va munosabatlar hosil qiluvchilik xususiyatlari tadqiq etiladi.

O'zbek tilida vaqt ma'nosi mustaqil til birligi (semema) yoki boshqa til birliklari semantikasining tashkil etuvchisi (sema) sifatida mavjud vaqt semantikasi o'zining leksik, grammatik, fonetik ifodalanishlariga ega. O'zbek tilshunosligida vaqt ma'nosi otlar, sifatlar, olmoshlar, fe'llar, yuklamalar kabi morfologik, payt hollari, vaqt ifodalovchi konstruksiyalar singari sintaktik yo'nalishlarda o'rganilgan yoki qayd qilingan. Leksik birliklarning temporal ma'nosi haqida xususiy va u yoki bu munosabat bilan bildirilgan fikrlar uchraydi. Vaqt sememasi va semalarning tartibi, ularning sistema hosil qiluvchi imkoniyatlari, vaqt semantikali makro va mikrosistemalari, bularning tuzilish xususiyatlari, vaqt ifodalovchi birliklarning lug'aviy sistemada tutgan o'ri, ko'lami kabi munosabatlar o'z yuklamalariga ega emas. So'nggi yillarda jahon tilshunosligida matn muammosiga qiziqish kuchayib ketdi. Bu qiziqish sistemalikni yuqori sath birliklaridan ham izlash, til va nutqning statik va dinamik sistemalarini farqlash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Temporal lugʻaviy birliklarning nutqiy voqelanish imkoniyatlari ham hozir shakllanib borayotgan matn tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir. Leksik sathga oid temporal birliklarning butun va qism, umumiy va xususiy belgilarini oʻrganish, temporal lugʻaviy birliklar paradigmatikasining sintagmatik imkoniyatlarini tadqiq etish kabilarning amalga oshirilmaganligi ushbu dissertatsiyaning dolzarboigini belgilaydi.

Tadqiqotning oʻrganish ob’ekti oʻzbek tilidagi vaqt ma’noli leksemalar va ushbu leksemalar asosida shakllangan matnlardir. Oʻzbek tilining sinonim, antonim, omonim, frazeologik, izohli kabi lugʻatlari va hozirgi oʻzbek adabiyotiga oid asarlar dissertatsiya uchun manbalar boʻlib xizmat qildi.

Ishning asosiy maqsadi. Oʻzbek tilining leksik sathiga oid leksemalarning paradigmatik va sintagmatik xususiyatlarini tadqiq etishdir. Shu maqsadda tadqiqotning oldiga quyidagi vazifalar qoʻyilgan:

- vaqt belgilari va ularning tilda in’ikos etish xususiyatlarini aniqlash,
- temporal semantikaning oʻzbek tili sathlari va ularning birliklarida tutgan oʻrnini belgilash;
- vaqt ifodalovchi leksemalarni komponent tahlil etish;
- payt ma’noli leksik birliklarni semantik tasnif qilish;
- temporal leksik-semantik guruhlarning tashkil etilish xususiyatlarini oʻrganish;
- vaqt semantikali leksemalarning matn hosil qilish imkoniyatlarini aniqlash;

Ishning metodologik asoslari va metodlari. Dissertatsiya tadqiqotida dialektikaning umumiylik – xususiylilik, butun – qism, imkoniyat-voqelik, sabab-natija, mohiyat-hodisa kabi kategoriyalarida, sistemologiya va sistemaviy tilshunoslikning zamonaviy tushunchalari hamda koʻrsatmalaridan, bilish nazariyasining induktiv va deduktiv, analiz va sintez metodlaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi.

- vaqtning ob’ektiv, sub’ektiv va ularning tilda aks etishi yoʻsinlari aniqlandi.
- oʻzbek tilining temporal maydonida leksik – frazeologik birliklarning tutgan oʻrni, koʻlami aniqlandi.
- vaqt ma’noli lugʻaviy birliklar komponent va tasnif etilib, ularning leksik-semantik guruhlari va ulardagi sistemalilikka tavsiflar berildi;
- temporal soʻzlarning semik sistemasi asosida ularning sememalari kodlashtirildi.
- vaqt ma’noli leksemalarning sintagmatik, matn shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi.

Kirish. Makon va zamon falsafiy kategoriya sifatida.

Har qanday narsa va hodisa makon va zamonda mavjud bo'ladi. Makon va zamon materiyaning mavjudlik shakli sanaladi. Dialektik falsafa nuqtai nazaridan makon va zamon materiyadan ajralmasdir. Bu esa makon va zamonning ob'ektivligini, universalligi va umumiylikni ko'rsatadi. Xususan, bir tup daraxtni olaylik. Bu daraxt makon va zamondan tashqarida mavjud emas. U ma'lum bir joyda o'sadi. O'sayotgan joyga munosabati uning makon belgisini bildiradi. Ayni paytda bu daraxt doimo o'sishda, rivojlanishda. Demak, u dinamik belgiga ega. Zamonning ma'lum nuqtasida u unib chiqqan, daraxtga aylangan, ma'lum bir vaqt o'tgandan so'ng qurishi mumkin. Ko'rinadiki, daraxtning daraxtligi ma'lum zamon bilan belgilanadi.

Makon va zamon belgilari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lsa ham, lekin ma'lum belgilari bilan bir-biridan farq qiladi.

Makon narsaning bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan ob'ektlarning joylashishi tartibini bildirsa, zamon bir-biri bilan almashinayotgan narsa va hodisalarning vaqt nuqtai nazaridan ketma-ketligini bildiradi. Zamon qaytarilmas, takrorlanmaslik belgisiga ega. Har qanday moddiy jarayon bir yo'nalishda o'tmishdan kelajakka qarab rivojlanib boradi.¹

Yuqorida ta'kidlanganidek, narsa va hodisaning makon va zamon belgisi umumiylik, universallik xususiyatiga egadir. Uning umumiylik, universalligi ob'ektiv borliqdagi barcha narsa va hodisalarga taalluqli ekanligini ko'rsatadi.

Bundan kishilarning aloqa quroli ham mustasno emas. Har qanday jamiyat makon va zamon bilan uzviy bog'liqdir. Chunki u birinchidan, muayyan hudud bilan chegaralanadi. Ikkinchidan, zamonda rivojlanadi, o'sib-o'zgarib boradi. Jamiyat tarixiy taraqqiyotidagi muayyan nuqta uning rivojlanish jarayonining bir momentini o'z ichiga oladi. Makon va zamon belgisidan holi bo'lgan biror bir jamiyatning bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatning muhim belgisi uning tilidir. Til shu jamiyatning aloqa quroli sanaladi. Demak, til va jamiyat o'zaro uzviy bog'liq. Jamiyat bor ekan, uning tili bor. Tilsiz jamiyatning bo'lishi mumkin emas. Jamiyat makon va zamon belgisiga ega ekan, uning tili ham xuddi shunday belgiga ega. Har bir tilning makon belgisi shundaki, uning tarqalish geografiyasi bor. Qo'llanilish doirasi muayyan hudud bilan chegaralanadi. Amal qilish doirasi g'oyat keng tillar, qo'llanilish doirasi tor tillar mavjud. Shu bilan birga har bir tilning o'z ichki hududiy farqlanishga ega bo'lgan mahalliy shevalari mavjud. Til ana shu hududiy belgisiga ko'ra

¹ Философский словарь. М.,1991. –С.75

lingvogeografiya ob'ektiga kiradi va tilshunoslik bilan geografiya oralig'idagi fan ob'ektiga aylanadi.

Shu bilan birga, til jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda rivojlanib boradi. Jamiyat hayotidagi har bir o'zgarish uning tilida namoyon bo'ladi. Tildagi bunday o'zgarishlar uning dinamik jarayon ekanligining natijasi sifatida maydonga keladi. Tilning ana shu belgisini e'tiborga olgan holda, buyuk nemis tilshunosi Vilgelm fon Gumboldt: "Til ergon (turg'un hodisa) emas, balki energiya", - deydi.¹ V.Gumboldtning bu g'oyasi struktur tilshunoslikning asoschisi sanaluvchi F.de Sossyur tomonidan davom ettirildi va tilning statikasi va dinamikasi haqida fikr yuritdi. Uning fikricha, til dinamik jarayon bo'lib, har bir statika dinamik jarayonning muayyan bir davrdagi holatidir.² Tilning ergon emas, energiya ekanligi, uning statik va dinamik holati haqidagi fikrlarining hammasi insoniyatning fikrlash va fikrni bayon qilish vositasi bo'lgan tilning zamon bilan uzviy bog'liqligini bildiradi. Shunday ekan, zamon tilning muhim belgilaridan biri sanaladi.

Zamon borliqdagi barcha narsa va hodisalarning yashash shakllaridan biri ekan, u tilning ham yashash, rivojlanish, amal qilish shakli sanaladi. Shuning uchun ham u tilning ichki tuzilishida o'z ifodasini topadi. Tilning barcha sath birliklari zamon belgisiga ega. Xatto fonologik birliklar ham ana shunday belgidan holi emas. Masalan, unlilar qisqalik-cho'ziqlik belgisiga, undoshlar soddalik va geminatlik belgisiga egaki, bu belgilar zamon bilan bog'lanadi. Shunday ekan, zamon belgisi tilning ichki tuzilishi, barcha sath birliklari uchun xos bo'lgan universal hodisadir. Tilshunoslikda ana shu universal hodisa **temporallik** deb yuritiladi.

Temporallik tilning barcha sathlariga xos universal hodisa ekan, u har bir sathda shu sathga xos bo'lgan lingvistik vositalar yordamida ifodalanish xususiyatiga ega. Masalan, morfemik sathda maxsus zamon ma'nosini ifodalovchi qo'shimchalar, leksik sathda zamon sememali leksemalar, morfologik sathda zamon grammatik semasi asosida zidlanadigan so'z turkumlari (masalan, ot bilan fe'l zamon belgisiga ko'ra o'zaro privativ zidlanadi. Birinchisi belgiga ega emas, ikkinchisi bu belgiga ega), sintaktik sathda predikativlik shakllari mavjud. Sintaktik sathda temporallik predikativlikning tarkibiy qismi, bir komponenti sanaladi. O'zbek tilshunosligida shu kunga qadar temporallik faqat leksik sathda o'rganildi xolos.

Ko'rinadiki, temporallik har qanday tilning yashash, rivojlanish shakllaridan biri sifatida umumlisoniy mohiyat kasb etsa, har bir xususiy tilning yashash rivojlanish shakli sifatida bu tilning ichki tuzilishida har bir sathida o'z ifodalanish vositalariga ega. Shuning uchun u hodisani bir butun, yaxlit holda, til universalisi sifatida, avvalo, umumlingvistik aspektda

¹ Қаранг.Нурмонов А. Структур тилшунослик илдиэлари ва йўналишлари. Андижон, 2006. –Б.24.

² Ўша асар. –Б.24.

muayyan bir tilning barcha sathlarida qanday vositalar yordamida ifodalanishini o'rganish tilshunoslik nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega.

I bob. ZAMON VA UNI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI

1.1. Mazmuniy maydonlar tasnifi

Sistemaviy tilshunoslikning rivojlanish va til birliklarining struktur – funksional tahlilning keng tarmoq olishi natijasida lingvistik birliklarning faqat shakliy tomonigina emas balki mazmuniy tomoni ham strukturaviylik xususiyatiga ega bo'ldi.

Til birliklarining muayyan mazmuniy maydonlarga birlashuvi, maydonga birlashgan uzv (komponent) larning ierarxik tuzilishi va ular o'rtasida gipero-giponimik munosabatning mavjud bo'lishi lingvistik semantikadagi ana shu strukturaviylikning o'ziga xos ko'rinishidir.

Lingvistik birliklarni maydonlarga bo'lib o'rganish boshlangandan, lingvistik maydon tushunchasi paydo bo'lgandan buyon uning mohiyatiga turlicha yondashuv ko'zga tashlanadi.

Avvalo, mazmuniy maydon muayyan lingvistik birliklarning ma'lum mazmuniy umumiylik asosida bir butun tarkibga birlashuvidir. Ana shu xususiyat mazmuniy maydon paradigma tushunchasi bilan yaqinlashtiradi. Lekin paradigma tilning faqat bir sathiga mansub bo'lgan gommogen birliklarning ma'lum umumiy belgi asosida bir butun tarkibiga birlashuvi hisoblanishi bilan xarakterlanadi. Paradigmadan farqli ravishda mazmuniy maydon a'zolari turli sathga mansublik belgisi bilan yoki kategorenlik belgisi bilan farq qiladi.

Ko'rinadiki, paradigma bilan mazmuniy maydon o'rtasidagi muhim farqlovchi belgilar bir sathlilik-turli sathlilik va gomogenlik-geterogenlikdir. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ba'zan bir sathga mansub bo'lgan birliklar ham bir mazmuniy maydon tarkibiga birlashishi mumkin. Bunday vaqtda paradigma va mazmuniy maydon tushunchalari o'zaro maksimal yaqinlashadi va ular faqat bitta farqlovchi belgi bilan: gomogenlik-geterogenlik belgisi bilan o'zaro zid munosabatda bo'ladi. Bir sathga mansub bo'lgan birliklar bir mazmuniy maydonga birlashganda, ular o'rtasidagi geterogenlik belgisi turli so'z turkumlariga mansublikda namoyon bo'ladi.

Tilning turli sathlari birliklari, o'z navbatida, ularning kategoriyalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bu xususda ayrim tilshunoslar turlicha muammolarni ham o'rtaga tashlamoqdalar: "Morfologik shaxs kategoriyasi sintaktik persionallik kategoriyasini, morfologik zamon kategoriyasi sintaktik temporallik kategoriyasini, mayl kategoriyasini, sintaktik modallik

kategoriyasini hamda ifoda maqsadi kategoriyasi, nisbat kategoriyasi sintaktik almashinish kategoriyasini moddiylashtirish uchun xizmat qiladi”¹

Ta’kidlash kerakki, bir so‘z bir necha mazmuniy maydonning a’zosi bo‘lishi mumkin. Chunki leksik birliklarning mazmuniy mundariyasi, ya’ni sememasi bir necha semalarni o‘zaro munosabatida tashkil topgan butunlik bo‘lib, uning har bir semasi shu leksemaning alohida-alohida maydonlarning a’zosi bo‘lishiga imkoniyat yaratadi. Bu esa maydonlar o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minlaydi.

Mazmuniy maydon a’zolarining bir sathga yoki turli sathga mansub bo‘lishlik belgisidan qat’iy nazar ularning hammasi bir umumiy tushunchani ifodalashi bilan birlashadi. Demak, mazmuniy maydon a’zolarining hammasida ularning har birida takrorlanuvchi birlashtiruvchi (integral) sema mavjud bo‘ladi. Ana shu integral sema maydon hosil qilish vazifasini bajaradi. Shu bilan birgalikda, mazmuniy maydonning har bir a’zosi boshqalardan farq qiladigan farqlovchi (differensial) belgiga ham ega. Natijada mazmuniy maydon a’zolarining har biri integral va differensial semalar munosabati birligidan tashkil topadi.

Integral semalar shu birliklarning markaziy (yadro) semalari sifatida ularni ayni mana shu mazmuniy maydonga birlashtirishga xizmat qilsa, farqlovchi semalar chegara semalarini tashkil qiladi va ular bu maydon a’zolarini boshqa maydonlar tarkibiga kiritishga imkon beradi. Demak, mazmuniy maydon a’zolarining chegara semalari maydonlar o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Lingvistik birliklarni mazmuniy maydonlarga bo‘lib o‘rganish struktur semantikaning asosiy metodlaridan biri sanaladi. Mazmuniy maydon ob’ektiv borliq haqidagi inson tushunchalari va bu tushunchalarni ifodalovchi lingvistik vositalar o‘rtasidagi munosabatning o‘z ichiga olganligi tufayli, u tilning kognitiv aspekti bilan uzviy aloqadordir. Chunki lingvistik birliklarning bir umumiy maydonga mansubligi shu til egalarining umumiy bilish fondi bilan uzviy aloqadadir. Agar kommunikativ olam uzvlari va ongda aks etgan u haqdagi tushunchalarning til ifodalari haqida umumiy bilish ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa ular o‘rtasida bir-birini tushunish va lingvistik birliklarni bir mazmuniy maydonga kiritish yoki bir xil mazmuniy maydonga mansubligini anglash imkoniyati bo‘lmaydi. An’anaviy tilshunoslikda lingvistik kategoriya xususida so‘z borganda, asosan grammatik kategoriya nazarda tutilib, uni asosida yotuvchi ma’nosiga ko‘ra birlashtiruvchi shakllar sistemasi tarzida talqin etiladi va ikki turi – morfologik va sintaktik turlari farqlanadi.¹

¹ Нурмонов А., Шаҳобитдинова Ш. Грамматик категория муаммосига доир айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998, 6-сон, 25-бет

¹ Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Т., Ўқитувчи, 1985, 29-бет

Grammatik kategoriyalar doirasida soʻz turkumlari (soʻzlar kategoriyasi) va ular bilan bogʻliq qator kategoriyalarni kiritish mumkinki, ular maʼlum umumiy mazmuniy yoki funksional oʻzagi bilan birlashgan soʻz yoki soʻz shakllarida tashkil topuvchi paradigmalardir.

“Har qanday insonni tushunchaga sistemaviylik nuqtai nazaridan yondashsak, muayyan maʼno umumiyliги asosida birlashganda oʻzaro zidlanuvchi shakllar sistemasi grammatik kategoriya hisoblanadi. Maʼno umumiyliги grammatik kategoriya tarkibidagi har bir uzvda birlashtiruvchi semaning takrorlanishini, zildanish esa bir grammatik kategoriya tarkibiga birlashgan har qaysi uzvning oʻziga xos farqlanishi xususiyatiga ega ekanligini bildiradi”¹

Grammatik kategoriyalarning shakliy va maʼnoviy turlarini koʻrsatish mumkin. Shakliy va grammatik kategoriyalar maʼlum leksik maʼnoga ega boʻlmay (yoki mavjud leksik maʼnolari eʼtiborga olinmay) faqat mazmuniy ifodalarning tashqi vositalari sifatida anʼanaviy tilshunoslikda grammatik kategoriya (kelishik, egalik, zamon, boʻlishli boʻlishsizlik, nisbat va boshqalar) shakliy funksional umumiylikning hisobga olinishi bilan cheklanadi. Maʼlum turkumga xos kategoriyaga mansublik ifoda etilayotgan grammatik maʼnoga talqini bilan umumlashadi.

Maʼnoviy grammatik kategoriyalar bir soʻz turkumiga umumlashadigan birliklardan tashkil topish xususiyati bilan shakliy grammatik kategoriyalarga yaqin tursada ulardagi umumlashish maʼno jihatdan birlashishga asoslangan boʻladi: ot turkumidagi predmet, shaxs feʼldagi harakat, holat kabilar.

Grammatik kategoriyalar mazmuniy (semantik) kategoriyailarga juda yaqin boʻlib, ayrim matnlarda ular tenglashishi ham mumkin. Jumladan, feʼlga xos yugurdi, sakradi, aylandi singari leksemalar feʼllarning jismoniy harakat ifodalovchi guruhlarini sifatida umumlashadi. Biroq oʻqidi, oʻqish, oʻqigan (bola) ifodalari turli grammatik kategoriyalarga mansub boʻlib, harakat mazmunining kategoriyasiga taalluqli. Demak, maʼnoviy grammatik kategoriyalarda garchi maʼnoviy asos birlamchi boʻlsada, ular grammatik kategoriya chegarasidan chiqa olmaydi.

Mazmuniy kategoriyalarda bu kabi cheklanish kuzatilmaydi, shunga koʻra, turli tuman ifoda vositalari asosida namoyon boʻladi, yaʼni leksik shakllar, leksik-grammatik shakllar, turli soʻz turkumlari, bir soʻz turkumi orqali ifodalanishi mumkin.

Mazmuniy kategoriyalarning hajmi va strukturasi turli tillardagina emas, balki bir til doirasida ham turlicha boʻladi.²

Abstraktlik va mustaqillik darajasi yuzasidan, mazmun ifolashning tashqi vositalari boʻyicha, boshqa mazmuniy kategoriyalar bilan munosabati asosida, mazmuniy hajm va uning kichik jihatdan farqlanishi nuqtai nazaridan mazmuniy kategoriyalarning tiplari ham ajratiladi.

¹ Нурмонов А., Шаҳобитдинова Ш. Грамматик категория муаммосига доир айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998, 6-сон, 22-бет

² Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика М., ВШ, 1990-с.141

Mazmuniy kategoriyalar eng abstrakt va mantiqan mustaqil kategoriyalar sanaladi: predmet, faoliyat, holat, belgi, miqdor, vaqt va boshqalar.

Mantiqiy plandan yondashilganda, mazmuniy kategoriyalarni tushunchaviy kategoriya hisoblash mumkin, chunki mazmuniy kategoriyalar tushunchaviy kategoriyalarni izohlovchi asos sanaladi. Tushunchaviy va mazmuniy kategoriyalar shu bilan farq qiladiki, mazmuniy kategoriya – tilda namoyon bo‘ladi, ya’ni har bir til uchun maxsus aniq lingvistik vositalar (leksik, grammatik va boshqalarda) ko‘rinadi, shuningdek, ular konnotatsiya, struktur semantika, funksiya tushunchalari bilan bog‘lanadi. Tushunchaviy kategoriyalar til strukturasi o‘zida ongga xos me’yorning ifodalovchisi bo‘lib, ular tilga xos vositalarni mantiqiy va psixologik kategoriyalarga bog‘lovchi sifatida xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, har qanday mazmuniy maydon asosida tushunchaviy kategoriyalarni izohlovchi mazmuniy kategoriyalar yotadi. Bu xususida fikr yuritib A.V.Bondarko shunday yozadi: “Barcha funksional – sintaktik maydonlarning asosi ob’ektiv borliqdagi u yoki bu munosabatning kishilar ongida ma’lum semantik (mazmuniy) kategoriyalar ko‘rinishida aks etishidir”¹

Bilamizki, mavjud ifodalar u yoki bu kategoriyalarni aks ettirish uchun emas. Balki aniq pragmatik mazmunni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi, ammo mazmun ifodalash bosqichi ma’lum kategorial vositalar bilan boshqariladi. So‘zlashuvchilarning tilga xos bilimi va ongida ma’lum kategoriyaning u yoki bu variantini til vositalariga tegishli elementlar bilan ifodalash layoqati mavjud bo‘lib, so‘zlovchi o‘z nutqida ifodaning umumiy yo‘nalishiga ko‘proq mos keluvchi vositalarni tanlaydi. Chunki “biror semantik (mazmuniy) kategoriya variantlarini ifoda etish uchun so‘zlovchi ixtiyorida bo‘lgan til vositalari yig‘indisi til va nutqiy ontologiyadagi funksional semantik maydonning asosiy tushunchalaridir”.²

Funksional semantik yoki leksik-grammatik maydonlar ifoda planida ham leksik, ham grammatik vositalar bilan birikish mumkin.

Mazmuniy kategoriyalar oddiy yoki murakkab qamrovli bo‘lishi kuzatiladi. Masalan: fazo, miqdor, vaqt modallik mazmuniy kategoriyalari murakkab mazmuniy kategoriya sanaladi, ular o‘z ichiga kategorial semalarning murakkab, kompleksini oladi. Ayrim kategorial semalar o‘zaro bog‘liq holda uchraydi ya’ni faqat mazmuniy kategoriyalar tarkibida bo‘lib ular faqat mazmunlari paradigmatic qo‘yilgandagina seziladi. Bu jihatdan ular ma’noning so‘z hosil qiluvchi va grammatik komponentlari bilan o‘xshashdir. Tilga xos ma’nolar turli mazmuniy maydonlarining kesishishi va o‘zaro ta’sirini yuzaga keltiradi.

¹ Бондарко А.В. О грамматике функционально-семантических полей // Изв. АН.сер.линг.яз. 1984, Т., 3 №6. с 492-527

² Бондарко А.В. Ўша асар

Fazo mazmuniy kategoriyasi ichida shakl, predmet, miqdor kichik kategoriyalari (subkategoriyalar): miqdor mazmuniy kategoriyasi ichida ko'plik, o'lchov, kattalik, reja, yig'indi, leksik kategoriyalari va shu kabilar mujassamlashishi mumkin.

Ayrim mazmuniy kategoriyaga mansub kichik kategoriyalar boshqa kichik kategoriyalarni ham qamrashi uchraydi: fazo-miqdor yig'indi. Shu sababli ular o'rtasidagi munosabatning pog'onalilik (ierarxik) xususiyatini va albatta bir-birini taqozo qilishini ta'kidlash kerak.

Kichik kategoriyalarda mustaqillik va mavhumlik kamroq bezatiladi. Ular mazmuniy kategoriyalarga nisbatan aniqroq holda ko'zga tashlanadi. Harakat, joy, ko'plik, daraja, yig'indi, shaxs, xajm singarilar bu jihatdan kichik kategoriya sanaladi.

Ammo kichik kategoriyalar va mazmuniy kategoriyalar aloqasining pog'onali xususiyati qat'iy emas, chunki turli mazmuniy kategoriyalar o'zaro kesishi mumkin. Bundan tashqari, oddiy mazmuniy kategoriyalar ko'pincha o'z mantiqiy mazmuniga ko'ra turlicha bo'lgan murakkab mazmuniy kategoriyalar ichiga kiradi.

Mazmuniy kategoriyalar funksional-semantik maydonlar guruhleri asosida yotuvchi o'zining mantiqiy mazmuniga ko'ra bir xil bo'lgan guruhleri hosil qiladi.

Mazmuniy maydon lingvistik birliklar ifodalagan tushunchalar umumiyligi asosida hosil bo'lar ekan, uning tasnifi ham shu belgi asosiga tayanmog'i lozim bo'ladi.

Ana shunday tushunchalar sirasiga persionallik, temporallik, lokallik, modallik, aspektuallik va boshqa shu kabi tushunchalarni kiritish mumkin. Bu tushunchalar barcha tillar va muayyan bir tilning barcha sathlari uchun universal hodisa bo'lib, tillararo yoki bu tilning sathlararo turli xil ifodalanish xususiyatiga ega.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida onomasiologik tamoyilga asoslangan, til mazmuniy, mundarijasiga maydon sifatida yondashuv asosidagi tadqiqotlar ancha ommalashdi. Jumladan, A.Sobirovning "O'zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish" mavzusidagi tadqiqotida leksik sathga mazmuniy maydon sifatida yondashgan bo'lsa,¹ N.Nishonova va D.Vaqqosovalar leksik sath tarkibidagi ma'lum mikromaydonlarning semantik tahliliga,² H.Hojieva va F.Safarovlar esa mazmuniy strukturadagi turli sathlarga xos birliklarning struktur tahliliga e'tibor qaratdilar.

Dastlabki ishlarda muayyan mazmuniy umumiylik ostida mikromaydonga solishgan leksemalar tadqiq ob'ekti sifatida olinsa, keyingi tadqiqotlarda turli sath birliklarining bir umumiy mazmun ostida birlashishga diqqat qilinadi. Xususan, H.Hojieva o'zbek tilidagi hurmat ifodalovchi morfologik, sintaktik, lug'aviy, fonetik vositalarni o'rganishni ko'zda tutadi.

¹ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳнинг система сифатида тадқиқ этиш. Филол.фан.док.дисс.автореф. Т., 2005

² Нишоновна Н. Ўзбек тилида ҳайвон архисемалик лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили. Филол.фанл.ном.дисс.автореф. Т., 2000. Ваққосова Д.В. Ўзбек тилидаги акционимларнинг семантик таҳлили. Филол.фанл.ном.дисс.автореф.Фарғона, 2005.

Uningcha, “struktur” funksional-semantik xususiyatiga qarab hurmat maydoni uch qismga bo‘linadi: yadro markaz va markazdan tashqari (chekka) qism¹.

F.Safarov “miqdor” semasi orqali birlashgan lug‘aviy, grammatik vositalarni tahlil qiladi. M: “O‘zbek tilida son-miqdor ma’nosini ifodalovchi lug‘aviy, sintaktik, so‘z yasovchi va nolisoniy vositalar mavjud bo‘lib, yuqoridagi ikki kategoriya (ot va fe’lning son kategoriyasi Sh.I.) bilan birgalikda yagona umumiy mazmuniy vazifa bajaruvchi tizim hosil qiladi. Bundan son-miqdor ma’nosini grammatik kategoriyadan kengroq” tushuncha anglatuvchi atamaga asoslanib o‘rganish lozimligi anglashiladi. Tilshunoslikda bu maqsadda maydon so‘zidan foydalaniladi”, - deb ta’kidlaydi. Tadqiqotchi o‘zbek tilidagi “miqdor” semali bir mazmuniy umumlashma ostida birlashgan turli sath birliklarini aniqlab, ularning birlik, ikkilik, ko‘plik, umumiylik singari darajalarni belgilaydi.

Yuqoridagi tadqiqotlarda belgilab olingan ob’ektlarning struktur xususiyatlari yetarlicha tahlil etilgan. Quyida bir o‘zbek tilidagi til birliklari misolida personallik (shaxs), temporallik (zamon), lokallik (makon), shaxs va to‘siqsizlik singari mikromaydonlarning ayrim belgilari to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

1.2. Temporallik maydoni va uning tilda aks etishi

Temporallik mazmuniy umumiyliги ostida birlashgan birliklar ham tilning turli sathlarida namoyon bo‘ladi. Jumladan, morfemik sathda, “zamon” umumiy semasiga ishora qiluvchi so‘z yasovchilar orqali temporallik ifodalanish mumkin: kuzgi, qishqi va h.k.

Shuningdek temporallik leksemalar vositasida ham ifodalanadi. O‘zbek tilshunosligida M. Hakimovanning “O‘zbek tilida vaqt ma’noli lug‘aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari” nomli monografik tadqiqoti mavjud bo‘lib, unda temporal semantikaning o‘zbek tili sathlari va ularning birliklarida tutgan o‘rnini belgilash xususan, vaqt ifodalovchi leksemalarni komponent tahlil etish¹ ko‘zda tutiladi.

Vaqtning lingvistik asosda ifodalashning keng qamrovli muammolari asosidan semantik kategoriya va funksional semantik maydon sifatidagi temporallik bilan bevosita bog‘liq masalalarni alohida ko‘rib chiqish yetarlicha samara beradi. Ta’kidlash kerakki, zamon kategoriyasi lingvistik manbalarda ancha chuqur o‘rganilgan.

Temporallik-semantik kategoriya bo‘lib, u inson tomonidan so‘zlovchi nutqi momentiga yoki boshqa hisob nuqtasiga nisbatan belgilanayotgan vaziyatlar va ularning elementlarini qabul qilish hamda anglashni ifodalaydi. Shu bilan birga, temporallik ushbu semantik kategoriyaga

¹ Хожиев Х. Кўрсатилган асар, 8-бет

¹ Хакимова М.К. Ўзбек тилидаги вақт маъноси луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари: Филол.фан.нам.дисс.автореф. Фарғона, 2004.

asoslangan FSM bo‘lib, u o‘zining shu semantik kategoriyaning turli vaziyatlarini ifodalash uchun ishlatiluvchi u yoki bu tilning grammatik, leksik hamda murakkab (leksik-grammatik, grammatik-kontekstual va h.k.) vositalar guruhini birlashtiradi.²

Agar aspektuallik harakatning ichki zamonini, ya’ni harakatning zamonda sodir bo‘lishi va shu orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatsa, temporallik tashqi zamon (Bondarko) bo‘lib, aniq xarakterga ega.

Temporallik, shuningdek boshqa FSMLarni tadqiq etishda kategorial vaziyat tushunchasidan foydalanish mumkin. U maydonni ma’lum paradigmatic sistema sifatida bog‘lab, uning elementlarini nutqda namoyon qiladi;

a) temporallik semantik kategoriyasiga asoslanadi va tilda TSM hosil qiladi;

b) ifoda orqali berilayotgan umumiy vaziyatni qandaydir holda vaqtga bog‘liqligini ko‘rsatuvchi aspekt hisoblanadi.

Vaqtga nisbatan u yoki bu tarzda munosabatda bo‘lishi barcha til ifodalari uchun xoslanadi. Bu munosabatlar temporallik bilan ob’ektiv modallik tushunchasini bog‘laydi. Modallik temporal munosabatining yuzaga kelishi uchun ma’lum sharoit yaratadi.

Temporallik personallik bilan ham uzviy bog‘liqdir so‘zlovchi shaxs o‘z fikrini bayon etishda muayyan vaziyat (vaqt)ni xos manzaralar nuqtai nazaridan farqlanadi. Ya’ni temporallik vaqtni belgilovchi aniq mezonlarga tayanish mumkin bo‘lsa, personallikning mazmuniy mundarijasida yo‘nalish hisobga olinmay, unda shaxsga “personal substansiya” yoki “personal ko‘plik” sifatida qaraladi. A.V.Bandenko temporal munosabatlarning turlicha tiplarini ajratadi. Va ularni asoslash uchun ma’lum belgilarni hisobga oladi.¹

Grammatik sathda (morfologiya) temporallik maydonning yadrosini fe’ning o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllari tahlil etadi: o‘qidi, o‘qigan, o‘qibdi, o‘qimoqda, o‘qiyapti, o‘qiydi, o‘qimoqchi va boshqalar.

Bunday qarash tadqiqotchi M.Hakimova tomonidan ham e’tirof etiladi. “Tilda vaqtni ifodalovchi leksik, morfologik “sintaktik” kabi ifoda tizimlariga ega bo‘lgan ko‘p bosqichli temporal maydon mavjud. Umumiy maydonning yadrosini grammatik vaqt ma’noli shakllarning yopiq sistemasi solgan fe’l zamonlari tashkil etadi.

Maydonning chegara qismini yaqin chegara va uzoq chegara sifatida ajratish mumkin. Yaqin chegara fe’l zamonlarini yuzaga chiqaruvchi analitik shakllar joylashadi, o‘zbek tilida bunday vositalar sirasiga to‘liqsiz fe’l yordamida shakllangan birliklar (o‘qir edi, o‘qigan edi) faqatgina nutq jarayonida reallashish imkoniga ega bo‘lgan sifatdosh shakllari belgilovchi fe’l ishtirok etgan funksiyalar (ukam quruvchi, tun sokin tipli ifodalar) mansub bo‘ladi.

² ТФД Темпоральность модальность. Л. Наука, 1990. –с.6

¹ ТФГ. Темпоральность Модальность. Л. Наука, 1990. –с.7

Maydonning uzoq chegarasini esa ravishdosh oborotlar tarkibidagi ravishdosh ko'rsatkichlari (-gani, -ib, -gach kabilar) ma'lum vaqtga ishora qiluvchi leksik ko'rsatkichlar (ancha, avval, hozir, kecha, bir necha bundan so'ng kabi) vaqtni belgilashda xizmat qiluvchi bog'lovchi vositalar (qachonki, hozircha, ish vaqtning o'zida tarzida) tahlil etadi.

I.Rasulov "Sintaktik zamon kategoriyasi ham morfologik zamon kategoriyasidan farq qilishi kerak. Morfologik zamon kategoriyasi bir ma'noli zamon formalarining qo'llanishi funksiyasi esa sintaksisga oiddir. Deyarli barcha zamon formalari nutqda turli zamon uchun qo'llanishi mumkin"¹ – deb ta'kidlaydi.

Temporallik sintaktik sathda payt holi pozitsiyasiga keluvchi gap bo'laklari, shuningdek, payt ergash gapli qo'shma gaplar orqali ham namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Qisqasi temporal mikromaydon tarkibiga morfemik sathdagi zamonga ishora qiluvchi turlicha birliklardan boshlab to yuqori sath birligi sifatida e'tirof etiluvchi sintaktik strukturalarni ham kiritish mumkin.

Til o'zida rang-barang odamni aslida mos ravishda in'ikos ettirishga harakat qilar ekan, bunday holatda til uchun vaqtning barcha turlarini hayotiy (empirik) va ilmiy tushunchalar asosida aks etishdan boshqa yo'l yo'q. Tildagi vaqt ifodalanishlarini o'rganish uchun, avvalo, vaqt semantikasining denotatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shu boisdan tadqiqotning birinchi bo'limida vaqt tushunchasining taraqqiyoti, unga bo'lgan hayotiy va ilmiy munosabatlar, g'arb va sharq faylasuf – mutafakkirlarining vaqt haqidagi qarashlari, vaqtning zamonaviy tavsifi asosida vaqtning nima ekanligiga (denotatiga) e'tibor berildi.

Vaqt haqidagi turli qarashlarning tadrijiy taraqqiyoti zamonaviy vaqt tushunchasining aniqlanishiga olib keldi. Unga ko'ra vaqt (fazo bilan birga) materiyaning mavjudlik shakli bo'lib, moddiy jarayonlarning turli bosqichlari, bir-biridan ajralganligi, ularning davom etishi, rivojlanishini bildiradi. Vaqtning belgilari sifatida esa bir o'lchamlilik, qaytarilmaslik, cheksizlik, davomiylik, uzluklilik, bo'linuv ekanlik, ketma-ketlik bir xillilik kabi xususiyatlar tan olinadi.¹

Ma'lumki til qurilishida ishtirok etadigan va unda muayyan tuzilishga, leksik, morfologik, sintaktik sistemalarda aniq ifodalanishiga ega bo'lgan tushunchagina ong kategoriyasi bo'la oladi. Vaqt ham ong kategoriyasi bo'lib, u til qurilishida ishtirok etadi va sistema hosil qiladi. Vaqtning tilda sistema ifodalanishi insonlarning dunyoning vaqt strukturasi anglashi (gnoseologik aspekt) bu haqda o'zgalarga ham axborot berish (kommunikativ aspekt) va tilning vaqt-makonda mavjudligi (ontologik aspekt) kabi omillar bilan bog'liqdir. Vaqtning ongda in'ikos etish asosida tilning temporal funksional semantik kategoriyasi shakllanadi.

¹ Rasulov И. Предикативлик ва модаллик ҳамда уларнинг ўзаро муносабатига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. 1972, 4-сон, 30-бет.

¹ Философия луғати. –Т.: Ўзбекистон, 1976, Б.-60-63

Tilda vaqtni ifodalovchi leksik, morfologik, sintaktik kabi ifoda tizimlariga ega bo'lgan ko'p bosqichli temporal maydon mavjud. Umumiy maydonning yadrosini grammatik vaqt ma'noli shakllarning yopiq sistemasi bo'lgan fe'l zamonlari tashkil etadi. Vaqt ma'nosini ifodalashda ierarx maydonning birliklari o'zaro hamkorlik qiladi. Masadan, leksik birliklar yadro birliklari ifodalagan mavhum birliklar vaqt ma'nosini aniqlashtiradi. Leksema va frazemalarda vaqtga bo'lgan sub'ektiv munosabatlar aks etadi. Periferiyada ham vaqt ifodalanishi o'ziga xos sistemani tashkil etadi. Xususan, lug'aviy birliklar "vaqt" ma'nosi asosida maxsus mikromaydonni vujudga keltiradi. Bu maydonning yadrosini "vaqt" semasi yetakchi bo'lgan, bevosita vaqt ifodalovchi payt ravishlari tashkil etadi. Yadrodan keyingi birlamchi qurshovga payt otlari mansub bo'ladi. Bu kabi leksemalarda predikatlik semasi "vaqt" semantik elementiga nisbatan yetakchi hisoblanadi. Keyingi qurshovda payt ma'noli sifat, olmosh, ravish, ko'makchi, yuklamalarni kiritish mumkin. Uchinchi periferiyada esa tong chog'i, kuz payti kabi so'z birikmalari va so'z (qo'shma so'z) oralig'idagi gibril birliklar mansubki, bular til va nutq hodisalari bog'lanishdagi oraliq uchinchilardir.

Eng qadimgi davrlarda vaqtga bo'lgan munosabatlar emotsiyalarga boy bo'lgan. Insonlar o'z mavjudliklarining vaqtinchaligini bilganlar va shuning uchun vaqtdan qo'rqanlar.

Qadimgi grek mifologiyasida vaqt xudosi Xronos rahmsiz va ayovsiz qilib ta'riflanadi. U har safar yangi tug'ilgan bolalarini yeb qo'yadi. Xronosga yangi tug'ilgan o'g'li Zevsning o'rniga toshni yo'rgaklab beradilar va vaqt xudosi toshga tiqilib qoladi. Zevs omon qoladi va ulg'aygach otasini yer qa'riga zindonband qiladi. Bu rivoyatda antik davr kishilarining vaqtni yengishga intilishlari, abadiy yashash istaklari namoyon bo'ladi.

Qadimgi rimliklarda vaqt xudosi Saturn bo'lib, uning yonida ibtido va intiho xudosi Yanus turgan. Yanusning yuzi ikki xil, ya'ni yoshlik va qarilik, baxtiyorlik va qayg'u alomatlari bilan ifodalangan. Yanusning ikki yuzi o'tmish va kelajak timsolidir. Biz Yanus sharafiga yilning boshlanish oyini Yanvar deb ataymiz. Antik davr faylasuflari vaqtning real mavjud yoki mavjud emasligi haqida bahs yuritadilar. Geraklit vaqt haqida shunday degan edi: «Bir daryoga ikki marta kirib bo'lmaydi. Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaradi. Xuddi shuning uchun ham vaqt mavjuddir». Unga qarshi Parmenid vaqtning realligini inkor etadi: u hosil bo'lmaydi va o'limga bo'ysunmaydi, hamma narsa butun, oxiri yo'q, harakatsizdir. O'tmish ham yo'q, kelajak ham yo'q, hamma narsa «hozir»da.

Aristotel umrining so'nggi yillarida dunyoning vaqt strukturasi ega ekanligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Ammo u vaqtni rivojlanishda, o'zgarishda, harakatda talqin etmaydi. Antik va o'rta asr oralig'ida yashagan Avgustin Blajenskiy vaqt to'g'risida shunday yozgan edi: «Vaqt

kabi aniq va oddiy narsa yo‘qdek, shu bilan birga, vaqtdek kishini fikrlashga tortuvchi noaniq va sirli narsa bo‘lmasa kerak».¹

O‘rta asrlarga kelib Yevropada vaqtning real mavjudligini ilohiyotga bog‘lab o‘rganadilar. O‘rta asr sxolastlari vaqtning statik (harakatsiz) modelini oliy mavjudotga, dinamik (harakatli) modelini esa reallikka xos deb biladilar.

Yevropa uyg‘onish davrida tabiiy fanlarning rivojlanishi bilan vaqtning dinamik konsepsiyasiga katta e‘tibor berildi. XIX asr nemis faylasufi Georg Vilgelm Fridrix Gegel dinamik konsepsiya tarafdori bo‘lib, u: «Vaqtda hamma narsa o‘tkinchi deyishadi, biroq vaqtning o‘zi ham o‘tkinchi, u keladi va ketadi», - deb yozgan edi².

Falsafa tarixida vaqtga bo‘lgan yondashuvlar turlicha bo‘lib, ularni ikki katta guruhga, ya’ni substansional va relyatsion konsepsiya tarafdorlariga ajratish mumkin.

Substansional konsepsiya tarafdorlari vaqt va makonni materiyadan ajralgan alohida mohiyat deb tushunadi. Ularning fikricha, vaqt jarayonlar yuz beruvchi sahnadir. Harakatdagi aktyorsiz, ob’ektlarsiz ham sahna sahna bo‘lib qolganidek, vaqt va makon ham materiya va jarayonlarsiz mavjud. Vaqtga relyatsion yondashuv esa «vaqtni alohida, materiyadan ajralgan holda emas, balki materiyaning o‘zaro munosabatlari, munosabatlarning ketma-ketligi, davomiyligidir» degan qarashni ilgari suradi.

O‘rta asrning olimi va hakimi Abu Bakr Ar Roziy (865-925) dunyo besh abadiy ibtidodan, ya’ni yaratuvchi, mutlaq zamon va makon, jon va materiyadan tashkil topgan degan fikrni bildiradi. U vaqt haqida «Makon va zamon haqida mulohaza» nomli falsafiy asarini yaratadi³.

O‘rta Osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim Abu Nasr Forobiy (873-950) olam oliy qudratdan vujudga kelgan - degan idealistik fikrda bo‘lsada, lekin materiyaning oxiri yo‘q, makonda ham, zamonda ham cheksiz va chegarasiz degan farazni ilgari suradi: «Olloh hamma narsaning boshlang‘ichi, barcha vujudlar undan emanatsiya asosida kelib chiqadi, materiya hammasining yakuni, hech qachon yo‘q bo‘lmaydi, abadiy zamonda cheksiz, o‘zgarib turadi»⁴. Demak, Forobiy vaqtning abadiyligini, cheksizligini tan oladi. Forobiy «Mantiqqa kirish» asarining to‘rtinchi bo‘limida predmet - hodisalarning tartibini, birin-ketinligini ajratish uchun asos bo‘luvchi prinsiplarni to‘rt xil turga bo‘ladi: zamon-vaqt, tabiiy tuzilish, martaba-daraja, fazilat, kamolat, yetuklik. M.Baratovning «Ibn Sino etikasi» risolasida Forobiyning «Vaqt» nomli asari haqida yoziladi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) esa real dunyo mangudir, materiya mangu yashaydi, materiyaning formasiz, harakatni vaqtsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi degan fikrni bildiradi. Ibn Sino sharqda

¹ Подольный Р.Г. Освоение времени. –М.: Политиздат, 1989. –С.14-15.

² Введение в философию. Том II. –М.: Политиздат. 1989. –С.80.

³ Баратов М. Ибн Сино этикаси. –Тошкент: Фан, 1995. –Б.6.

⁴ Хайруллаев М. Форобий ва унинг фалсафий рисолалари. Тошкент, 1963. –Б.65.

birinchi bo‘lib vaqtning harakat bilan, harakatdagi materiya bilan chambarchas aloqasini ko‘rsatadi. Ibn Sinoning vaqt va harakatning bog‘liqligi haqidagi fikrlari dialektikaga yaqindir.

Nishopurlik ulug‘ olim va shoir Umar Hayyom (1048-1123) vaqtning insonga bog‘liq emasligini, orqaga qaytmasligini, uzluksizligini, dinamikligini tan oladi:

Mast bulbul yo‘l oldi guliston tomon,

Unda topdi boda ham guli xandon.

Yurak tili birla shivirlab aytdi,

«Bo‘sh qo‘yima, o‘tgan umr qaytmas hech qachon» (U.Hayyom).

Sharq falsafasining yana bir yirik namoyondasi Beruniy vaqtni deistik tan oladi. Lekin o‘zining tabiiy ilmiy izlanishlaridan kelib chiqib, u shunday xulosa qiladi: «Zamon boshlanishi va olamning yaratilishi biz olgan har qanday vaqtdan bir lahza avval sodir bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Bir lahza ming yillardan ilgari bo‘lgan ehtimoli bor. Agar bu yillarni hisoblab chiqilsa va ularning (uzoqligini) voqelikka mos cheklab qo‘yilsa, ya’ni olamning yaratilishi lahzasini g‘oyat uzoq bo‘lgan o‘tmishga, agar mantiqiy fikr qilinsa cheksizlikka surish mumkin».¹ Buyuk o‘zbek mutaffakiri, shoir Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari panteizmga asoslanadi. Unga ko‘ra, dunyoning yaratilishi tabiiy jarayondir: ilohiyot o‘z husnini zuhur etishga muhtoj edi, shuning uchun unga ko‘zgu kerak bo‘lib qoldi, tabiat ana shu ko‘zgudir, unda xudo o‘zining barcha sifatleri bilan turli hodisalarda jilvalanadi. Ammo ilohiyotning tabiatda zuhr etishining asosiy maqsadi inson edi, uning xayr sahovati, muhabbati insonga qaratilgandir. Vaqt ham, xuddi uningdek, olloh tomonidan insonlar uchun yaratilgandir:

Haftavu oyu yilni tez etding,

Umr ila ishlarin sitez etding.

Bog‘ ochilmoq alar mururidin,

Gul ochilmoq alar yururidin.

Tunu kun adhamiyu ashxabini,

Charxi tavsanning ikki marxabini.

Kecha kunduz shitob aro solding,

Tunu kun iztirob aro solding.

Kim qilib bo‘yla po‘nu novard,

Yetkurib ko‘kka dahr elidin gard (Navoiy).

XVI asr oxiri XVII asr boshlarida yashagan faylasuf Yusuf Qorabog‘iy vaqt muammosini o‘ziga xos yechishga harakat qiladi. Qorabog‘iy barcha narsa-hodisalarni makon va zamon bilan yaqin aloqada ko‘radi. Uning fikricha, «yolg‘iz ollohgina makon va zamonga dahldor emas».

¹ Нуриддинов М. Юсуф Қорабғий ва Ўрта Осиёда XVI-XVII асрларда фалсафий фикр. –Тошкент: Фан, 1991. –Б. 40.

Qolgan hamma narsalar «zamon bilan bog‘liqdir». Agar kimdir bu shahardan chiqib ketsa, butunlay hamma joydan ketdi, degan ma’noni bildirmaydi. Shuningdek, lahzadan chiqqan, barcha lahzadan chiqmaydi. Qorabog‘iy fikriga ko‘ra, zamon chegarasiz va cheksiz, olam zamonda abadiydir. U: «Abadiylik intihoga tomon nihoyasiz vaqtni anglatadi. Ehtimol qilinadigan bu vaqtning chegarasi yaratish vaqti sifatida qaralishi mumkin. Har bir yaratilish vaqtidan avval boshqa yaratilish mavjuddir». Yusuf Qorabog‘iy makon va zamon kontinumini hal etishda peripatetizm pozitsiyasida izchil turganini ta’kidlab o‘tish lozim.

Yuqorilardan ma’lum bo‘ldiki, O‘rta Osiyoda vaqtga bo‘lgan munosabat, g‘arbdagi kabi, uning alohida ob’ektmu va ob’ektlar munosabatimi muammosida emas, balki vaqtning cheksizligi, orqaga qaytmasligi, uzluksizligi, materiyaning vaqtda abadiyligi ustida boradi. Vaqtga bo‘lgan diniy va tasavvufiy munosabatlardan yana biri shuki, insonning bu dunyodagi umri juda qisqa, foni dunyoda esa abadiy yashaydi. Shundan kelib chiqib bo‘lsa kerak, bu dunyodagi vaqtning, umrning qadriga yetish, undan unumli foydalanishga undash o‘zbek faylasuf va shoirlari uchun an’anaga aylanib qolgan.

Xullas, vaqt haqidagi turli qarashlarning tadrijiy taraqqiyoti zamonaviy vaqt tushunchasining aniqlanishiga olib keldi.

Vaqt (fazo bilan birga) materiyaning mavjudlik shakli bo‘lib, moddiy jarayonlarning keng yoyilishi izchilligini, bu jarayonlarning turli bosqichlari, bir-biridan ajralganligi, ularning davom etishini, rivojlanishini bildiradi. Har bir narsa o‘z o‘tmishi, hoziri, kelgusiga ega. Narsa-hodisalarning ba’zi birlari avvalroq, boshqalari keyinroq sodir bo‘ladi. Bular esa vaqt tushunchasini ifodalaydi. Vaqt uch o‘lchovli fazo bilan ajralmas bog‘liq bo‘lsada, u bir o‘lchovidir.

Jarayonlar zanjiri uzluksiz oldinga davom etadi. Demak, vaqt qaytarilmas, cheksiz va uzluksizdir. Yuqorida aytganimizdek, vaqtning muhim belgilari uning bir o‘lchovli va qaytarilmasligidadir. Moddiy narsalar fazoda har xil joylashishlari, turli tomonga harakat qilishlari mumkin, lekin vaqtga kelganda ular faqat bir tomonga – o‘tmishdan kelajakka qarab yo‘naladi. Vaqt hech qachon orqaga qarab harakat qilmaydi. O‘tgan zamonning yo‘q bo‘lishi mumkin emas. Vaqtning qaytarilmasligi, ya’ni kechaning bugun yoki ertaga aylanmasligi azaliy qonun bo‘lib, uni dialektikadagi sababiyat qonuni bilan izohlash mumkin. Vaqtning yana bir xususiyati uning cheksizligidadir. Vaqt cheksizligining ma’nosi shuki, moddiy dunyoning boshi ham, oxiri ham bo‘lmaydi. Materiya makonda cheksiz, vaqtda abadiydir. Demak, vaqtning asosiy xususiyatlari bir o‘lchamlilik, qaytarilmaslik, cheksizlik va bir jinslilikdir «Bir jinslilik» tushunchasi bo‘yicha vaqt lahzalari bir-biriga tengdir. Agar biz vaqtni nuqtalardan iborat to‘g‘ri

chiziq deb olsak (Leonardo do Vinchi), nuqtalar orasidagi o'lchov bir xil bo'ladi.¹ Biz ba'zan vaqt o'tyapti, yuguryapti, sudralyapti, to'xtab qoldi kabi iboralarni ishlatamiz. Masalan, **G'.G'**ulom vaqtning sub'ektiv nisbiyligini o'zining «Vaqt» she'rida shunday ifoda etadi:

G'uncha ochulguncha o'tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba'zida bir nafas olg'ulik muddat –
Ming yulduz so'nish uchun yetgulik.
Yashash soatining oltin kapkuri
Har borib kelishi – bir olam zamon.
Koinot shu damda o'z kurrasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon (**G'.G'**ulom).

So'nggi davrlarda vaqtga bo'lgan qiziqish tobora oshib bormoqda. Vaqt kategoriyasining xususiy ko'rinishlari ilm-fanning turli sohalarida qayd etilmoqda. Fizik vaqt, kimyoviy vaqt, tarixiy vaqt, iqtisodiy vaqt, psixologik vaqt, lisoniy vaqt kabi tushunchalarning paydo bo'lganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Vaqtga oid so'nggi kashfiyotlar Alhbert Eynshteynning nisbiylik nazariyasi asosida yaratilgan. Ushbu nazariyaning eng so'nggi xulosasi shu bo'ldiki, u vaqt va makon o'z-o'zicha, materiyadan ajralgan holda mavjud emas. Ular bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lib, bunda ular o'z mustaqilligini yo'qotadi va bo'linmas, yaxlit «zamon-makon»ning nisbiy tomonlari sifatida namoyon bo'ladi. Nisbiylik nazariyasi shuni isbot qildiki, vaqtning o'tishi jismlarning harakat tezligiga bog'liqdir. Aniqrog'i, yorug'lik tezligida harakat qiluvchi ob'ektlarda fazo o'lchamlari qisqarib, vaqt o'lchamlari kengayadi. Bunda ob'ektning hajmi kichrayib, vaqtning o'tishi cho'ziladi. Demak, Eynshteynning nisbiylik nazariyasi cheksiz koinot uchun vaqtning yagona ekanligini inkor etdi va mikro-, mega- va makroolamlarda vaqtning turli xususiyatlarga ega bo'lishini kashf etdi .

Til o'zida rang-barang olam turlarini asliga mos ravishda in'ikos ettirishga harakat qilar ekan, bunday holatda til uchun barcha olamlarga xos bo'lgan vaqt turlarini hayotiy va ilmiy tushunchalar asosida aks ettirishdan boshqa yo'l yo'q. Aks holda odam va olam munosabati buzilgan bo'lardi. Vaqt material dunyo atributi bo'lib, o'zining o'zgarmas, barqaror ma'nolari bilan til sistemasida o'z aksini topadi. Dunyoda hech bir til yo'q-ki, u vaqt va vaqt munosabatlarini ifodalovchi grammatik, leksik vositalarga ega bo'lmasa. I.I.Meg'aninov ta'kidlaganidek, «Har qanday tushuncha tilda yo tavsifiy ifodalanishi, yo alohida so'z ma'nosi bilan berilishi yoxud bir butun sistema yordamida ifodalanishi mumkin. Ana shu tilda sistema hosil qiluvchi tushuncha ong kategoriyasi deyiladi. U til vositalari bilangina ifodalanib qolmay,

¹ Подольный Р.Г. Освоение времени. –М.: Политиздат, 1989. –С.36.

balki tilning o'zida, tilning material qismida o'z ifodasiga ega bo'ladi. Shunday qilib, tilda bayon qilinadigan har qanday tushuncha ham ong kategoriyasi bo'lavermaydi. Til qurilishida ishtirok etadigan va unda muayyan tuzilishga, leksik, morfologik, sintaktik sistemalarda aniq ifodalanishga ega bo'lgan tushunchagina ong kategoriyasiga bo'la oladi»(76). Demak, vaqt ham ong kategoriyasi bo'lib, u tilda o'z ifodasiga ega.

Leksik sathda vaqt tushunchasi mustaqil so'zlar bilan ifodalanadi. Vaqt ma'nosi asosiy leksik ma'noni (sememani) yoki o'zga ma'noli (predmet, harakat kabi) leksemaning tarkibiy qismini (semani) tashkil etadi.

Ot turkumida payt ma'nosi vaqt o'lchovlari (soat, oy, yil), sutka qismlari (tong, tun, kun), oy nomlari (mart, may), fasl nomlari (bahor, yoz), marosim otlari (uch, yetti) kabi leksik-semantik guruhlarda aks etgan.

Ravishlarning maxsus semantik guruhi (payt ravishlari) vaqt ifodalashga (hozir, bugun, ertaga kabi) xizmat qiladi. Shuningdek, holat ravishlarining ko'plarida payt ma'nosi semantik element sifatida (masalan, **to'satdan** ravish sememasida «kutilmagan vaqt» semasi bo'lgani kabi) qatnashadi.

Vaqt ma'nosi sifatlar semantikasida ham aks etgan. Bunda payt sememasi sema maqomida sifatning muayyan ma'no turlarini shakllantirishga xizmat qilgan. Nisbiy sifatlar hisoblanuvchi **bahorgi, yozgi, qishki, kuzgi, mavsumiy** kabi leksemalarda payt semasi fasllarga munosabat (bahorgi bug'doy, kuzgi shudgor) belgilarini hosil qilishga asos bo'lgan. Sutka qismlarini anglatuvchi payt otlari asosida ham tunu kunning turli vaqtlariga munosabat ifodalovchi sifatlar shakllangan. Masalan, **tushlik (ovqat), tonggi (shabada), tungi (voqea)** kabi.

Davriy, zamondosh, zamonaviy, vaqtinchalik, bevaqt, muddatli, ibtidoiy, bemahal, bemavrid, intihosiz, nihoyasiz, oniy kabi sifatning vaqtga munosabat belgilari «noaniq vaqt» semasi asosida hosil qilingan.

Vaqt triadasini anglatuvchi **qadim – hozir – kelgusi, kecha – bugun – ertaga** kabi munosabatli vaqt otlari ma'nolari asosida **qadimgi, qadimiy, azalgi, azaliy, burungi, bulturigi, kechagi, bugungi, ertangi, avvalgi, keyingi, so'nggi, so'ngsiz** kabi sifatlar hosil qilinib, ularning semantikasida vaqt o'rinlariga munosabat belgilari aks ettirilgan. Xuddi shunday ma'nolar fe'llar leksikalizatsiyasi asosida hosil bo'lgan **o'tgan odam (marhum), kelasi (zamon), bo'lajak (ishlar), kelajak (avlod)** kabi sifat yoxud sifatsimon so'zlarda ham aks etgan. **Doimiy, abadiy, uzluksiz** kabi sifatlar ma'nosida vaqt uzluksizligi asosiy sema bo'lib xizmat qilgan. **Kechki, kechlik (ovqat), ertangi, ertalik (ish), kechpishar, ertapishar** kabi sifatlarda amalga oshish vaqtining «oldinlik» yoki «keyinlik» belgilari aks etgan. **Oylik (reja), yillik (hisobot), asrdosh (avlod), asriy (orzular), melodiyl (yil)** kabi sifatlar o'lchovli vaqtga

munosabat belgilarini anglatadi. **Kenja, o'rtancha, to'ng'ich** sifatlarida vaqtning darajali oshib borish belgilari (avval – keyin – undan keyin) ifodalangan. **Tadrijiy, surunkali, betinim, davomli, davomsiz** kabi sifatlar «uzluksiz vaqt» semasiga ega. **Navqiron, tengdosh, tezpishar, dolzarb** kabi sifatlarning semantik strukturasi «etuk vaqt (yosh)», «bir vaqtlilik», «me'yordan avval», «vaqt jihatdan muhim» semalari mavjud.

Vaqt semantikasi ayrim fe'llarning ma'nolaridan o'rin olgan. Xususan, **yozlamoq, qishlamoq, tunamoq** fe'llarida harakat bilan bog'liq o'lchovli vaqt (tun, yoz, qish) asosiy semalar hisoblanadi. Biologik harakatlarni ifodalovchi **yashamoq** va **qarimoq** so'zlarining semantikasi vaqtning umr o'lchovi bo'lgan «yosh» (yashamoq) va «yoshi katta» (qari) semalari ishtirokida hosil bo'lgan. Shuningdek, **yasharmoq** fe'lining asosida ham «yosh» semasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ma'no yotadi. **Abadiylash-moq** fe'li «oxiri yo'q uzluksiz vaqt» semasiga ega. **Tamomlamoq, oxirlamoq, tugamoq** fe'llarining semantik strukturasi «nihoyali vaqt» semasi mavjud. Nihoyat, **sudramoq** va **imillamoq** kabi fe'llarda harakatning odatdagi amalga oshishi uchun me'yoriy vaqtga nisbatan ko'p vaqt sarf qilinganlik, ya'ni «kech» semasi bor.

O'z-o'zidan tushuniladiki, son so'z turkumi sof miqdorni ifodalagani uchun uning tarkibida vaqt ma'noli sonlarning bo'lishi mumkin emas. Lekin «bir» sonidan kontekstual ma'nolar ta'siri ostida vaqt ifodalovchi ravish bog'lovchi hosil bo'lgan. *Bir (ba'zan) akam keladi, bir (ba'zan) ukam keladi.* Shuningdek, «bir» soni payt ravishlari va ajralmas temporal birikmalar-ning tarkibiy qismiga aylangan: masalan, *bir kuni, bir yili, bir pas, bir zumda, bir onda* kabi.

Olmosh turkumida vaqt ifodalovchi so'z «qachon» bo'lib, unda so'roqli noaniq vaqt aks etgan. **Qachondir, allaqachon, hech qachon, har kuni, hamma vaqt** kabi payt ravishlarining shakllanishida inkor, gumon va belgilash olmoshlarining ishtiroki mavjud.

Oraliq so'zlar hisoblangan modal so'z, taqlid va undovlarda vaqt ma'nosining aks etishi o'ziga xosdir. Kirish so'z vazifasida qo'llanuvchi, gap mazmuniga tartib munosabatini bildiruvchi modal so'zlardan «avvalo» so'zi «birinchidan» ma'nosi uchun qo'llanganda ham uning asos so'zi bo'lgan «avval»ning payt ma'nosi butkul yo'qolib ketmagan. *Avvalo, u kelsin. Ikkinchi-dan, men ham bu masalani yana bir o'ylab ko'ray (so'zlashuv nut-qidan).* Shuningdek, gumon munosabat bildiruvchi «ehtimol» so'zi ma'nosida ham faraz munosabati anglatilganligi uchun kelasi zamon ottenkasi bordek tuyuladi. Taqlid va tasviriy so'zlarda vaqt ma'nosi bevosita ifodalanmaydi. Taqlid qilinayotgan hodisaning davomli ifodalanishi natijasida shu hodisa-harakatdan ajralmas bo'lgan vaqt ham sezilayotgandek tuyuladi. Qiyoslang: **mo' – mo'o' – mo'o'o', hi-hi – hi-hi-hi, uv – uvv, yalt – yalt- yalt, quq-quq – quq-ququq-quu** kabi. Undov so'zlarda ham shunday: **oh – oh-oh-oh, eh – ehhe, xo'sh – xo'o'sh** va hokazo.

Vaqt semantikasi mustaqil soʻzlarning yordamchi vazifa kasb etgan koʻrinishlarida va sof yordamchi birliklarda ham oʻz ifodasiga ega. Xususan, koʻmakchi feʼllar asosiy feʼllarga qoʻshilib harakatning turli tarzlari bilan bogʻliq vaqt koʻrinishlarini ham ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *yoza boshladi* (harakatning boshlangʻich payti), *yozib turdi* (harakat vaqtining davomlilik), *yozdi-qoʻydi* (harakat amalining qisqa vaqti), *yozib boʻldi* (harakatning vaqtining tugallanganligi) va hokazo. Toʻliqsiz feʼllar feʼl va boshqa soʻzlarga qoʻshilib zamon ifodalaydi. Qiyoslang: *U – akam* (umumiy hozirgi zamon). *U akam edi, U akam ekan, U akam emish* (turli modallikka ega boʻlgan oʻtgan zamonlar). *Mashina togʻda kelayotgan edi, qor koʻchishi boshlandi* (ergash gapning kesimi payt maʼnosini shakllantirmoqda) kabi. Shuningdek, ot, ravish va feʼllarning koʻmakchilashgan turlari hamda sof koʻmakchilar ham vaqt ifodalash imkoniyatiga ega.

Funksional yoki qorishiq koʻmakchilarning (bosh, oʻrta, ora, ich, old, ket, boʻy: *oy boshida kelmoq, yil oʻrtasida yuz bermoq, yoz boʻyi kutmoq* kabi) sintaktik munosabat ifodalashda leksik vaqt boʻrtib tursa, sof koʻmakchilar maʼnolarida grammatik maʼno (tobe soʻzni hokim soʻzga bogʻlash: *oy sayin yaqinlashmoq, kun sari ogʻirlashmoq, bahorga qadar tugatmoq, kuzdan beri ishlamoq, kelishi bilan aytmoq* kabi) ustunlik qiladi. Takrorlanuvchi ayi-ruvchi bogʻlovchilar oʻzlarining bogʻlash vazifalarini maʼno tarkibidagi payt semantikasi asosida amalga oshiradi. Boshqacha aytganda, payt ravishlari sintaktik takror natijasida bogʻlovchilik xususiyatiga ega boʻlgan. Masalan, *Dam akam keladi, dam ukam keladi. Baʼzan qor yogʻadi, baʼzan yomgʻir yogʻadi. Goh u keladi, goh men boraman* (soʻzlashuv nutqidan). Yuklamalarning ayrimlari (-oq, yoq, -u, -yu, -da, -mi) sintaktik vaqtni ifodalashga ixtisoslashgan. Masalan, *Akam bugunoq boradi. U keldi-yu ketdi. Ular borishdi-da qaytishdi. Paxta ochildimi terim boshlanadi* (soʻzlashuv nutqidan).

Frazeologik birliklar vaqtni obrazli ifodalash xususiyatiga ega. Bunda vaqt maʼnosi ikki yoʻsinda, yaʼni asosiy (etakchi) maʼno yoki asosiy maʼnoni tashkil etuvchi komponent (sema) sifatida ifodalanadi. Masalan, **bir kun emas, bir kun, eldan burun** (elburutdan), **yil-oʻn ikki oy** kabi frazemalar qachon soʻroqli semantikaga ega. Shuningdek, **ikki gapning birida, koʻzi ochiqligida, boshi yostiqqa yetganda, ikki dunyoda** kabi iboralarda ham vaqt maʼnosi yetakchidir. Belgilash olmoshi yoki umumlash-tiruvchi ot (hamma, katta-kichik) maʼnosini beruvchi **yetti yoshdan yetmish yoshgacha** kabi iboralarda hamda **koʻz uzmay, kechani kunduz demay, koʻzi toʻrt boʻlmoq, kuni bitmoq, kuni oʻtmoq, berdisini aytguncha urib oʻldirmoq, boʻyga yetmoq, suyagi qotmoq, daqqiyunusdan qolmoq** singari feʼl frazemalarda vaqt maʼnosi tarkibiy qism (sema) maqomidadir.

Soʻz yasaliş sathida ham vaqt maʼnoli yasovchi vositalarni uchratish mumkin. Masalan, -**boz, -xoʻr, -goʻy, -furush, -mand, -vchi** affikslari semantikasida «koʻp vaqt», «doimiy» kabi

semalar bor: **va'daboz, choyxo'r, nasihatgo'y, chiftafurush, ichuvchi** kabi. Xususan, **va'daboz** – «ko'p vaqt yoki doimo va'da berish bilan shug'ullanuvchi shaxs», **kasalmand** – «doimiy ravishda kasalga ega bo'lgan kishi» singari. Shuningdek, **-lik** (bolalik), **-gi** (kuzgi), **-i** (bahori) kabi so'z yasovchilar ham vaqt semantikali leksemalar hosil qiladi.

Vaqt ma'nosi fonetik vositalar, xususan, tovush cho'ziqligi bilan ham ifodalanadi. Odatda, portlovchi tovush oniy, sirg'aluvchi cho'ziqroq, sonor va unlilar esa nisbatan cho'ziq hisoblanadi. Nutq tezligi ortiq bo'lsa undagi tovushlar cho'ziqligi ancha kam kechadi. Urg'uli bo'g'indagi tovush boshqa bo'g'inlardagi tovushga nisbatan cho'ziqroq bo'ladi. Nutq tovushlarining cho'ziqligi, ya'ni geminatsiya unli va undosh tovushlarda uchraydi. Vaqt ma'noli so'zlardagi tovushlar geminatsiyaga uchrar ekan, vaqt ma'nosi yanada bo'rttiriladi. Masalan, **uzoq – uzoq**: *Uzoq kecha qiynalur yurak (G'ayraty). U ko'zini qisib, ruchkaning dumi bilan peshanasini qashib, uzoq (uzoq) o'yladi (H.Nazir).* Ikkinchi ma'nodagi uzoq so'zida vaqtning me'yordan ortiqligi, davomliligi aniqlanmoqda. Shuningdek, **rosa, toza, juda** so'zlarida undoshlar geminatsiyasi holat ravishi tarkibidagi vaqt semasini bo'rtti-rishga va ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi: *Mehmonlar juda (judda) tez qaytdilar, Arava rosa (rossa) sekin yurganidan qishloqqa yarim kechada kirib bordik (so'zlashuv nutqidan).*

Morfologik sathda vaqt, avvalo, fe'lning zamon shakllari orqali ifodalanadi. **O'tgan**, hozirgi va kelasi zamon shakllari (-di, -yap, -moqda kabi) vaqtning eng mavhum va sof ifodalovchi vositalardir. Ravishdosh, sifatdosh qo'shimchalari ham grammatik zamoni ifodalashda ishtirok etadi: **borganman, o'qiyman, boraman, o'qigach** (ketdim), **ketguncha** (o'tirdim), **aytgach** (tushundim) kabi. Fe'lning buyruq-istak, shart, maqsad mayllari ham kelasi zamon (boray, borsak, bormoqchi) ma'nosiga ega. Ayrim fe'l shakllarida, masalan, **-la, -g'ila** kabi morfemalarda «davomli vaqt» semasi (qiyoslang: quv–quvla, ez – ezg'ila) mavjud. Vaqt ma'noli so'zlarga qo'shiluvchi **-gacha** affiksi semantikasida «chegarali vaqt» (bahorgacha ishlaylik) semasi bor. Chiqish va jo'nalish kelishiklari ham vaqt ifodalashga (yildan-yilga, bahor-dan beri, yozga kelib) xizmat etadi. **O'rin-payt** kelishigining asosiy ma'nolaridan biri payt ma'nosidir. Otlarning ayrim kichraytirish shakllari ham «kichik yosh» semasiga (**qiz** – katta yoshdagi, qizcha – kichik yoshdagi) urg'u beradi. *Karima opa, Hakima xola, Ibrohim ota* kabi birikmalardagi **opa, ota, xola** kabi affiksoidlarda ham yoshni (vaqtning) ko'rsatish xususiyati bor. Umuman, ayrim ishlarda ko'rsatilganidek, vaqt ifodalovchi morfologik formalar, xususan, grammatik zamon shakllari har bir tildagi temporal maydonning yadrosini tashkil etadi.

Vaqtning sintaktik sathdagi ifodalanishida tarkibida temporal semantikaga ega bo'lgan leksik va morfologik vositalar ishtirok etadi. Ushbu vosita va sintaktik omillar asosida gaplarga yaxlit tarzda xos bo'lgan bir vaqtlilik, ketma-ketlilik, bir gap (ergash) semantikasi asosida boshqa gap (bosh gap) hodisasining bajarilish vaqtining belgilanishi kabi sintaktik vaqtlar

shakllanadi. Maxsus sintaktik kontekst asosida leksik vaqt ma'nosi sintaktik vaqtga aylantirilishi (atov gap yordamida) mumkin: *Kuz. Paxtalar ochilgan* kabi. Makrosintaktik butunliklar yoki matnda zamon ma'nolarining ko'chma qo'llanish hodisalari yuz beradi.

O'zbek tilida vaqtni ifodalovchi leksik, morfologik, sintaktik, fonetik kabi ifoda tizimlariga ega bo'lgan ko'p bosqichli temporal maydon mavjud. Umumiy maydonning yadrosini grammatik vaqt ma'noli shakllarning yopiq sistemasidan iborat bo'lgan fe'l zamonlari tashkil etadi. Vaqt ma'nosini ifodalashda ierarx maydonning birliklari o'zaro hamkorlik qiladi. Masalan, leksik birliklar yadro birliklari ifodalagan mavhum vaqt ma'nosini aniqlashtiradi. Leksema va frazemalarda vaqtga bo'lgan sub'ektiv munosabatlar aks etadi. Periferiyada ham vaqt ifodalanishi o'ziga xos sistemani tashkil etadi. Xususan, lug'aviy birliklar «vaqt» ma'nosi asosida maxsus mikromaydonni vujudga keltiradi. Bu maydonning yadrosini «vaqt» semasi yetakchi bo'lgan, bevosita vaqt ifodalovchi payt ravishlari tashkil etadi. Yadrodan keyingi birlamchi qurshovga payt otlari mansub bo'ladi. Bu kabi leksemalarda predmetlik semasi «vaqt» semantik elementiga nisbatan yetakchi hisoblanadi. Keyingi qurshovga vaqt ma'nosi zaif ifodalgan payt ma'noli sifat, olmosh, ravish, ko'makchi, yuklamalarni (bahorgi, birdan, -oq kabi) kiritish mumkin. Uchinchi periferiyaga esa **tong chog'i, kuz payti** kabi so'z birikmalari va so'z (qo'shma so'z) oralig'idagi gibril birliklar mansubki, bular til va nutq hodisalari bog'lanishidagi oraliq uchinchilardir.

Xullas, yuqoridagilar shuni ko'rsatadiki, vaqt o'zbek tilining barcha sathlarida o'z ifodalanishlariga ega bo'lib, har bir sath va ularning birliklari payt ma'nosini o'ziga xos yo'sinlarda aks ettiradi.

II bob. O‘ZBEK TILIDA PAYTNING LEKSIK VOSITALAR YORDAMIDA IFODALANISHI

2.1. Ot leksemalarning vaqt semantikasi

O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi bir yuz saksonga yaqin vaqt semantikali ot leksemalar tahlil qilinganida, mazkur leksemalarning vaqt ifodalash imkoniyatlarining turlicha ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Bu esa “vaqt” semasining turli semalar tarkibida turlicha o‘rin va maqsadlarda kelishi bilan bog‘liqdir.

O‘zbek tili vaqtni bevosita atovchi va vaqtga aloqador predmet, voqea-hodisalarni nomlovchi ot leksemalarga ega. Vaqtni bevosita predmet sifatida nomlovchi ot leksemalarning semik tarkibida “vaqt” semasi yetakchidir. Vaqt bilan aloqador predmet, voqea-hodisalarni nomlovchi ot leksemalarda esa “vaqt” semasi quyiroq mavqeda joylashib, u o‘zidan umumiyroq semalarni aniqlab keladi.

Vaqtni predmet sifatida nomlovchi payt otlarini farqli semalari asosida sakkiz guruhga ajratish mumkin. Sof vaqtni mavhum predmet sifatida ifodalovchi otlar (vaqt, payt, mahal, davr), vaqt o‘lchovi otlari (sekunl, minut, soat), sutka qismlari otlari (kun, tong), hafta kunlari otlari (dushanba, seshanba), oy nomlari otlar (yanvar, fevral), fasl nomlarini ifodalovchi payt otlari (bahor, yoz) vaqtning o‘rnini ifodalovchi payt otlari (azal, ibtida, kelajak), muayyan ishning maqsadga muvofiq yoki o‘ziga xos ro‘yobga chiqish vaqtni ifodalovchi otlar (fursat, mavrid, xonasi...) kabi.

Vaqt bilan bog‘liq predmet, voqea-hodisa, holatlarni ifodalovchi otlarning semantik strukturasi “vaqt” semasining yetakchiligi kuzatilmaydi. Bunday temporal otlarni o‘n bir mavzu guruhga ajratish mumkin: vaqt hisobini anglatuvchi otlar (kalendar tana), marosim otlari (uch, yetti, yigirma) vaqt bilan bog‘liq ovqatlarni ifodalovchi otlar (saharlik, nonushta), bayram va tadbirlarni ifodalovchi vaqt semantikali otlar (navro‘z, kecha, arafa) muayyan vaqt bilan bog‘liq nashrlarni ifodalovchi otlar (ro‘znoma, oynoma), so‘zlarning qo‘llanish zamonani ifodalovchi otlar (neologizm, arxaizm), odamning yosh turlarini nomlarini ifodalovchi leksemalar (ninni, bola, chol), qarindoshlikni ifodalovchi otlar (farzand, aka, opa), tabiiy va ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liq muhim davrlarni ifodalovchi baynalminal otlar (paleol, mezolid kabi), vaqt bilan bog‘liq musobaqa tomoshalarining qismlarini ifodalovchi otlar (shart, final, kabi), vaqt bilan bog‘liq holat bildiruvchi otlar (bolalik, o‘spirinlik, yigitlik).

Vaqt ma‘noli leksemalar muayyan lug‘aviy semantik yoki leksik-grammatik (so‘z turkumi) sistemaga «vaqt» arxisemasi asosida birlashadi. Avvalo shuni aytish kerakki, «vaqt» leksemasida semema (mustaqil qo‘llana oluvchi ma‘noviy butunlik) holatida bo‘lib, unda ob‘ektiv vaqt

hodisasi tafakkur va til hamkorligida leksik semantikaga aylantirilgan. Ot leksema bo'lgan «vaqt» leksemasining semantik mundarijasida vaqtning mu-him belgilari (semalari) aks etgan. Bizningcha, «vaqt» leksemasining sememasi semalarini «narsa», «harakat», «davomiylik», «o'lchanuvchan», «galma-gallik», «almashinuv» kabilar tashkil etadi. Demak, «vaqt» leksemasining ma'nosini «narsa harakati davomiyligidagi o'lchanuvchan galma-gal almashinuv» deb ta'riflash mumkin. Odatda vaqt semantikasining muhim belgilari sifatida bir o'lchamlilik (yo'nalishlilik), qaytarilmaslik, cheksizlik, bir jinslilik kabilarga e'tibor beriladi. Diqqat qilinsa, bu belgilar vaqt semantikasida bevosita va bilvosita ifodalanadi. Xususan, bir jinslilik «galma-gallik» o'lchovi semasida (daqqa, soat kabi), bir o'lchamlilik, cheksizlik belgilari esa «davomiylik» (uzluksizlik) semasida aks etgan.

Ot so'z turkumidagi temporal leksemalar vaqt ma'noli ravishlar, sifatlar, olmoshlar, fe'llar, ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalardan farqlanadi. Vaqt otlarida «payt» semasi «predmet» semasidan keyin turadi va shuning uchun ham ular nima? so'rog'iga javob bo'ladi. Biz quyida vaqt ma'noli otlarning semantik (semik) strukturasi va leksik-semantik guruhlarini aniqlashga harakat qilamiz.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi vaqt semantikali ot leksemalarni tahlil qilganimizda mazkur leksemalar vaqt ifodalash darajalarining turlicha ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa «vaqt» semasining turli sememalarning semik tarkibida turlicha o'rinlarda kelishi bilan belgilanadi. O'zbek tili barcha tillar kabi bevosita vaqtni, uning ko'rinishlari va bo'linishlarini atovchi **vaqt, palla, fursat, on, zamon, kun, tun, soat, bahor, yoz, yakshanba, yanvar** kabi ot leksemalarga va shu bilan birga vaqtga aloqador predmet, voqea-hodisalarni nomlovchi «tushlik» (tush paytida yeyiladigan taom), «xronika» (tarixiy voqealarning vaqtiy ketma-ketlikda yozilishi), «oylik» (har oyda olinadigan ish haqi), «hamasr» (biror kimsa bilan bir asrda yashovchi) kabi ot leksemalarga ega. Bevosita vaqtni predmet sifatida nomlovchi ot leksemalarning semantik tarkibida «vaqt» semasi yetakchi semalardan bo'lib, agar E.V.Kuznetsovaning ilgari surgan semalash usuliga asoslansak, mazkur «vaqt» semasi vaqtni bevosita nomlovchi ot leksemalarda «predmet» kategorial grammatik semasidan keyingi mavqedagi leksik-grammatik semadir.

Vaqt bilan aloqador predmet, voqea-hodisalarni nomlovchi ot leksemalarda ham «vaqt» semasi sof yoki qorishiq hollarda uchraydi, lekin uning yetakchiligi ko'zga tashlanmaydi. Mazkur leksemalarning sememasida «vaqt» semasi quyiroq pozitsiyada joylashib, u o'zidan umumiyroq semalarni aniqlab keladi. O'z-o'zidan tushuniladiki, «vaqt» semasining o'rnini vaqt bilan aloqador predmetning umumiy tavsiflovchi semasi egallaydi (cha-qaloq – predmet, inson, kichik yoshli, yangi tug'ilgan).

Bevosita vaqtni predmet sifatida nomlovchi payt otlarini farqli semalari asosida quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Sof vaqtni mavhum predmet sifatida ifodalovchi otlar. O‘zbek tilida sof vaqtni mavhum narsa sifatida nomlovchi leksemalarni **vaqt, payt, mahal, palla, kez, zahot(i), lahza, zamon (zamon), davr, muddat, fursat** kabi so‘zlar tashkil etadi. Hozir keng qo‘llanayotgan vaqt leksemasi ko‘p ma’noli bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida uning besh ma’nosi (sememasi) qayd etilgan. Bu so‘zning birinchi sememasi *Toshkent vaqti, mahalliy vaqt* kabi so‘z birikmalarida reallashuvchi «o‘lchov», «hisob» ma’nolaridir. Ikkinchi semema *ish vaqti, bizning vaqtimiz* kabi birikmalarda muayyan maqsad uchun belgilangan muddat oralig‘ini ifodalashga xizmat qiladi. Uchinchi sememani *yo‘z vaqti, kechki vaqt* kabi kontekstlarda yuzaga chiquvchi payt semantikasi tashkil etadi. To‘rtinchi ma’no tarixiy voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan *tinchlik vaqti, urush vaqti* kabi birikmalarda oydinlashadi. Beshinchi semema esa falsafiy vaqt tushunchasiga aloqadordir. Bizningcha, vaqt leksemasining bosh ma’nosini izohli lug‘atda ajratilgan beshinchi, ya’ni umumiy vaqt tushunchasini anglatuvchi semema ifodalaydi. Bosh ma’noning dastlabki umumiy semantikani ifodalashi va undan turli nom ko‘chish yo‘llari orqali hosila ma’nolarning vujudga kelishi tabiiydir. Vaqt leksemasining bosh ma’nosiga (Vaqt1) lug‘atlarda turlicha ta’riflar berilgan. Bularning mavjudligi keng qamrovli vaqtning umuminsoniy va umumfan tushunchasi ekanligi va unga turli nuqtai nazarlardan yondashishlarning mumkinligi bilan izohlanadi. Odatda, V1 «ob’ektiv borliqning, materiya harakati bilan uzviy bog‘langan holda uzluksiz va izchil davom etadigan yashash formasi»¹, «bir-birini almashtirib turadigan hodisalar mavjudligining izchilligini ta’minlovchi materiyaning yashash formasi»² kabi ta’riflanadi. Bizningcha, V1 sememasini o‘ta qisqa tarzda «narsa harakati davomiyligidagi o‘lchanuvchan galma-gal almashinuv» deb aniqlash mumkin. V1 sememasi semalarini «narsa», «harakat», «davomiylik», «galma-gallik», «o‘lchanuvchan», «almashinuv» kabi belgilar tashkil etadi.

Bizningcha, umumiy vaqtni, uning barcha belgi-xususiyatlarini vaqt leksemasining bosh ma’nosi, umumiy vaqtning hisobini, muayyan voqea-hodisaning qancha davom etishini ikkinchi ma’nosi (*Poezd mahalliy vaqt bilan soat uchda jo’nadi*), muayyan maqsad uchun belgilangan vaqt qismini uchinchi ma’nosi (*ish vaqti sakkiz soat davom etadi*), tabiiy hodisalar bilan belgilanuvchi vaqtni to‘rtinchi ma’nosi (*Erta bahor vaqtlari dalalar ko‘m-ko‘k maysalarga burkana boshlaydi*), tarixiy voqealar bilan belgilanuvchi vaqtni esa beshinchi ma’nosi (**Mustaqillik vaqtida** ilm olayotgan yoshlarimizga barcha imkoniyatlar yaratilgan) ifodalaydi. Vaqt polisemem leksemasining yuqoridagi besh sememalarini V1, V2, V3, V4, V5 deb belgilab olamiz.

¹ Введение в философию. Том II. – М.: Политиздат, 1989. –С. 80.

² Подольный Р.Г. Освоение времени. –М.: Политиздат, 1989. –С.129.

V2 sememasi V1 sememasidan metonimiya asosida hosil bo'lgan: V1 – davomiylik V2 – davomiylikning o'lchovi, hisoblash sistemasi. Ko'rinib turibdiki, V2 shakllanishida «o'lchov» semasi muhim ahamiyat kasb etgan. O'lchov semasi o'z-o'zidan boshqa o'lchov birliklari asr, yil, oy kabilarni ham talab qiladi. Demak, V2 sememasini eng muhim semalariga «davomiylik», «o'lchov», «asr», «yil», «oy», «kun» (sutka), «soat», «minut», «sekund» kabi semalarni kiritish mumkin. V2 sememasi quyidagicha ta'riflanadi: yuz beradigan voqea-hodisa va narsalarning asrlar, yillar, oylar, kunlar (sutkalar), soatlar, minutlar va sekundlar bilan o'lchanadigan davomiyligi.

V3 sememasi V1 sememasidan sinekdoxa (butun-qism) usulida hosil bo'lgan. Bunda V1 sememasining cheksiz davomiylikni ifodalashini nazarda tutsak, V3 esa ushbu davomiylikdagi muayyan maqsad uchun belgilangan ma'lum vaqtni anglatadi. V3 sememasining semalarini quyidagicha ajratish mumkin: «maqsad uchun», «belgilangan», «muddat oralig'i». Sememasi: «soat, kun, oy, yil va shu kabilarning uzluksiz va izchil almashuvida biror maqsad uchun belgilangan muddat oralig'i». Sememaning ta'rifidan ko'rinadiki, «belgilangan», «muddat oralig'i» V3 sememasi uchun ajratuvchi, vaqtning xususiyatlarini bildiruvchi «uzluksizlik», «davomiylik» kabi semalar esa birlashtiruvchi semalardir. V1dagi «cheksiz» semasi V3da «cheksiz emas» semasiga aylangan. V3 sememasi reallashuviga misol qilib quyidagi so'z birikmalarini keltirish mumkin: *o'qigan vaqtimiz, yoshlik vaqtimiz* kabi.

V4 sememasi V1dan sinekdoxa (butun-qism) usulida hosil bo'lgan. V4 sememasi V1 ifodalaydigan cheksiz davomiylikdagi tabiiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan belgili muayyan paytni anglatadi: *kechki vaqt, yoz vaqti, tong vaqti* kabi. V4 sememasining semik mundarijasini quyidagicha ko'rsatish mumkin: «belgilangan», «tabiiy hodisalar», «davomiylik», «cheksiz emas». Ta'rif: tabiiy hodisalar bilan belgilangan muayyan payt, davomiylik.

V5 sememasi ham V1 sememasidan sinekdoxa (butun-qism) usuli yordamida shakllangan. V5 sememasi V1 sememasi bildirgan cheksiz davomiylikdagi tarixiy hodisalar bilan belgilangan ma'lum vaqt qismini anglatadi. V5 sememasini quyidagi semalarga ajratish mumkin: «tarixiy hodisa», «belgilangan», «davomiylik», «cheksiz emas». V5 sememasini quyidagicha ta'riflash mumkin: «tarixiy hodisalar bilan belgilanuvchi muayyan vaqt davomiyligi». Bu semema yer *islohoti vaqti, xonlik vaqti* kabi so'z birikmalarini hosil qiladi.

V1, V2, V3, V4, V5 sememalarining semalari munosabatini, ko'chma ma'nolarning kelib chiqishini quyidagi jadvalda yaqqol ko'rish mumkin:

vaqt 1	vaqt 2	vaqt 3	vaqt 4	vaqt 5
davomiylik	Davomiylik	davomiylik	davomiylik	davomiylik
bo‘linuvchan	Bo‘linuvchan	bo‘linuvchan	bo‘linuvchan	bo‘linuvchan
cheksiz	Cheksiz	chegaralangan	chegaralangan	chegaralangan
materiya	o‘lchov	maqsad	tabiiy hodisalar	tarixiy hodisalar
Harakat	asr, yil, oy,..	belgilangan	belgilangan	belgilangan

Payt, zamon, mahal, chog‘, kez, palla, muddat, dam, on, lahza, davr so‘zlari muayyan chegaralarga ega bo‘lgan vaqtlarni ifodalaydi.

Zamon, davr so‘zlari ma’lum voqealar, ko‘pincha ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan katta davomiylikdagi vaqtni bildiradi. **Zamon** so‘zi ham ko‘p ma’nodir. Uning birinchi ma’nosi V1ga sinonim bo‘lib, ob’ektiv borliqning, materiyaning harakat bilan bog‘liq uzluksiz va izchil davom etishini anglatadi. Ikkinchi ma’nosi biror turdagi hodisa, masalan, tarixiy voqea yuz bergan yoki biror hokim sinf, tabaqa hukmronlik qilgan davrni o‘z ichiga olgan muayyan vaqtni bildiradi. **Zamon** so‘zining uchinchi ma’nosi so‘z borayotgan paytda kechirilayotgan davr va uning tartib qoidalarini ifodalaydi. To‘rtinchi ma’nosi rohat-farog‘atli davrni, beshinchi ma’nosi esa tilshunoslik atamasi bo‘lib, fe‘ldan anglashilgan ish-harakatning nutq lahasiga munosabatni ifodalovchi grammatik zamonni ko‘rsatadi. Z1, Z2, Z3, Z4, Z5 semalarining semik strukturasini quyidagi jadvalda yaqqol ko‘rish mumkin:

zamon 1	zamon 2	zamon 3	zamon 4	zamon 5
vaqt	vaqt	davr	damlar	Vaqt
cheksiz	chegaralangan	chegaralangan	chegaralangan	–
–	muayyan ho- disa bilan xarakterli	nutq so‘z- lanayotgan	inson umri	grammatik shakl
–	–	–	rohat-farog‘atli	nutq lahasi

Xullas, Z2, Z3, Z4 sememalari Z1 sememasidan sinekdoxa (butun-qism), Z4 esa Z3 sememasidan metafora usulida vujudga kelgan.

Davr leksemasi ham ko'p ma'noli bo'lib, o'zbek tilining izohli lug'atida uning olti ma'nosi berilgan. Quyida davr polisemem leksemasi sememalarining semik mundarijasini keltiramiz:

davr 1	davr 2	davr 3	davr 4	davr 5	davr 6
jamiyat hayoti	kishi umri	muayyan ish	takrorlanuvchi hodisalar	geologik	kishi umri
muhim voqea	ma'lum	bajariladigan	boshidan oxirigacha	–	rohat-farog'atli
vaqt oralig'i	vaqt oralig'i	vaqt oralig'i	vaqt	era	Chog'lar

Ushbu semalar asosida «davrlar» leksemasining ma'nolarini quyidagicha ta'riflash mumkin: D1 – «jamiyat taraqqiyotida muhim voqea, hodisa yuz bergan, hukm surgan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma'lum vaqt oralig'i»; D2 – «kishi umridagi ma'lum vaqt»; D3 – «biror ish-harakat, jarayon, voqea, hodisa sodir bo'ladigan yoki bajariladigan muayyan vaqt»; D4 – «takrorlanuvchi jarayonning har bir boshlanishidan oxirigacha o'tadigan vaqt»; D5 – «geologik eraning bir qismi»; D6 «rohat-farog'atli zamon yoki kishining omadi kelgan chog'lar».

On, lahza leksemalari qisqa yoki kichik vaqtni ifodalaydi. Semalari: **on** – vaqt, qisqa; **lahza** – vaqt, qisqa, ko'z ochib yumguncha. Ta'rif: ko'z ochib yumguncha o'tadigan qisqa vaqt.

Muddat leksemasi vaqtning biror ish, narsa uchun belgilangan aniq qismini bildiradi. Bu leksema sememasining shakllanishida «aniq» semasi muhim ahamiyat kasb etadi: **muddat** – vaqt bo'lagi, aniq, belgilangan.

Payt leksemasi ko'p ma'nolidir. Birinchi ma'nosi muayyan vaqtni, ikkinchisi muayyan sharoit bilan bog'liq bo'lgan vaqt oralig'ini, uchinchi ma'nosi esa biror ishni amalga oshirish uchun qulay fursatni anglatadi. P1, P2, P3 sememalarining semalarini quyidagicha aniqlash mumkin: **payt1** – vaqt, muayyan; **payt2** – vaqt, sharoit bilan belgilangan; **payt3** – vaqt, qulay.

Kez so'zi muayyan voqea-hodisa, ish-harakat bilan belgilangan chegaralangan ma'lum vaqt qismini anglatadi: *yoshlik kezlari, bahor kezlari* kabi. **Palla** leksemasi ham kez so'zi kabi muayyan voqea-hodisa, ish-harakat bilan belgilangan chegaralangan muayyan vaqt qismini ifodalaydi: *ish pallasi, choy pallasi* kabi. **Dam** leksemasi kontekst talabiga qarab qisqa va katta vaqt qismlarini ifodalay oladi. Masalan, *bir dam jim bo'lmoq* yoki *baxtli damlar*.

Umuman, sof vaqtni mavhum narsa sifatida anglatuvchi ot leksemalar semantik tarkibining farqlilik va aynanligidan tashqari tor va keng qo'llanishi, ayrim kontekstlar (so'z birikmalari) uchun xoslanganlik, turli uslubiy bo'yoqlarga egalik kabi konnotativ ma'nolarga ham egadir.

2. Vaqt o'lchovi otlari. Ushbu guruhga oid leksemalarning sememalarini quyidagicha semantik komponentlarga ajratamiz: **sekund**, vaqt, o'lchov, minutning oltmishdan biri, kichik ta'rifi: minutning oltmishdan bir ulushiga teng kichik vaqt o'lchovi; **minut** – vaqt, o'lchov, oltmish sekund; ta'rifi: oltmish sekunddan iborat vaqt o'lchovi; **soat** – vaqt, o'lchov, oltmish minut, ta'rifi: oltmish minutdan iborat vaqt o'lchovi; **sutka** – vaqt, o'lchov, yigirma to'rt soat, kecha-kunduz; ta'rifi: bir kecha-kunduz, yigirma to'rt soatdan iborat vaqt o'lchovi; **hafta** – vaqt, o'lchov, yetti sutka; ta'rifi: dushanbadan yakshanbagacha bo'lgan yetti kecha-kunduzni o'z ichiga olgan vaqt o'lchovi; **oy** – vaqt, o'lchov, o'ttiz (yigirma sakkiz, yigirma to'qqiz, o'ttiz bir) sutka; ta'rifi: yigirma sakkiz, yigirma to'qqiz, o'ttiz yoki o'ttiz bir kundan iborat vaqt o'lchov birligi; **fasl** – vaqt, mavsum, uch oy, tabiatdagi o'zgarishlar; ta'rifi: tabiatdagi o'zgarishlar bilan farqlanadigan uch oydan iborat mavsum; **yil** – vaqt, o'lchov, o'n ikki oy; ta'rifi: o'n ikki kalendar oyiga teng vaqt. Lug'atlarda oy va yil sememasini ta'riflashda astronomik belgilar qayd etiladi: **oy** – astronomik yilning o'n ikkidan biriga, Oyning quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish muddatiga teng vaqt, o'lchov birligi, o'ttiz, yigirma sakkiz, yigirma to'qqiz yoki o'ttiz bir kunlik davr. **Yil** – yerning Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish muddati; o'n ikki kalendar oyiga teng vaqt. Ushbu leksik-semantik guruh sememalarining «vaqt o'lchovi» belgisi asosida shakllanganligi uchun biz oyning quyosh atrofida yoki yerning quyosh atrofida aylanishi kabi belgilarni asosiy belgilar sirasiga qo'shmadik. Zero, sememaning bir qancha differensial va integral, denotativ va konnotativ, yorqin va potensial, asosiy va ikkilamchi semalari bo'lib, ularning barchasini bir maqsadda qo'llash tadqiqotchini chalg'itishi mumkin.

Ushbu guruhdagi sememalarning semantik qurilishi o'xshashdir. Agar «60 sekund», «60 minut», «24 soat», «7 kun», «30 kun», «3 oy», «12 oy», «100 yil» semalarini semantik komponentlarga bo'lib olsak, leksik-semantik guruhning–tizimli strukturasi, umumiy va farqlovchi semalari jadvalda yanada yaqqolroq ko'rinadi:

№	semema sema	se-kund	mi-nut	soat	sut-ka	haf-ta	oy	fasl	yil	asr
1	Vaqt	+	+	+	+	+	+	+	+	+
2	o'lchov	+	+	+	+	+	+	+	+	+
3	mavsum							+		
4	sekund		+	+	+	+	+	+	+	+

5	minut			+	+	+	+	+	+	+
6	Soat				+	+	+	+	+	+
7	Kun				+	+	+	+	+	+
8	Tun				+	+	+	+	+	+
9	sutka					+	+	+	+	+
10	hafta						+	+	+	+
11	Oy							+	+	+
12	fasl								+	+
13	Yil									+
14	kichik	+								
15	60		+	+						
16	24				+					
17	7					+				
18	30						+			
19	3							+		
20	12								+	
21	100									+

Sekund – minut – soat – sutka – hafta – oy – fasl – yil – asr semantik mikrosistemasi to‘qqiz kichikroq mikrosistemadan iborat: «sekun-minut», «minut-soat», «soat-sutka», «sutka-hafta», «hafta-oy», «oy-fasl», «oy-yil», «fasl-yil», «yil-asr». Har bir mikrosistema o‘zining tashkil etuvchi elementi (sememasi) va o‘ziga xos ko‘rinishiga (struturasiga) ega. Masalan: «sekund-minut» mikrosistemada «sekund» o‘lchov sememasi eng kichik tashkil etuvchi, uning oltmish marta takroriy bog‘lanish qurilmasi esa strukturadir. Aynan shu struktura asosida, lekin boshqa bir miqdordagi tashkil etuvchi birlik («minut») bilan «minut-soat» mikrosistema shakllangan. Shuning uchun «sekund-minut» va «minut-soat» mikrosistemalarini mutanosib yoki proporsional strukturali mikrosistemalar deyishi mumkin. Qolgan semantik mikrosistemalar ham «soat», «kun», «oy», «fasl» va «yil» tashkil etuvchi sememalari asosida yigirma to‘rt takroriy bog‘lanish (soat-sutka), «o‘ttiz takroriy bog‘lanish» (sutka-oy), «uch takroriy bog‘lanish» (oy-fasl), «o‘n ikki takroriy bog‘lanish» (oy-yil), «to‘rt takroriy bog‘lanish» (fasl-yil), «yuz takroriy bog‘lanish» (yil-asr) strukturalari bilan shakllantirilgan. Sakkiz semantik mikrosistema

o‘zlarining boshlanish va tugash, ya’ni davriy belgilari bo‘yicha muayyan o‘xshashliklarga ega. Xususan, har bir mikrosistemada muayyan vaqt miqdori takrorlanadi, keyingi mikrosistemada takrorlanuvchi vaqt miqdori oldingi mikrosistemaning butunligiga teng keladi, har bir mikrosistema miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga uchrashi bilan, ya’ni «sekund»ning minutga, «minut»ning, «soat»ga, «soat»ning «sutka»ga aylanishi bilan yakunlanadi.

Vaqtning aniq o‘lchov birligi semalari orqali ifodalovchi mikrosistema strukturasi aslida miqdorning muayyan o‘lchovlarda va bosqichlarda (darajalarda) oshib borishi yoki graduonimik munosabat asosida shakllangan. Shuning uchun bu mikrosistema semantik maydonga emas, balki leksik-semantik qatorlar sirasiga mansubdir. Aniqrog‘i, vaqtni aniq o‘lchovlarda ifodalovchi otlar sekund-minut-soat-sutka-hafta-oy-fasl-yil-asr qatori shaklida to‘qqiz graduonimik a‘zoli sistemani tashkil etadi. Ushbu semantik sistemada har bir graduonim o‘zidan oldingisiga nisbatan sememalik maqomiga ega. Masalan, «sekund»-«minut»-«soat» semantik ko‘lamida «minut» «sekund»ga nisbatan semema (leksik ma’no), «soat»ga nisbatan esa sema (eng kichik ma’noviy tashkil etuvchi)dir: «soat»= minut+minut+minut kabi. Buning natijasida ushbu semantik qatorning keyingi graduonimlari oldingilarini o‘z semantik strukturasi bo‘ysunuvchi (ierarx) sema va mikrosemalar sifatida qamrab oladi. Masalan, «asr» = «yil-oy-hafta-sutka-soat-minut-sekund» kabi. Bunda «yil» semasi «asr» sememasining bevosita, qolgan bo‘ysunuvchi semalar esa bilvosita (potensial) tashkil etuvchi semalari hisoblanadi. Ushbu leksik-semantik qatorda muayyan graduonimga bilvosita, ya’ni bir pog‘ona (va undan so‘ng ham) keyin joylashgan graduonim mikrosistema o‘zining ichki tashkil etuvchilarini erkin namoyon qila olmaydi. Boshqacha aytganda, u endi boshqa graduonim semantik sistemaga bevosita tashkil etuvchi element sifatida kirayotganligi uchun nisbiy bo‘linmas birlikka (elementga) aylanadi. Shuning uchun ham biz buni hisobga olib, nutqimizda «*bu voqea falon soatning qaysi sekundida yuz berdi*» tarzida emas, balki «*qaysi minutida yuz berdi*» deb so‘raymiz. Bilvosita tashkil etuvchilik qancha kuchayib borsa, potensial semaning sememalik imkoniyati ham shuncha kamayib boradi. Buni, xususan, yilning qaysi sekundida yuz berdi, deb so‘rash imkoniyatining yo‘q-ligidan ham bilsa bo‘ladi. Ushbu fikrimizni esa quyidagi jadval orqali yaqqol ko‘rsatishimiz mumkin. Unda graduonimik qatordagi butun-qism, darajalanish, ierarx munosabatlar aks etadi. Aytib o‘tish joizki, bu jadvalda vaqt o‘lchovi birliklarining faqat payt miqdorini ko‘rsatuvchi yorqin va potensial semalarini oldik:

№	Sema semema	se- kund	mi- nut	soat	kun	tun	sut- ka	haf- ta	oy	fa sl	yil
1	asr	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+

2	yil	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
3	fasl	+	+	+	+	+	+	+	+		
4	oy	+	+	+	+	+	+	+			
5	hafta	+	+	+	+	+	+				
6	sutka	+	+	+	+	+					
7	kun	+	+	+							
8	tun	+	+	+							
9	soat	+	+								
10	minut	+									


Xullas, aniq vaqt o'lchovini anglatuvchi payt otlarining leksik-semantik paradigmasi miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishini aks ettiruvchi sistema shakliga ega.

Vaqtning sof miqdoriy o'lchovlarda ifodalovchi sekund – minut – soat – sutka – hafta – oy – fasl – yil – asr otlar sistemasining elementlari o'z tarkibida kichik hamroh sistemalarni ham hosil qilgan. Xususan, «sutka» graduonimi, avvalo, miqdoran ikkiga bo'linib «kun–tun» privativ (yorug'likka ega – yorug'likka ega emas) oppozitsiyasidagi sistemani tashkil etgan. Bunda «kun» elementi o'z ichida «tong» – «ertalab» – «choshgoh» – «tush», «peshin» – «kun botish» – «shom», «tun» elementi esa «tong» – «kecha» mikrosistemalarini barpo qilgan. Shuningdek, «sutka» graduonimi yetti bosqichli sutkaI (dushanba), sutkaII (seshanba)... hafta nomlari tizimini tashkil qilgan. «Yil» graduonimi o'z ichida fasl otlari va boshqa mikrosistemalarga ega.

3. Sutka qismlari otlari. Vaqt otlarining ushbu guruhiga **kun, tun, tong, ertalab, choshgoh, peshin, asr, oqshom, kecha** leksemalari va ularning sinonimlari mansubdir:

Kun – vaqt, sutka qismi, quyosh chiqqandan botguncha, yorug'; ta'rifi: sutkaning quyosh chiqqandan to quyosh botguncha bo'lgan yorug' qismi; **tun** – vaqt, sutka qismi, quyosh botgandan chiqquncha, qorong'i; ta'rifi: sutkaning quyosh botggandan to quyosh chiqquncha bo'lgan qorong'i qismi; **tong** – vaqt, sutka qismi, quyosh chiqish, g'ira-shira; ta'rifi: g'ira-shira quyosh chiqish payti; **er-talab** – vaqt, sutka qismi, quyosh chiqqan, kunning boshi, yorug'; ta'rifi: sutkaning quyosh chiqib bo'lgan yorug' payti, kunning boshi; **choshgoh** – vaqt, sutka qismi, quyosh ancha ko'tarilgan, yorug'; ta'rifi: kun ancha ko'tarilib qolgan vaqt; **peshin** – vaqt, sutka qismi, quyosh tik kelgan, kunning yarmi, yorug'; ta'rifi: sutkaning quyosh tik kelgan, kunning yarmi o'tgan yorug' payti; **asr** – vaqt, sutka qismi, quyosh pastlagan, asr namozi, yorug'; ta'rifi: sutkaning quyosh pastlagan va asr namozi o'qiladigan yorug' payti; **oqshom** – vaqt, sutka qismi, quyosh botayotgan, kunning tugashi, tunning boshlanishi, shom namozi, g'ira-

shira; ta'rifi: sutkaning quyosh bota boshlagan kun tugab, tun boshlanishi o'rtasidagi g'ira-shira payti, shom namozi o'qiladigan vaqt; **kech** – vaqt, sutka qismi, tunning boshi, qorong'i; ta'rifi: tunning boshlanish payti. Sutka qismlari semantik guruhi elementlari, avvalo privativ oppozitsiya asosida kun va tun guruhchalariga, bu guruhchalar esa o'z elementlariga bo'linadi.



Sutkaning vaqt qismlariga bo'linishi uchun tabiiy omil bo'lib quyoshning gorizontdagi harakati xizmat qilgan: a) quyosh chiqa boshlagan payt: **tong, azon, sahar-mardon, bomdod, subh, subhidam, mardon, tongotar**; b) quyosh chiqib bo'lgan payt: **ertalab**; v) quyosh ancha ko'tarilib qolgan payt: **choshgoh**; g) quyosh tik kelgan vaqt: **peshin**; d) quyosh pastlagan payt: **zavol, asr**; ye) quyosh bota boshlagan payt: **kecha**. Demak, quyosh chiqa boshlagan vaqt (tong), quyosh chiqib bo'lgan payt (ertalab), quyosh ancha ko'tarilgan payt (choshgoh), quyosh tik kelgan payt (peshin), quyosh pastlagan payt (asr) kun qismlariga kiradi. «Tong», «ertalab», «choshgoh», «peshin» leksemalari quyosh nuri va haroratining oshib borishi asosida, «peshin», «asr», «oqshom» leksemalari esa, aksincha, quyosh nuri va haroratining kamayib borishi asosida gra-duonimik qator tashkil etadi. Bunda **tong-ertalab-choshgoh-peshin** va **peshin-asr-oqshom** qatorining har bir graduonimi o'z sinonimlariga ega.

Tong, azon, sahar, sahar-mardon, bomdod, subh, subhidam, mardon, tongotar leksemalari tong otish paytini bildiradi. Ushbu leksemalar kunning boshlanish chegarasini ifodalab, kun qismlari mikrosistemasiga element bo'lib kirishi bilan bir qatorda, tunning tugash chegarasini ham ifodalab, tun mikrosistemi uchun ham element hisoblanadi.

Kun diniy omillar asosida ham **bomdod, peshin, asr, shom, xufton** kabi kichik vaqt turlariga bo'lingan. Namoz paytlari ham quyosh harakatiga asoslangan.

Ayrim tillarda ovqatlanish vaqti asosida ham sutka qismlari ajratiladi. Masalan, ingliz tilidagi lanch so'zini misol qilish mumkin. Bu so'z «ikkinchi nonushta» vaqtini bildirib, so-at 10³⁰ - 11⁰⁰ larga to'g'ri keladi.

Quyosh bota boshlagan payt (oqshom), quyosh botgan payt (kecha), quyosh chiqa boshlagan payt (tong) tun qismlari tizimiga kiradi. **Oqshom – xufton** qorong'ulikka ega – ega emaslik va **xufton – tong** yorug'likka ega – ega emaslik belgilari asosida privativ oppozitsiyada bo'ladi. Kun va tunning o'zi ham antonim leksemalar bo'lib, bu so'zlarning antonimligini belgilashda asosiy mezon xususida D. G'ulomova quyidagi fikrlarni bildiradi: «Vaqt ma'noli

antonimlar semem strukturasi bir xil komponentlarga ega bo‘ladi. Bu komponentlardan ikkitasi zid ma’noli bo‘lishi bilan birga antonim so‘zlar semem strukturasi ularning o‘rni ham o‘zaro teskari holatda bo‘ladi. Xuddi shu hodisa tufayli ikki so‘z o‘zaro antonim bo‘ladi: **Kun** – sutkaning quyosh chiqqandan quyosh botguncha bo‘lgan qismi; **Tun** – sutkaning quyosh botgandan quyosh chiqquncha bo‘lgan qismi.¹

Bizningcha, kun va tun antonimligining asosiy omili ikkala antonim so‘z semem strukturasi o‘zaro zid bo‘lgan «yorug‘» va «qorong‘i» semalarining mavjudligidir.

Sutka qismlari vaqtning aniq o‘lchov birliklari nomlari, hafta kunlari, oy nomlari, fasl nomlari kabi aniq o‘lchovga ega bo‘lmasada, har bir til egasiga sutka qismlarining davomiylik miqdori taxminan bilinib turadi. Kuz va bahor faslida kun va tuning uzunligi 12 soatdanga to‘g‘ri keladi. Tong taxminan soat 4-6larga, ertalab 6-10larga, choshgoh soat 11larga, peshin 12-2larga, asr 4-6larga, oqshom 7-8larga, kechasi 9-10larga to‘g‘ri keladi.

Kun so‘zi semantik o‘zgarishlarga uchrab polisemiya omonimiyaga qadar bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida uning olti ma’nosi qayd etilgan:

Kun1. Sutkaning quyosh chiqqishidan quyosh botguncha bo‘lgan qismi. *Xasanali kunlarini tomoqsiz, tunlarini uyqusiz o‘tkaza boshladi* (A.Qodiriy. O‘tgan kunlar). Kun2. Bir kecha-kunduzga – 24 soatga teng vaqt, sutka. *Bir yil – 365 kun*. Kun3. Oy yoki haftaning ma’lum bir kalendar chislosi, sanasi. *Shanba kuni siz keling, yakshanba kuni men boray*. Kun4. Umuman vaqt, payt, kez, davr. *Bolalik kunlarimda, Uyqusiz tunlarimda, Ko‘p ertak eshitgandim* (H.Olimjon). Kun5. Turmush, tirikchilik, hayot. Kun6. Quyosh, oftob. *Kun botib, qorong‘i tusha boshladi*.

Ushbu ma’nolar asosiy ma’no zamirida hosil bo‘lib, ularning shakllanish taraqqiyotini o‘rganish uchun, avvalo, bosh ma’noning semantik strukturasi aniqlash lozim bo‘ladi.

Kun1 sememasining semalarini quyidagicha aniqlash mumkin: sutka qismi, quyosh chiqqishidan quyosh botguncha (quyoshli), yorug‘. Ta’rifi: sutkaning quyosh chiqqandan quyosh botguncha bo‘lgan yorug‘ qismi.

Kun2 sememasi kun1 sememasidan ma’no kengayishi asosida o‘tib chiqqan. Bunda qism bilan (sutkaning yorug‘lik qismi bilan) butun (tun kunni) nomlanmoqda va o‘z-o‘zidan ma’lumki, sinekdoxa nom ko‘chish usuli amalda bo‘lmoqda. Bu so‘z shakllanishida ma’no kengayishi yuz bergan, ya’ni, «kechayu kunduzni» aniq ifodalashdan vaqtning bundan kattaroq mavhum qismlarini ham ifodalay boshlashga o‘tilgan. Kun2 sememasining semantik strukturasi: bir kecha-kunduz, 24 soatdan iborat vaqt, sutka. Ta’rifi: kechasi va kunduzidan iborat 24 soatli vaqt, sutka. Ushbu ma’noning ifodalanishida **-lar** affiksining ikkilamchi umumlashtiruvchi

¹ Фуломова Д. Ўзбек тилида антоним сўзларнинг антонимлигини белгилаш мезони//Ўзбек тили ва адабиёти. -1991. №3. –Б. 54-59.

(Salimlar, Nodirlar) ma'nosi katta ahamiyatga ega: *bolalik kunlarimda (vaqtimda), ta'til kunlari (vaqtida)* kabi. Kun2 sememasining semik tuzilishida kun1 sememasidagi «sutka qismi» semasining ma'nosi kengayib «sutka»ga aylangan.

Kun3 sememasi kun2 sememasidan metonimiya asosida hosil bo'lgan: K2 – bir kecha-kunduzga teng vaqt K3 – oy yoki haftaning bir kecha-kunduzga teng sanasi, chislosi. Ko'rinib turibdiki, K3 shakllanishida bir kecha-kunduz semasi muhim ahamiyat kasb etgan. Kun3 sememasining semalari quyidagichadir: kalendar sanasi, 24 soat, oy yoki hafta sanasi.

Kun4 sememasi kun2 sememasidan ma'no kengayishi asosida hosil bo'lib, bu holatda kun2 sememasi tarkibidagi «24 soatdan iborat vaqt» (chegaralangan vaqt) semasi kishi umridagi aniq chegaralanmagan ma'lum vaqt, davr, kez ma'nolari uchun ixtisoslashgan. Kun4 sememasining semik strukturasi quyidagicha bo'lishi mumkin: vaqt, inson umri. Sememaning ta'rifi: inson umridagi muayyan vaqt, davr, kez.

Kun5 sememasi kun4 sememasidan ma'no kenayishi asosida hosil bo'lgan. Qiyoslang: inson umrining muayyan vaqti va inson umri(turmush, hayot). Bu holatda kun4 sememasidagi «inson umri» asos bo'lgan va «vaqt» semasi tashlab yuborilgan. Ushbu semema inson umri, hayot, tirikchilik kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Kun6 sememasi kun1 sememasidan metonimiya asosida o'sib chiqqan bo'lib, nom ko'chishi kun1 sememasidagi «quyosh» semasi asosida ro'y bergan. «Quyosh» semasi o'z-o'zidan «yorug'» semasini ham talab qiladi. Kun6 sememasining semik strukturasi quyidagicha ko'rsatish mumkin: nur sochuvchi, yorug', issiq, osmon jismi. Semema ta'rifi: nur sochuvchi, yorug', issiq osmon jismi. Hozirgi o'zbek tilida ushbu holat so'z hosil bo'lishi deb tushuntiriladi. Demak, bu o'rinda polisemiya hodisasi omonimiyaga yetib borgan.

Polisemantik leksema sememalarining farqlovchi va umumiy semalarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

№	kun1	kun2	kun3	kun4	kun5	kun6
1	sutka qismi	sutka	–	–	–	–
2	quyosh chiqqandan quyosh botguncha	–	–	–	–	–
3	yorug'	–	–	–	–	Yorug'
4	–	24 soatga	24 soatga	–	–	–

		teng vaqt	teng			
5	–	–	kalendar sanasi	–	–	–
6	–	–	–	vaqt	–	–
7	–	–	–	inson umri	inson	–
8	–	–	–	–	umr(hayot)	osmon jismi
9	–	–	–	–	–	nur sochuvchi
10	–	–	–	–	–	Issiq

4. Hafta kunlari otlari. Vaqt otlarining ushbu guruhi o‘zbek tilida **dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba** leksemalaridan iborat. Aslida bu leksemalar fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, **juma** – ozodlik kuni, shanba, shanbadan keyingi 1-shanba (yakshanba), 2-shanba (dushanba), 3-shanba (seshanba), 4-shanba (chorshanba), 5-shanba (payshanba) degan ma’nodarga ega. Hozirgi o‘zbek tilida haftalar tizimi dushanbadan boshlanadi va ularning semik tarkibi quyidagicha: **dushanba** – sutka, birinchi kun; **seshanba** – sutka, ikkinchi kun; **chorshanba** – sutka, uchinchi kun; **payshanba** – sutka, to‘rtinchi kun; **juma** – sutka, beshinchi kun; **shanba** – sutka, oltinchi kun; **yakshanba** – sutka, yettinchi kun, dam olish.

Hafta kunlarining ba’zilarida denotativ semalardan tashqari qo‘shimcha konnotativ semalar ham mavjud: **dushanba** – og‘ir kun, **chorshanba** – murodbaxsh kun, **juma** – muborak kun kabi. Aytib o‘tish joizki, hafta kunlarining vaqt qamrovi teng bo‘lib, ular o‘zaro paradigmatic munosabatdadir.

5. Oy nomlarini bildiruvchi payt otlari. O‘zbek tilida bu mikrosistema o‘zining variantlariga ega: milodiy oy nomlari, shamsiy oy nomlari va qamariy oy nomlari. Milodiy yil oylari nomlari hozirgi kunda amalda bo‘lgan o‘n ikki oy nomlaridir: **yanvar, fevral, mart, aprel, may, iyun, iyul, avgust, sentabr, oktabr, noyabr, dekabr**. Shamsiy yil quyosh yili bo‘lib, quyoshning yillik harakat o‘kiga qarab belgilanuvchi 365 yoki 366 kundan iborat bo‘lgan, 22- martdan boshlanadigan yil. Shamsiy oy nomlari: **hut, hamal, savr, javzo, saraton, asad, sunbula, mezon, aqrab, qavs, jadiy, dalv**. Qamariy yil oyning ikkita bir xil fazasi, masalan, oy tutilgan kundan kelgusi oy tutilgan kungacha bo‘lgan vaqt asos qilib olingan yildir. Oy nomlari: **muharram, safar, rabbiulavval, rabbiussoniy, jumo-dilavval, jumodussoniy,**

rajab, sha'bon, ramazon, shavval, zul-qa'da, zulhijja. Har uchala yil hisobidagi oylar o'z tizimi ichida graduonimik qator hosil qiladi: **yanvar - fevral - mart - aprel - may - iyun - iyul - avgust - sentabr - oktabr - noyabr - dekabr.** Bular asosida yilning kun miqdori graduonimiyasi shakllanadi:

30 → 58(30+28) 98 ~~(30+28+30)~~;

yil – 30 – 60 – 90 – 12.

Ushbu tizim sememalarining semik mundarijasi ham hafta kunlariga o'xshashdir: **yanvar** – oy, milodiy, birinchi; **fevral** – oy, milodiy, ikkinchi; **mart** – oy, milodiy, uchinchi; **aprel** – oy, milodiy, to'rtinchi; **may** – oy, milodiy, beshinchi; **iyun** – oy, milodiy, oltinchi; **iyul** – oy, milodiy, yettinchi, **avgust** – oy, milodiy, sakkizinchi; **sentabr** – oy, milodiy, to'qqizinchi; **oktabr** – oy, milodiy, o'ninchi; **noyabr** – oy, milodiy, o'n bi-rinchi; **dekabr** – oy, milodiy, o'n ikkinchi.

6. Fasl nomlarini ifodalovchi payt otlari. **Bahor, yoz, kuz, qish** leksemalari fasl nomlari bo'lib, ularning ajratilishida tabiatdagi davriy tabiiy o'zgarishlar asos bo'lgan. Bu sistema elementlari o'zaro antonimik (yoz-qish), sinonimik (bahor- ko'klam), graduonimik (havoning isib yoki sovib borishi belgisi asosida: (qish-bahor-yoz va yoz-kuz-qish) kabi munosabatlarga kirisha oladi. Bunda har bir qism (fasl nomi) ko'p ma'noli bo'lib, bir qancha sememalar tizimidan iborat.

Bahor leksemasining o'zbek tilining izohli lug'atida faqat ikkita ma'nosi berilgan:

1. *Qishdan keyin yozdan oldin keladigan fasl nomi*

2. Ko'chma. *Inson umrining gulgun davri.*

Faktik materiallar tadqiqi shuni ko'rsatadiki, **bahor** leksemasida ikkita emas, balki beshta leksik ma'no mavjud. Ko'p ma'noli leksemaning leksik ma'nolari orasida markaziy o'rinni bosh leksik ma'no egallashi ma'lum. Bosh leksik ma'no to'g'ri belgilansa, uning semalari aniq ajratilsa, keyingi leksik ma'nolar ham bosh ma'noga qiyosan oson topiladi, hosila ma'nolarning kelib chiqishi, semalar sostavi to'g'ri hal qilinadi.

Bahor leksemasining bosh ma'nosi *bahor fasli, go'zal bahor, o'lkada bahor* kabi bog'lanishlarda reallashadigan ma'nosidir. **Bahor** leksemasining ikkinchi ma'nosi *umr bahori* bog'lanishida yuzaga chiqadi. Uchinchi leksik ma'no esa *dillarda bahor, qalbimda bahor* kabi bog'lanishlarda namoyon bo'ladi. To'rtinchi leksik ma'no *insoniyat bahori, g'alaba bahori* kabi so'z birikmalarida reallashadi. **Bahor** leksemasining beshinchi leksik ma'nosi quyidagi kabi gaplarda oydinlashadi: **O'n sakkiz bahorga bo'ldim hamnafas.** **Bahor** leksemasining yuqoridagi besh leksik ma'nosining mavjudligi uning beshta sememadan iborat polisemem leksema ekanini ko'rsatadi. Har bir sememani B1, B2, B3, B4, B5 deb shartli belgilab olamiz va ularning semalar

tarkibini o'rganib chiqamiz. Zero, bir leksemaga birlashuvchi har bir semema o'ziga xos semalar tarkibiga ega bo'ladi, demak, boshqa sememalardan farqli, alohida ma'no anglatadi.

B1 sememasining semalar tarkibini quyidagicha belgilab oldik: «yil», «fasl», «qishdan keyin», «yozdan oldin», «tabiat», «gullagan», «uyg'onish», «davr». Yuqorida sanalgan semalarga asoslanib **B1** sememasining quyidagicha ta'rifini yaratish mumkin: yilning qishdan keyin, yozdan oldin keladigan fasli, tabiatning yashnagan, gullagan, uyg'onish davri. **B1** sememasining yana o'nlab semalarini sanash mumkin. Lekin biz asosiylarini, sememalar yasalishida asos bo'ladigan semalarnigina oldik.

B2 sememasi **B1** sememasidan leksik ma'noning kengayishi, konkret ma'noning mavhumlashishi asosida o'sib chiqqan. Bunda **B1** tarkibidagi «yil» semasining ma'nosi «inson» semasini talab qiladi. Yil semasi «umr» semasiga aylangach, yilga oid «fasl», «tabiat», «uyg'onish» semalari yo'qoladi. Ba'zilar mavhumlashib «inson» semasiga moslashadi. Ko'rinib turibdiki, yil fasllaridan biri bahor inson umrining ma'lum davri yoshlikka o'xshatilyapti va shu asosda nom ko'chirilyapti. Shundan kelib chiqib **B1**dagi «qishdan keyin», «yozdan oldin» semalarini **B2**dagi «bolalikdan keyin», «o'rta yoshdan oldin» semalariga moslashtirish mumkin. Bu semalar **B2**ning ikkinchi darajali semalari bo'lib, sememaning mohiyati ushular bilan ochilmaydi. Demak, **B2** ning asosiy semalar tarkibi quyidagicha bo'ladi: «inson», «umr», «yashnagan», «gulgun», «davr». Sememaning ta'rifi esa: inson umrining yayragan, gulgun davri.

B3 sememasi **B2** sememasidan ma'no torayishi asosida hosil bo'lgan. Bunda **B2**dagi «inson», «yayragan», «gulgun» semalari saqlanib qoladi. «Umr» semasi o'rnida «ichki dunyo» semasi hosil bo'ladi. **B2**dagi «davr» semasining ma'nosi torayib «vaqt» (payt) semasiga aylanadi. **B3** sememasining semalari: «inson», «ichki dunyo», «yashnagan», «gulgun», «vaqt (payt)». **B3** sememasining ta'rifi: inson ichki dunyosining yayragan, gulgun vaqti.

B4 sememasi **B1** sememasidan aniq ma'noning mavhum ma'noga aylanishi asosida hosil bo'lgan. Bunda **B1** sememasidagi «tabiat» semasi **B4**da «jamiyat hodisasi» semasiga aylangan. Shuning uchun **B1**dagi tabiatga oid «yil», «fasl», «qishdan keyin», «yozdan oldin» semalari tashlab yuborilgan. **B4** sememasi semalarining tarkibini quyidagi asosiy belgilar tashkil etadi: «jamiyat hodisasi», «yashnagan», «gullagan», «uyg'onish», «davr». **B4** sememasining ta'rifini quyidagicha berish mumkin: ma'lum bir jamiyat hodisasining yashnagan, gullagan, uyg'onish davri.

B5 sememasi **B2**dan ma'no torayishi hisobiga o'sib chiqqan. **B5** sememasida **B2**dagi «davr» semasining ma'nosi torayib «bir yil» semasiga aylangan. **B5**da «inson», «umr» semalari saqlangan, «yayragan», «gulgun» semalari tashlab yuborilgan. **B5** sememasining semalar tarkibi quyidagilardan iborat: «inson», «umr», «bir yil». **B5** sememasiga quyidagicha ta'rif bersa bo'ladi: inson umrining bir yili.

Bahor leksemasining besh sememasidagi umumiy va farqlovchi semalarni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

N:	bahor 1	bahor 2	bahor 3	bahor 4	bahor 5
1	yil	umr	ichki dunyo	-----	umr
2	fasl	-----	-----	-----	-----
3	qishdan keyin	bolalikdan keyin	-----	-----	-----
4	yozdan oldin	o‘rta yoshdan oldin	-----	-----	-----
5	tabiat	-----	-----	jamiyat hodisasi	
6	yashnagan	yashnagan	yashnagan	Yashnagan	-----
7	gulgun	gulgun	gulgun	Gullagan	-----
8	uyg‘onish	-----	-----	Uyg‘onish	-----
9	davr	davr	vaqt	Davr	bir yil
10	-----	inson	inson	-----	inson

Yoz leksemasining ma‘nolarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ushbu leksema ham polisemem bo‘lib, u ikki leksik ma‘nodan iborat. Birinchi leksik ma‘no *yoz fasli*, *yoz issiqlari* kabi bog‘lanishlarda reallashadi. Ikkinchi leksik ma‘no esa *umrimiz yozi* kabi bog‘lanishlarda oydinlashadi.

Birinchi ma‘no, ya‘ni **Yoz1** sememasining semalarini quyidagicha aniqlash mumkin: «yil», «fasl», «bahordan keyin», «kuzdan oldin» «issiq». **Yoz1** sememasiga shunday ta‘rif berish mumkin: yilning bahordan keyin, kuzdan oldin keladigan eng issiq fasli. O‘zbek tili izohli lug‘atida ham **Yoz1** sememasiga quyidagicha ta‘rif beriladi: «yilning bahor bilan kuz orasida keluvchi eng issiq fasli». O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘atida esa ushbu semema «bahor bilan kuz orasidagi fasl» deb ta‘riflanadi. Bu ta‘rif **Yoz1**ning faqat bitta qirrasini, uning chegarasini ochib beradi. **Yoz1** sememasining eng xarakterli belgisi esa uning issiqligidadir. **Yoz1** sememasiga qisqa qilib «yilning eng issiq fasli» deb ta‘rif ham berish mumkin.

Yoz2 sememasi **Yoz1** sememasidan o‘sib chiqqan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida **Yoz2** sememasiga shunday ta‘rif beriladi: «umrning eng gullagan, yaxshi davri». **Yoz2** sememasining

hosil bo'lishi quyidagi taraqqiyotni bosib o'tgan: **Yoz1** tarkibidagi «yil» semasi «umr» semasiga o'tgan, «fasl» semasi «davr» semasi bilan almashgan, ya'ni «umr» semasiga moslashgan. Lekin nom ko'chish, asosan, «issiq» semasi asosida yuz bergan. Bu jarayon ozgina murakkabroq bo'lib, u **Yoz1** sememasida «issiq» leksemasining o'rganishni talab qiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida «issiq» leksemasining besh ma'nosi qayd etilib, 5-ko'chma ma'nosi «kishiga xush yoqadigan, yoqimli» degan ma'nodir. Demak, bu ma'noda ijobiylik belgisi bor. Xulosa qilib aytish mumkinki, **Yoz1** tarkibidagi «issiq» semasi ko'chma ma'no kashf etgan va shu ma'nodagi ijobiylik bo'yog'i bilan **Yoz2** sememasiga o'tib yangi sema «yaxshi» semasini hosil qilgan.

Biz izohli lug'atda qayd etilgan **Yoz2** sememasi ta'rifidagi «eng gullagan» belgisini inkor qilamiz. Chunki bu holatni biz bahor leksemasida kuzatganmiz.

Kuz leksemasi ham ikki ma'noli bo'lib, 1-ma'nosi *kech kuzak, kuz fasli* kabi bog'lanishlarda oydinlashadi. 2-ma'nosi esa, «*Axir yoshligimiz ketyapti, umr bahorimiz o'tib, kuzimiz yaqinlashib qolyapti, Xayotxon!*» (M.Ismoilij) kabi gaplarda aniqlashadi. 1-ma'no, **kuz1** sememasining semalari quyidagilardan iborat: «yil», «fasl», «yozdan keyin», «qishdan oldin», «tabiat», «xazonrezgi». Ta'rifi esa: yilning yoz bilan qish orasidagi xazonrezgi fasli.

Kuz2 sememasi **Kuz1** sememasidan hosil bo'lgan. Bunda **Kuz1** tarkibidagi «yil» «umr»ga, «fasl» «davr»ga aylangan. **Kuz2** sememasiga izohli lug'atda shunday ta'rif beriladi: «davrning, masalan, kishi hayotining, umrining oxirgi damlari». Bu yerda tabiatning xazonrezgi payti inson umrining qarilik davriga o'xshatilmoqda. Ma'lumki, daraxt barglarining sarg'ayib to'kilishi, hayvonlarning tulashi, havolarning o'zgarishi kabilar qarilikdagi fiziologik o'zgarishlarga o'xshaydi. Demak, **Kuz2** sememasining semalari quyidagicha bo'ladi: «umr», «so'nggi», «davr».


Qish leksemasi bir ma'noli, monosemem leksemadir. Uning ma'nosi *qish fasli, qish chillasi, qish sovug'i* kabi bog'lanishlarda reallashadi. Semalar tarkibi: yil, fasl, kuzdan keyin, bahordan oldin, sovuq. Ta'rifi esa quyidagicha bo'lishi mumkin: yilning kuzdan keyin, bahordan oldin keladigan eng sovuq fasli.

Xullas, bir yillik vaqtning tabiat o'zgarishlariga bog'liq holda tadrijiy o'tish hodisasi asosida shakllangan fasl nomlari semantikasi muayyan miqdordagi birlashtiruvchi va ajratuvchi semalar majmuasidan iborat bo'lib, ushbu semalardan ayrimlarining ma'lum munosabatlardagi bog'lanishlaridan har bir fasl nomining leksik ma'nosi shakllangan. Shuningdek, semalarning metaforaga bog'liq imkoniyatlari asosida ikkilamchi semantik sistema – ko'chma ma'nolar tizimi vujudga kelgan.

7. Vaqtning o'rnini ifodalovchi otlar. Ushbu guruhga **ibtido, azal, intiho, nihoya, pirovard, oxir, yakun, poyon, so'ng, ket, ora, o'rta, o'tmish, kelajak, tarix, istiqbol** kabi so'zlarni kiritish mumkin.

Ma'lumki, vaqt qaytarilmaslik, bir yo'nalishlilik, cheksizlik, bo'linuvchanlik, nisbatlanish, uch zamonga ajralish kabi xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar kishi ongida aks etishi va tushunchalar orqali temporal ma'nolarga aylanishi mumkin. Xullas o'zbek tilida ham, boshqa tillarda bo'lgani kabi, izchil lahzalarning ketma-ketligidan iborat bo'lgan to'g'ri vaqt chizig'ining turli o'rinlarini har xil nisbatlar bo'yicha nomlovchi so'zlar mavjud. Muayyan davomlilikdagi vaqtning boshlanish nuqtasini **ibtido** so'zi ifodalaydi. Semalari: vaqt, boshlanish, narsa, harakat, hodisaning boshi, boshlanish davri. Bu so'z **intiho** so'zining antonimi bo'lib, kitobiylik bo'yog'iga ega. **Ibtido** so'zining ma'nosida vaqtning faqat boshlang'ich nuqtasi emas, balki kattaroq davomli yaxlit qismi ham ifodalanishi mumkin. Masalan, *ibtidoiy jamoa tuzumi* birikmasida shunday ma'no yuzaga chiqqan. «Azal» so'zida «ibtido» sema kuchsizlangan bo'lib, «qadim» semantik belgi bo'rttib turadi. Semalari: vaqt, noma'lum, boshlanish, qadim; ta'rifi: boshlanishi noma'lum bo'lgan qadimgi vaqt. Hozirgi o'zbek tilida **azal** otining «qadim» semasi «azaliy» sifatida va muayyan darajada leksiklashgan «azalda», «azaldan» kabi ravishsimon so'zlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Vaqt davomiyligidagi (to'g'ri chizig'idagi) boshlanish va tugash nuqtalaridan teng uzoqlikdagi o'rinni (markazni) «o'rta» so'zi ifodalaydi. Semalari: boshlanish, oxir, teng, uzoqlik; ta'rifi: boshlanish va oxiridan teng uzoqlikda bo'lgan vaqt. Masalan, *kunning o'rtasi*, *oyning o'rtasi* kabi. «**O**'rta» so'zi faqat vaqt o'rtaligi ma'nosi uchun ixtisolashmagan. U joy va munosabat o'rtaligi kabi ma'nolar uchun ham qo'llanishi mumkin: *Toshkent bilan Qo'qon o'rtasi*, *aka bilan uka o'rtasi* kabi. Shuningdek, «ora» so'zi boshlanish va tugash nuqtalari o'rtasini (markazini) emas, balki har qanday ikki vaqt oralig'ini ifodalay oladi. Qiyoslang:



«Ora» so'zining semalari: vaqt, o'rta, ikki hodisa (payt); ta'rifi: ikki voqea yoki payt o'rtasidagi vaqt. Masalan, *yoz bilan qishning orasi*, *kun ora* kabi. «Ora» so'zi ham joy, munosabat kabi ma'nolar uchun qo'llana oladi: *aka va uka orasi*, *qo'shnilar orasi* singari.

Davomli vaqt ko'lamining oxirgi qismi yoki tugashi **intiho**, **nihoya**, **pirovard**, **oxir**, **yakun**, **poyon**, **so'ng** kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Bu so'zlarga xos bo'lgan asosiy semalar: vaqt, oxirgi, chegara; ta'rifi: vaqtning oxirgi chegarasi. Bu so'zlarga kitobiylik, eskirganlik, so'zlashuv uslubiga xoslik, keng-tor qo'llanish kabi konnotativ semalar xos. Bu so'zlarning ko'plari joy, narsa kabilarning so'nggi chegarasini, tugashini ham anglata oladi.

To'g'ri chiziq ko'rinishidagi vaqt ko'lamini so'zlovchi yashab turgan vaqtdan (hozirdan) ikki tomonga ajratish mumkin. Bunday tasnif asosida o'tmish, hozir va kelajak otlari orqali

ifodalangan vaqt ko'lamlari ajratiladi. Bunda «o'tmish» so'zining semalari: vaqt, hozirdan oldingi; ta'rifi: hozirdan oldingi vaqt. «Hozir» so'zining semalari: vaqt, o'tmishdan keyin, kelajakdan oldin; ta'rifi: o'tmish va kelajak oralig'idagi vaqt. «Kelajak» so'zining semalari: vaqt, hozirdan keyingi; ta'rifi: hozirdan keyingi vaqt.

O'tmish so'zi **kechmish**, **moziy** so'zlari bilan leksik sinonimiyani hosil qiladi. Bu so'zlar o'zaro o'tgan vaqtning uzoqlik darajasi (moziy, kechmish), qo'llanish o'rnini («kechmish» inson umriga nisbatan qo'llanadi, «o'tmish» turli kontekstlarda ishlatiladi), kitobiylik, eskirganlik kabi qo'shimcha ma'nolar bilan farqlanadi. «O'tmish» so'zining «kelajak» so'ziga antonim bo'lishida «oldin» va «keyin» semalari katta ahamiyatga ega: kelajak – hozirgi paytdan keyin keladigan zamon, hayot; o'tmish – hozirgi paytdan oldin o'tgan zamon, hayot.

Hozir oti **hozir** ravishidan farqlanadi. Uni kelishik, egalik qo'shimchalari olishidan bilish mumkin: **hozirdan**, **hozirga kelib** kabi.

«Kelajak» so'zi, asosan, ikki qo'llanishga ega. Uning «kelajak ko'rsatadi», «kelajakda ma'lum bo'ladi» birikmalarida vaqt semasi (qachon?) bo'rtib turadi; *kelajagi porloq*, *kelajakni o'ylash kerak* birikmalarida esa «hayot» semasi kuchaygan holatda bo'ladi. «Kelajak» so'zining ma'nosi «istiqbol» leksemasining ma'nosiga yaqin bo'lib, istiqbol so'zida «porloq» (hayot) semasi mavjud.

8. Muayyan ishning maqsadga muvofiq yoki o'ziga xos ro'yobga chiqish vaqtini ifodalovchi otlar. **Fursat**, **mavrid**, **xonasi**, **mavsum** leksemalari ma'lum bir ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqtni nomlaydi. Bulardan **fursat**, **mavrid**, **xonasi** leksemalari ma'lum bir ishni amalga oshirishning qulay vaziyatini bildirib, sinonimik qator hosil qiladi. «Fursat» so'zining semalari: vaqt, qulay, ish uchun; ta'rifi: biror ishni bajarish uchun qulay vaqt.

«Mavsum» leksemasi muayyan ishni amalga oshirishning qulay paytini emas, yilning ma'lum qismidagi aniq vaqtni bildiradi. Bu vaqt tasodifiy bo'lmay, muayyan bir ish uchun har yili takrorlanuvchi, tabiatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda amalga oshuvchi ish vaqtidir. «Mavsum» ko'p ma'noli bo'lib, bosh ma'nosi yuqoridagi sememani ifodalasa, ikkinchi ma'nosi bilan «fasl» leksemasiga sinonimdir. Birinchi sememaning semalari: yil, fasl. Ta'rifi: yil fasli. Ikkinchi sememaning semalar tarkibi quyidagicha: ish bajariladigan, vaqt, fasl; ta'rifi: yilning ma'lum faslida amalga oshiriladigan ish davri.

Vaqt bilan bog'liq predmet, voqea-hodisa, holatlarni ifodalovchi otlarning semantik strukturasi «vaqt» semasining yetakchiligi kuzatilmaydi, qorishiq holda uchraydi. Vaqt bilan bog'liq narsalarni nomlovchi temporal otlarni quyidagi mavzu guruhlarga ajratish mumkin:

1. Vaqt hisobini anglatuvchi otlar. Bunday leksemalar sirasiga **sana**, **kalendar** so'zlarini kiritish mumkin. Bu so'zlarning shakllanishiga «vaqt» semasi asos bo'lgan. Mazkur so'zlarning

semantik mundarijasida «hisob» va «vaqt» semalari umumiy sema bo‘lib, ularni shu guruhga birlashtiradi.

Kalendar polisemik so‘z bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida uning **stol kalendar**, **Grigorian kalendar**, **ish kalendar** birikmalarida reallashadigan uchta ma‘nosi keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, ushbu guruhga **kalendar** leksemasi o‘zining ikkinchi ma‘nosi bilan kiradi: **kalendar₂** – yil, oy, kun, hisob, sistema; ta‘rifi: yilning oy-kunlarini hisoblash sis-temasi. **Kalendar** sememasining semantik strukturasi «vaqt» belgisi yil, oy, kun semalari ko‘rinishida ishtirok etadi.

Sana so‘zi ham uch ma‘noli polisemik leksema bo‘lib, bu ma‘nolar **tarixiy sana**, **shonli sana**, **sanaga qo‘shilmoq** kabi so‘z birikmalarida oydinlashadi. Ushbu guruh elementi bo‘lib, sana leksemasining bosh ma‘nosi ishtirok etadi: **Sana** - vaqt, yil, hisob; ta‘rifi: vaqtning yil hisobi.

2. Marosim otlari. O‘zbek tilida marosimni ifodalovchi **uch**, **yetti**, **yigirma**, **qirq**, **yil** kabi otlar borki, ularning shakllanishida vaqt semantikasining ahamiyati katta. Ma‘lumki, bu so‘zlar kishi vafot etganidan keyin o‘tkaziladigan marosim nomlaridir. **Uch** – marosim, kishi vafoti, uchinchi, kun; ta‘rifi: inson vafotidan so‘ng uchinchi kuni o‘tkaziladigan marosim. **Yetti** – marosim, kishi vafoti, yettinchi, kun; ta‘rifi: kishi vafotidan so‘ng yettinchi kuni o‘tkaziladigan marosim. **Yigirma** – marosim, kishi vafoti, o‘n yetti yoki o‘n to‘qqizinchi, kun; ta‘rifi: kishi vafotidan so‘ng o‘n yetti yoki o‘n to‘qqizinchi kuni o‘tkaziladigan marosim. **Qirq** – marosim, kishi vafoti, o‘ttiz yettinchi yoki o‘ttiz to‘qqizinchi kun; ta‘rifi: kishi vafotidan so‘ng o‘ttiz yetti yoki o‘ttiz to‘qqizinchi kuni o‘tkaziladigan marosim. **Yil** – marosim, kishi vafoti, o‘n bir oy; ta‘rifi: kishi vafotidan o‘n bir oydan so‘ng o‘tkaziladigan marosim. Demak, **uch**, **yetti**, **yigirma**, **qirq**, **yil** leksemalarining nominatsiyasida marosim kishi vafotidan qancha vaqtdan so‘ng o‘tkazilishi aks etgan.

Marosim otlariga **chillagirazon** so‘zini ham kiritish mumkin. **Chillagirazon** – ona, yangi bola, qarindosh, mehmon, marosim; ta‘rifi: yangi bola ko‘rgan onaning chillasi chiqqandan so‘ng o‘z ota-onasi yoki boshqa qarindoshinikiga mehmonga borishi va shu munosabat bilan o‘tkaziladigan marosim.

3. Vaqt bilan bog‘liq ovqat va taomlarni ifodalovchi otlar. Bu guruhga **saharlik**, **nonushta**, **tushlik**, **choshgohlik**, **iftorlik**, **kechlik**, **oylik** lesemalari mansubdir. **Saharlik**, **tushlik**, **choshgohlik**, **iftorlik**, **kechlik** so‘zlari sutka qismini ifodalovchi vaqt otlaridan **-lik** affiksi yordamida yasalgan va ular o‘zlarining yasalishiga asos bo‘lgan vaqtda yeyiladigan taomni bildiradi. **Saharlik** – sahar, taom; ta‘rifi: saharda yeyiladigan taom; **no- nushta** – ertalab, non, choy, ovqat; ta‘rifi: ertalabki non-choy, taom; **tushlik** – tush, vaqt, taom; ta‘rifi: tush vaqtida

yeyiladigan taom; **choshgohlik** – choshgoh, vaqt, taom; ta’rifi: choshgoh vaqtida yeyiladigan taom; **kechlik** – kech, taom, ovqat; ta’rifi: kechki taom, ovqat.

4. Bayram va tadbirlarni ifodalovchi otlar. Ushbu guruhga **navro‘z, kecha, arafa, dekada, oylik** kabi vaqt bilan bog‘liq so‘zlarni kiritish mumkin. **Navro‘z** – shamsiy yil, yangi yil kuni, birinchi, 21- mart; ta’rifi: shamsiya yil hisobida 21- martga to‘g‘ri keladigan yangi yilning birinchi kuni; **kecha** – tadbir, kech, rasmiy qism, badiiy qism; ta’rifi: biror narsaga bag‘ishlangan, odatda rasmiy va badiiy qismdan iborat bo‘lgan kechki umu-miy yig‘ilish, tadbir. Ayni paytda «kecha» so‘zi kunning qaysi qismida o‘tkazilishidan qat’iy nazar barcha ijodiy-badiiy tadbirlarga nisbatan qo‘llanmoqda. Nominatsiya uchun «kech» so‘zi asos bo‘lgan bo‘lsa-da, ayni paytda u **kecha** so‘zining semantik mundarijasida o‘z o‘rnini yo‘qotgan va bu so‘zning ma’nosi kengaygan. Umuman, **kecha** so‘zining ma’nosi badiiy tadbir, yig‘ilishdir. **Dekada** – o‘n kun, tadbir; ta’rifi: o‘n kunlik tadbir; **oylik** – bir oy, tadbir; ta’rifi: bir oylik tadbir. Masalan, yong‘in xavfsizligi oyligi; **arafa** – kun, hayit, oldin; ta’rifi: hayitdan oldingi kun. Arafaning turlari qo‘shma so‘zlar orqali ifodalanadi: **yolg‘on arafa** – hayitdan oldingi ikkinchi kun; **chin arafa** – hayitdan oldingi kun (ertaga hayit degan kun). Shuningdek, **arafa** so‘zi metafora yo‘li bilan ko‘chma ma’no ham hosil qilgan: bayram yoki biror tantanali kundan oldingi kun. Masalan, *yangi yil arafasi, to‘y arafasi* kabi.

5. Muayyan vaqt bilan bog‘liq nashrlarni ifodalovchi otlar. Bularga **ro‘znoma, oynoma, byulleten** kabi so‘zlarni kiritish mumkin. Bularda vaqt semasining o‘rni katta. Xususan, ushbu so‘zlarda vaqt belgisi nashrlarning qachon chiqarilishini bildiradi. **Ro‘znoma** – nashr, kundalik, davriy; ta’rifi: hayotning turli sohalariga oid voqea-hodisalarni yoritadigan, shuningdek, siyosiy-ijtimoiy va ilmiy-ommabop maqolalar bosiladigan kundalik vaqtli nashr. **Oynoma** – nashr, oylik, davriy, kitob shaklida; ta’rifi: kitobcha yoki majmua shaklida belgilangan vaqtda chiqib turadigan davriy nashr; **byulleten** – muassasa, vaqti-vaqti bilan, chiqariluvchi, axborot; ta’rifi: biror muassasaning vaqti-vaqti bilan chiqarib turadigan axboroti.

6. So‘zlarining qo‘llanish zamonini ifodalovchi otlar. Bularga **neologizm, arxaizm, istorizm** kabi lingvistik atamalar kiradi. **Neologizm** – so‘z yoki so‘z birikmasi, yangi; ta’rifi: tilda yangi paydo bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi; **arxaizm** – so‘z yoki birikma, eski, predmeti mavjud, iste’moldan chiqqan; ta’rifi: iste’moldan chiqib qolgan so‘z yoki birikma; **istorizm** – so‘z, eskirgan, predmeti mavjud emas; ta’rifi: anglatgan ma’nosi eskirgan va iste’moldan chiqqan so‘z yoki birikma.

7. Odam nomlarini ifodalovchi leksemalar. **O‘zbek** tilida odamni uning vaqtga munosabati asosida ifodalovchi leksemalar ko‘p bo‘lib, bu so‘zlar sememalarining shakllanishida payt semalari katta ahamiyatga ega.

Kishi nomlarining muayyan qismi inson hayoti (yashashi) bilan bog‘liq bo‘lgan vaqt (yosh) belgisining darajalanishini aks ettirish asosida vujudga kelgan. Darajalanish asosi qilib oy va yil miqdori olingan: *ninni* – chaqaloq – go‘dak – bola – o‘spirin – chol – qari yoki *ninni* – chaqaloq – go‘dak – bola – o‘spirin – qiz – xotin – kampir. Bunda har bir leksemaning semik strukturasini quyidagicha belgilash mumkin: **ninni** – bola, yangi tug‘ilgan; ta’rifi: yangi tug‘ilgan bola; **chaqaloq** – bola, yangi tug‘ilgan; ta’rifi: yangi tug‘ilgan bola; **go‘dak** – bola, emadigan; ta’rifi: emadigan bola; **bola** – odam, kichik yoshli; ta’rifi: kichik yoshli odam; o‘**smir** – odam, balog‘at yoshiga yetmagan, bolalikdan o‘tgan, o‘n ikki o‘n to‘rt yoshli; ta’rifi: bolalikdan balog‘at yoshiga o‘tish davridagi o‘n ikki o‘n to‘rt yoshli kishilar; **yigit** – odam, erkak, jismonan voyaga yetgan; ta’rifi: jismonan voyaga yetgan erkak kishi; **qiz** – odam, ayol, turmushga chiqmagan; ta’rifi: turmushga chiqmagan ayol; **xotin** – odam, tug‘adigan, emizadigan; ta’rifi: tug‘ish, emizish qobiliyatiga ega ayol; **kampir** – odam, xotin, yoshi ulug‘, qari; ta’rifi: yoshi ulg‘aygan keksa xotin; **chol** – odam, erkak, yoshi ulg‘aygan, qari; ta’rifi: yoshi ulg‘aygan qari erkak.

Graduonimik qatorga oid bo‘lgan so‘zlar o‘zlarining sinonimik qatorlariga (chol, mo‘ysafid, keksa, nuroniy; xotin, ayol, zaifa) va antonimlariga (go‘dak - chol) ega bo‘lishi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, «yil» so‘zi ma’nosining (o‘n ikki oydan iborat) kishi yashashining o‘lchovi sifatida olingan ko‘rinishi «yosh» deb atalmoqda. Uning semik strukturasini: yosh – muddat, o‘n ikki oy, kishi umri; ta’rifi: kishi yashovchi o‘n ikki oylik muddat. Bu so‘z qism (bir yil-yosh) va butun (yillar – yoshlar- umr) ma’nolariga ega. Qiyoslang: *o‘n yoshga kirmoq va oshini oshab, yoshini* (yashagan yillarini-umrini) *yashamoq* kabi. Aslida butun ma’nosini «umr» so‘zi ifodalaydi: umr – kishi yashagan yillarining jami.

8. Qarindoshlikni ifodalovchi otlar. O‘zbek tilida **farzand, aka, uka, opa, singil, ota, ona** kabi qarindoshlikni ifodalovchi otlar borki, ularning semik strukturasida «vaqt» semasi mavjud bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi «farzand» so‘zining ma’nosida **ota** va **ona** so‘zlaridagi vaqt semasiga nisbatan olinadigan vaqt belgisi (sema) mavjud. Farzandlarning oldin, keyin, oraliq vaqtlarda tug‘ilish belgilari ham ayrim so‘zlarning ma’nosining shakllanishiga ta’sir qilgan: **kenja** – farzand, tug‘ilmoq, eng keyin, ta’rifi: eng keyin tug‘ilgan farzand; **to‘ng‘ich** – farzand, tug‘ilmoq, eng oldin; ta’rifi: eng oldin tug‘ilgan farzand; **o‘rtancha** – farzand, tug‘ilmoq, to‘ng‘ich va kenja orasidagi; ta’rifi: to‘ng‘ich va kenja orasida tug‘ilgan farzand.

Qarindosh nomlari bo‘lgan leksemlarning semik strukturasida nisbatlanuvchi vaqtlar (yoshlar) ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. **Aka** – o‘g‘il, tug‘ishgan, katta yoshli; ta’rifi: bir ota-onadan tug‘ilgan katta o‘g‘il; **uka** – o‘g‘il, tug‘ishgan, kichik yoshli; ta’rifi: bir ota-onadan

tug‘ilgan kichik o‘g‘il; **opa** – qiz, tug‘ishgan, katta yoshli; ta’rifi: bir ota – onadan tug‘ilgan katta qiz; **singil** – qiz, tug‘ishgan, kichik yoshli; ta’rifi: bir ota- onadan tug‘ilgan kichik qiz.

Qarindoshlik anglatuvchi so‘zlarning ko‘chma qo‘llanishida vaqt semasi bo‘rtib turadi: ota₂ – erkak, ancha katta, hurmatli; ta’rifi: o‘zidan ancha katta hurmatli erkak; **ona₂** – ayol, ancha katta, hurmatli; ta’rifi: o‘zidan ancha katta hurmatli ayol.

9. Tabiiy va ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liq muhim davrlarni ifodalovchi baynalminal otlar. Bularga **paleolit, mezolit, patriarxat, matriarxat, feodalizm, kapitalizm, kaynazoy, besh yillik** kabi so‘zlar kiradi. Masalan, **paleolit** – qa-dimgi tosh davri, **mezolit** – o‘rta tosh davri, **patriarxat** – ota urug‘i davri, **matriarxat** – ona urug‘i davri, **feodalizm** – feodallar va dehqonlar munosabatiga asoslangan ijtimoiy davr, **besh yillik** – besh yillik rejalarning bajarilish davri kabi.

10. Vaqt bilan bog‘liq musobaqa, tomoshalarning qismlarini ifodalovchi otlar. Bunday so‘zlarga **start, final, taym, antrakt** kabi baynalminal leksemalarni kiritish mumkin. Ular musobaqa, tomoshalarning vaqt bilan bog‘liq qismi va bo‘limlarini nomlaydi. **Start** – sport, boshlanish, payt; ta’rifi: sport musobaqalarining boshlanish payti; **final** – sport, tugash, payt; ta’rifi: sport musobaqalarining tugash payti; **taym** – futbol, yarim qism, 45 minut; ta’rifi: futbol o‘yining 45 minutlik ikki yarmidan biri; **antrakt** – spektakl, konsert, tanaffus; ta’rifi: spektakl pardalari yoki konsert bo‘limlari orasidagi tanaffus.

11. O‘zbek tilida vaqt bilan bog‘liq holat bildiruvchi otlar ham mavjud bo‘lib, bularga **-lik** so‘z yasovchi affiks bilan hosil qilingan so‘zlar kiradi: **bolalik, o‘spirinlik, yigitlik, qarilik, vaqtixushlik, vaqtichog‘lik, o‘rta asrchilik, qadimiylilik, mangulik, abadiylik** kabi. Ushbu so‘zlar yordamida biologik, ruhiy va temporallik bilan bog‘liq belgi-holatlar ifodalanadi. **-lik** qo‘shimchasi inson yoshining ma’lum bosqichlarini ifodalovchi so‘zlarga qo‘shilib, o‘sha yosh bilan bog‘liq inson umrining ma’lum davrini va shu davrga xos bo‘lgan belgi-holatni ifodalaydi: **go‘daklik, bolalik, o‘smirlik, yigitlik, qizlik, yoshlik, keksalik, qarilik** kabi. **Go‘daklik** – go‘dak, davr; ta’rifi: go‘daklik davri; **bolalik** – kishi, voyaga yetmagan, bola, yosh, davr; ta’rifi: kishining hali voyaga yetmagan, bola vaqtidagi davri; **o‘smirlik** – o‘smir, yosh, davr; ta’rifi: kishining o‘smir yoshidagi davri; **qizlik** – ayol, yoshlik, davr; ta’rifi: ayollarning yoshlik davri; **yigitlik** – erkak, yosh, davr; ta’rifi: erkaklarning yoshlik davri; **yoshlik** – kishi, qarimagan, navqiron, davr; ta’rifi: kishining qarimagan davri; **keksalik** (qarilik) – kishi, umr, so‘nggi, zaif, davr; ta’rifi: kishi umrining zaiflashgan, so‘nggi davri.

-lik affiksi **mangu, abadiy, qadimiy, davriy** singari temporal sifatlarga qo‘shilib, asosdan anglashilgan belgiga oid holatlarni ifodalaydi: *mangulikka daxldor, abadiylik ramzi, qadimiylilik tusi, davomiylilik xususiyatlari* kabi. **-lik** affiksining **xushvaqt, vaqtichog‘, vaqtixush** so‘zlariga

qo‘shilishi natijasida ruhiy holat bildiruvchi payt otlari hosil bo‘ladi: *xushvaqtlik (vaqtichog‘lik) kunlari, vaqtixushlik damlari* kabi.

-chilik, -garchilik qo‘shimchalari yordamida tabiat va jamiyat hodisalari bilan bog‘liq payt ma‘noli holat otlari hosil bo‘ladi: **yog‘ingarchilik** – yog‘in, serob, payt; ta‘rifi: yog‘in ko‘p bo‘lgan payt; **yomg‘irgarchilik** – yomg‘ir, ko‘p, payt; ta‘rifi: yomg‘ir ko‘p bo‘lgan payt; **qurg‘oqchilik** – yog‘in bo‘lmagan, uzoq payt, davr; ta‘rifi: uzoq payt yog‘in bo‘lmagan davr; **to‘kinchilik** – noz-ne‘mat, ko‘p, davr; ta‘rifi: noz-ne‘mat ko‘p bo‘lgan davr; **serobgarchilik** – hamma narsa, ko‘p, davr; ta‘rifi: hamma narsa ko‘p bo‘lgan davr; **pishiqchilik** – meva-sabzavot, pishgan, ko‘p, davr; ta‘rifi: meva-sabzavot pishgan, ko‘p bo‘lgan davr; **qahatchilik** – hamma narsa, kam, qimmat, davr; ta‘rifi: hamma narsa kam va qimmat davr; **qimmatchilik** – narsa, qimmat, davr; ta‘rifi: hamma narsa qimmat davr.

O‘zbek tilida temporal otlar umumiy vaqt (vaqt, payt) va xususiy vaqtni (mavsum, mavrid), zamonga farqli (o‘tmish, kelajak) va zamonga farqsiz vaqtni (soat, kun) ifodalashiga ko‘ra privativ oppozitsiyalarga kirisha oladi.

Bahor leksemasi sememalarning semik tarkibi

№	Bahor 1	Bahor 2	Bahor 3	Bahor 4	Bahor 5
1	yil	umr	Ichki dunyo	-	Umr
2	fasl	-	-	-	-
3	Qishdan keyin	Bolalikdan keyin	-	-	-
4	Yozdan oldin	O‘rta yoshdan oldin	-	-	-
5	Tabiat	-	-	Jamiyat hodisasi	-
6	Yashnagan	Yashnagan	Yashnagan	Yashnagan	-
7	Gulgun	Gulgun	gulgun	gullagan	-
8	Uyg‘onish	-	-	uyg‘onish	-
9	Davr	Davr	-	davr	Bir yil
10	-	inson	inson	-	Inson

Ishda leksemalar polisemem sistemalarining shakllanishiga ham e'tibor berildi. Masalan, kun so'zi semantik o'zgarishlarga uchragan. Kun bir semasining semalarini quyidagicha aniqlash mumkin: sutka qismi, quyosh chiqishidan quyosh botkuncha (quyoshli), yorug'. Ta'rifi sutkaning quyosh chiqqandan quyosh botkuncha bo'lgan yorug' qismi.

Kun 2 sememasi kun 1 sememasidan ma'no kengayishi asosida o'sib chiqqan. Bunda qism bilan (sutkaning yorug'lik qismi bilan) butun (kun) nomlanmoqda va o'z-o'zidan ma'lumki, sinekdoxa nom qo'yish usuli amalda bo'lmoqda. Bu so'z shakllanishida ma'no kengayishi yuz bergan, ya'ni, "kechayu-kunduzni" aniq ifodalashdan vaqtning bundan kattaroq mavhum qismlarini ham ifodalay boshlashga o'tilgan. Kun 2 sememaning semantik strukturasi bir kecha-kunduz 24 soatdan iborat vaqt, sutka. Ta'rifi: kechasi va kunduzidan iborat 24 soatli vaqt, sutka. Ushbu ma'noning ifodalanishida **-lar** affiksining ikkilamchi umumlashtiruvchima'nosi katta ahamiyatga ega, bolalik kularimda (vaqtimda), tahlil (vaqtida) kabi. Kun 2 semasining semik tuzilishda kun 2 semasidagi "sutka qism" semasining ma'nsi kengayib "sutka"ga aylangan.

Kun 3 sememasi kun 2 semasidan metonimiya asosida hosil bo'lgan: K2-bir kecha-kunduzga teng vaqt. K3-oy yoki haftaning bir kecha-kunduzga teng semasi. Ko'rinib turibdiki, K3 shakllanishida bir kecha-kunduz semasi muhim ahamiyat kasb etgan. Kun 3 sememasining semalari quyidagichadir; kalendar semasi, 24 soat, oy yoki hafta sanasi.

Kun 4 sememasi kun 2 sememasidan ma'no kengayishi asosida hosil bo'lib, bu holatda kun 2 sememasi tarkibidagi, 24 soatdan iborat vaqt (chegaralangan vaqt) semasi kishi umridagi aniq chegaralanmagan muayyan vaqt, davr, bir ma'nolari uchun ixtisoslashgan.

Kun 4 sememasining semik strukturasi quyidagicha bo'lishi mumkin: vaqt, inson umri sememasining ta'rifi, inson umridagi muayyan vaqt, davr, kez.

Kun 5 sememasi kun 4 sememasidan ma'no kengayishi asosida hosil bo'lgan (inson umrining muayyan vaqti va inson umri). Bu holatda kun 4 sememasidagi "inson umri" asos bo'lgan va "vaqt" semasi tashlab yuborilgan. Ushbu semema inson umri, hayot, tirikchilik kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Kun 6 sememasi kun 1 sememasidan metonimiya asosida o'sib chiqqan bo'lib, nom ko'chishi kun 2 semasidagi "quyosh" semasi asosida ro'y bergan "quyosh" semasi o'z-o'zidan "yorug'" semasini ham talab qiladi.

Kun 6 sememasining semik strukturasi quyidagicha ko'rsatish mumkin: nur sochuvchi, yorug', issiq, osmon qismi. Semema ta'rifi: nur sochuvchi, yorug', issiq osmon qismi. Hozirgi o'zbek tilida ushbu holat yangi so'z hosil bo'lishi deb tushuntiriladi. Demak, bu o'rinda polisemiya hodisasi omonimiyaga yetib borgan.

2.2. Ravishlarda vaqt semantikasi

O‘zbek tilida vaqt semantikasini payt ravishlari, holat va miqdor ravishlarining semantik surukturasida kuzatish mumkin.

Payt ravishlari «vaqt» ifodalovchi lug‘aviy sistemaga «vaqt» umumiy semasi bilan kiradi va ayni paytda uning o‘zi ham elementar mikrosistemadir. Bu mikrosistema elementlari «vaqt» ifodalovchi lug‘aviy sistemaning boshqa tashkil etuvchilaridan farqli o‘laroq nisbatan sof vaqtni ifodalaydi. Payt otlari vaqtni predmet sifatida atasa, payt ravishlari harakatning sof sodir bo‘lish vaqtini bildiradi va qachon, qachongacha, qachondan beri savollariga javob bo‘ladi. Lekin payt ravishlari harakat bajarilishining aniq vaqtini ko‘rsata olmaydi. E‘tibor qilinsa, «kecha» so‘zi «2004 yilning 3 fevrali» degan jumladan yoki «kechqurun» so‘zi «soat 20 dan 30 daqiqa o‘tganda» jumlasidan mavhumroqdir. Lekin shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, payt ravishlari bildirgan vaqt morfologik vaqt, ya’ni fe‘l zamon formalari ifodalaydigan vaqtga nisbatan aniqroqdir: o‘qish boshlandi, kecha o‘qish boshlandi. Demak, payt ravishlarining semantik mundarijasida «vaqt» semasi oshkor va yetakchidir.

O‘zbek tilida payt ravishlarini ularning vaqt turlarini ifodalashiga ko‘ra o‘n guruhga ajratish mumkin. Bular ob’ektiv va hayotiy vaqtning u yoki bu belgi-xususiyatlarini ifodalash uchun shakllangan.

1. Kelasi zamoni ifodalovchi payt ravishlari. Bu guruhga **ertaga, keyin, keyincha, so‘ng, so‘ngra, endi, endigina, endilikda, halizamon** leksemalarini kiritish mumkin. **Keyin, so‘ng, so‘ngra, ba’daz** so‘zlari o‘zaro sinonim bo‘lib, ularning asosiy semalari aynandir. Farqliklar ularning uslubiy qo‘llanishidadir. **Ba’daz** kitobiy nutqqa xos. Tavsifi: keyin – vaqt, ma’lum vaqt o‘tgach, kelasi; ta’rifi: ma’lum vaqt o‘tgach; **endi** – so‘zlashuv, vaqt, keyin; ta’rifi: so‘zlashuv vaqtdan keyin; **halizamon** – vaqt, ozgina vaqt o‘tgach, kelasi; ta’rifi: ozgina vaqt o‘tgach.

2. O‘tgan zamoni ifodalovchi payt ravishlari. Bular **boya, boshlab, boshda, yaqinda, yaqindan, avval, burun, ilgari, oldin, dastlab, dastavval, azalda, azaldan, haligacha, hali, o‘sha-o‘sha, shu-shu, kecha, bultur** kabi leksemalardir. Ushbu leksemalarning ko‘pi o‘zaro sinonimik qatorlar tashkil qiladi. Masalan, **avval, oldin, burun, qadim** so‘zlari o‘zaro sinonim bo‘lib, «o‘tgan vaqt-(lar)da», «hozirgi vaqtga qadar» ma’nosini ifodalaydi. Ushbu sinonimik qatorda so‘zlar qo‘shimcha ma’no nozikliklari va qo‘llanishiga ko‘ra farqlanadi. **Avval, oldin** so‘zlari hozirga yaqin-roq o‘tgan vaqtni, ilgari so‘zi ko‘pincha **avval, oldin, qadim** so‘zlariga nisbatan ham uzoqroq o‘tmishni bildiradi. Bu so‘zlar uslub jihatdan ham farqlanadi. Semantik strukturasi: **avval** – vaqt, o‘tgan, hozirga qadar; ta’rifi: o‘tgan vaqtlarda, hozirgi vaqtga qadar. **Dastlab, dastavval, avval, oldin, boshlab, avvali, avvalboshi, avvalo, boshda** leksemalari ham

o‘zaro sino-nimik qator hosil qilib, «birinchi galda», «birinchi navbatda» ma’nosini ifodalaydi. Ma’lumki, hodisalar vaqtda galma-gal ro‘y berar ekan, vaqt o‘rni tushunchasi ham shakllanadi. Vaqtda voqea-hodisalarning birinchi navbatda sodir bo‘lishini ushbu sinonimik qatordagi so‘zlar aks ettiradi. **Dastlab, dastavval, avval, oldin, boshlab, avvalgi, avvalboshi, avvalo, boshda** leksemalarining semalari: vaqt, birinchi galda. Ta’rifi: birinchi bo‘lib, birinchi galda. Shuningdek, **boya** – vaqt, ilgari, bir oz; ta’rifi: bundan bir oz ilgari; **hali** – vaqt, ilgari, bir oz; ta’rifi: bundan bir oz ilgari; **yaqinda** – vaqt, ilgari, bir oz; ta’rifi: bundan bir oz ilgari; **kecha** – vaqt, sutka, bugundan oldin, o‘tgan; ta’rifi: bugundan oldin o‘tgan kun; **bultur** – vaqt, yil, oldingi, o‘tgan. Ta’rifi: oldingi o‘tgan yil.

3. Hozirgi zamoni ifodalovchi payt ravishlari. Ushbu guruhga **hozir, hozirdan, halitdan** leksemalari kiradi. O‘zbek tilida hozirgi zamoni ifodalovchi leksemalar oz bo‘lib, borlari ham bir o‘zakdan yasalgan so‘zlardir. Bu esa hozirgi zamonning cheksiz vaqt davomiyligidagi o‘tgan va kelasi zamoni ajratib turuvchi qisqa bir nuqta ekanligidan darak beradi. Ushbu leksemalarning semik mundariyasi quyidagicha bo‘lishi mumkin: **ho-zir** – vaqt, so‘zlangan payt; ta’rifi: nutq so‘zlanib turgan paytda; **hozirdan** – payt, shu payt; ta’rifi: shu paytning o‘zida; **halitdan** – shu payt, boshlamoq; ta’rifi: shu paytdan boshlab.

4. Inkori paytni ifodalovchi ravishlar. Ushbu guruhga **hech vaqt, sira, minba’d** leksemalari kiradi. **Sira** (minba’d) – hech, vaqt, inkor; ta’rifi: hech qachon, hech vaqt.

5. Gumon vaqtni ifodalovchi payt ravishlari. Bular ma’lum ish-harakat yuzaga chiqish vaqtining gumon, taxmin ekanligini bildiradi. Ularga **allaqachon, qachondir, birda, erta-indin, bugun-erta, vaqt-bevaqt, avvallari** leksemalari misol bo‘ladi. Ushbu leksemalarni quyidagicha semik tahlil qilish mumkin: **birda** – vaqt, kun, gumon; ta’rifi: qaysi bir kuni; **qachondir** – kun, kelajak, gumon; ta’rifi: kelajak kunlarining birida; **avvallari** – vaqt, o‘tgan; ta’rifi: o‘tgan vaqtda; **allaqachon** – vaqt, oldin, ancha; ta’rifi: ancha vaqt oldin; **erta-indin** – kun, kelasi, gumon; ta’rifi: yaqin kunlarda; **bugun-erta** – kun, yaqin, gumon; ta’rifi: yaqin kunlarda; **vaqt-bevaqt** – payt, istalgan, noaniq; ta’rifi: istalgan bir paytda.

6. Uzluksizlikni ifodalovchi payt ravishlari. Ushbu guruhga vaqtdagi to‘xtovsiz davomiyligni ifodalovchi ravishlar kiritiladi. Ular chegarasiz va chegarali uzluksizlikni ifodalovchi guruhlariga ajratildi. Chegarasiz uzluksizlikni bildiruvchilarga **doimo, doim, mudom, hamisha, har vaqt, har doim, har qachon** so‘zlari mansubdir.

Doim (doimo) – vaqt, doimiylik, cheksizlik; ta’rifi: hamma vaqt, doimo; **hamisha, mudom, mangu, hamma vaqt** – vaqt, doimiylik, cheksizlik; ta’rifi: hamma vaqt.

Chegarali uzluksiz vaqtni ifodalovchi ravishlarga **kunlab, soatlab, oylab, yillab, umrbod, tunu kun, yilma-yil, ertayu kech, uzzukun, shaf-ro‘z, minutlab, kundun-kunga, kunda, oylab-yillab** kabi leksemalar kiradi. Semantik tarkibi: **soatlab** – soat, bir necha, davomli; ta’rifi:

bir necha soat davomida; **kunlab** – kun, bir necha, davomli; ta’rifi: bir necha kun davomida; **haftalab** – hafta, bir necha, davomli; ta’rifi: bir necha hafta davomida; **oylab** – oy, bir necha, davomli; ta’rifi: bir necha oy davomida; **umrbod** – vaqt, o’lguncha, davomli; ta’rifi: o’lgunga qadar; **uzzukun** – kun, erta, kech, davomli; ta’rifi: kun bo’yi, ertadan kechgacha; **ertayu kech** – erta, kech, davomli; ta’rifi: ertadan kechgacha.

7. Uzlukli vaqtni ifodalovchi payt ravishlari. Ushbu guruhga **ba’zan, goho, gohida, goyida, ahyonda, unda-munda, ora-sira, ora-chora, o’qtin-o’qtin, har zamonda, birda-yarim** soʻzlarini kiritish mumkin. Yuqoridagi barcha soʻzlar oʻzaro sinonim boʻlib, ular «hamma vaqtda emas, ayrim vaqtlarda» maʼnosini bildiradi. Bu maʼno ushbu semalardan iborat: vaqt, ayrim, uzluklilik. **Ahyonda, unda-bunda, har zamonda** soʻzlarida vaqt oraligʻi boshqa soʻzlarga nisbatan uzoq boʻladi.

8. Chegarali muddatni ifodalovchi payt ravishlari. Ushbu guruh leksemalari oʻlchovli muddatni anglatadi: **vaqtincha** – muddat, cheklangan; ta’rifi: cheklangan muddatga; **buguncha** – bugun, cheklangan, muddat; ta’rifi: bugun bilan cheklangan muddat, shu bir kunga; **hozircha** – muddat, bir oz; ta’rifi: bir oz muddat; **ertagacha** – bugundan ertagacha, muddat; ta’rifi: bugundan ertangi kungacha boʻlgan muddat.

9. Sutkaning vaqt turlarini ifodalovchi ravishlar. Oʻzbek tilida bunday ravishlar, asosan, sutka qismlarini nomlovchi payt otlaridan hosil boʻlgan yasama ravishlardan iborat. Ular **azonlab, azonda, saharlab, ertalab, kunduzi, oqshomlab, kechqurun, kechasi** soʻzlaridir. Sutka qismlarini ifodalovchi ravishlar sutkaning maʼlum qismidagi paytni sof holda bildirib, «qachon» soʻrogʻiga javob boʻladi. Sutka qismini nomlovchi payt otlari esa mazkur vaqtni predmet sifatida nomlaydi. Sutkaning qismlari boʻlgan vaqt turlarini ifodalovchi payt ravishlarining semik strukturasi quyidagicha: **azonda (azonlab)** – tong, barvaqt; ta’rifi: tongda, tong chogʻida; **saharlab** – erta, tong, barvaqt; ta’rifi: erta bilan barvaqt, erta tongda; **ertalab** – tongdan soʻng, kunning boshi; ta’rifi: kunning boshida, tong otgandan soʻng; **kunduzi** – sutka qismi, yorugʻ; ta’rifi: sutkaning yorugʻ qismi; **oqshomlab** – sutka, qorongʻi, payt; ta’rifi: sutkaning qorongʻi tushgan payti; **kechqurun** – kunduzning tugashi, tun boshi, payt; ta’rifi: kunduz tugab, tun boshlanayotgan payt; **kechasi** – sutka qismi, qorongʻi; ta’rifi: sutkaning qorongʻi tushgandan tong otguncha boʻlgan qismi, sutkaning qorongʻi qismi.

10. Vaqt oʻrnini ifodalovchi ravishlar. Ushbu soʻzlarning semik strukturasi va taʼrifini quyidagicha aniqlanishi mumkin: **oxirda** – oxirgi, vaqt; ta’rifi: oxirgi vaqtda; **oldindan** – roʻy berishdan avval, avvalgi vaqtda; ta’rifi: biror voqea-hodisa roʻy berishdan avval.

Payt ravishlarini nutq lahzasiga munosabatini alohida tasnif belgisi qilib olib, tasniflashni lozim topdik. Bildirilgan vaqtning nutq lahzasiga munosabatiga koʻra payt ravishlari 2 ga

bo‘linadi: nutq lahzasiga munosabatda bo‘lmagan payt ravishlari va nutq lahzasi ta‘siriga uchragan payt ravishlari.

Nutq lahzasi ta‘siriga uchramagan payt ravishlari ham ikkiga bo‘linadi. Birinchi guruhdagi nutq lahzasiga munosabatda bo‘lmagan ravishlarning bildirgan ma‘nosi butun vaqt davomiyligini qamrab oladi. Bu leksemalarning semantik strukturasi tuzilishida nutq lahzasining ta‘siri kuchsizlanadi. Bunday leksemalar bildirgan vaqt ma‘nosi uchala zamonga ham taalluqlidir. Ularga **doim, doimo, har doim, hech qachon, umrbod** kabilar misol bo‘ladi. Ikkinchi guruhga nutq lahzasiga munosabatda bo‘lmagan ravishlarning yana bir turini ajratdikki, bunday ravishlarga **kunda, yillab, oylab, oqshomlab, saharlab, oyda-yilda, xaftalab, soatlab, minutlab, kechqurun, kechasi, ertalab** kabi leksemalar kiradi. Bu ravishlar vaqt davomiyligining biror qismini ifodalaydi, lekin bu leksemalarning semantik strukturasi zamonga munosabat belgilari bo‘lmaydi. Yuqoridagi leksemalar bildirgan vaqtning nutq lahzasiga munosabati kontekstda fe‘l zamon shakllari yoki qo‘shimcha leksik vositalar bilan aniqlanadi.

Nutq lahzasi ta‘siriga uchragan payt ravishlarining semantik tuzilishida nutq lahzasi asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu ravishlar bildirgan vaqt nutq so‘zlanib turgan paytni, undan oldingi yoki keyingi vaqt davomiyligini, uning biror qismini bildiradi. Bularga uch zamonga bo‘linuvchi **kecha-bugun-ertaga, avval-hozir-keyin** kabi, ikki a‘zoli ziddiyatdagi **kechasi-kunduzi, dastlab-so‘ngra** kabi va faqat bir zamoni ifodalovchi **hanuz, allaqachon, o‘sha-o‘sha** leksemalari misol bo‘la oladi.

Vaqt semali holat ravishlari. O‘zbek tilida shunday holat ravishlari borki, ularning semantik strukturasi vaqt semalari tashkil etuvchi semantik element sifatida ishtirok etadi. Quyida holat sememalarini ularning tarkibida mavjud bo‘lgan vaqt semalarining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha tasnif etib keltiramiz.

1. «Noo‘rin vaqt» semali holat ravishlari. Bunday, ya‘ni «noo‘rin vaqt» semasiga ega holat ravishlarini **bemavrid, bevaqt, bemahal, chog‘siz** so‘zlari tashkil etadi. Bu so‘zlarning semik strukturasi holat semasi yetakchi mavqeda bo‘lsa-da, «noo‘rin vaqt» semasi ham so‘z shakllanishi uchun ahamiyatlidir. **Bemahal, bemavrid, bevaqt, chog‘siz** so‘zlari sinonim bo‘lib, ularning asosiy (denotativ) semalari aynandir. **Bemahal (bevaqt, bemavrid, chog‘siz)** – holat, noo‘rin vaqt; ta‘rifi: noo‘rin, keraksiz vaqtda. **Bemavrid** so‘zida «o‘z vaqtida emaslik» ma‘nosi kuchliroq ta‘kidlanadi.

2. «Kutilmagan vaqtda» semali holat ravishlari. Bunday semantik elementli ravishlarga **shartta, birdaniga, to‘satdan, ilkisdan, bexosdan, tuyqusdan, qo‘qqisdan** so‘zlari misol bo‘ladi. Bu so‘zlar shakllanishida «kutilmagan vaqt» semasi muhim ahamiyat kasb etgan. **To‘satdan, qo‘qqisdan, bexosdan, birdan, birdaniga, dabdurustdan, nogahon,**

kutilmaganda, banogoh, ittifoqo, daf'atan, ilkisdan, tuyqusdan, tuyuqsindan, favqulodda, lop etib so'zlari sinonim bo'lib, ular «kutilmagan», «xayolga kelmagan bir vaqtda» ma'nosini ifodalaydi. Bu ma'noni quyidagi semalar hosil qiladi: kutilmagan vaqtda, xayolga kelmagan vaqtda. Bu so'zlar, asosan, o'zaro qo'llanish doirasining keng yoki torligi bilan farqlanadi. **Daf'atan, banogoh** eskirgan, kitobiy. **Ilkisdan, tuyqusdan, tuyuqsindan** – dialektal.

3. «Ayni bir vaqtda» semali holat ravishlari. Mazkur semali holat ravishlari **birvarakayiga, baravariga, yoppasiga, birga, birdan** kabilar bo'lib, ularda «bir vaqtlilik» semasi mavjud. «Birga» leksemasi ko'p ma'noli bo'lib, u anglatgan ma'nolaridan biri «bir vaqtda» semasiga ega. **Birga** – bir vaqtda, aynan, yonma-yon; ta'rifi: ayni bir vaqtda, yonma-yon; **bir-varakayiga** – bir vaqtda, aynan, birgalikda; ta'rifi: ayni bir vaqtda, birgalikda; **baravariga** – bir vaqtda, baravar; ta'rifi: bir vaqtda, bir-biridan qolishmay, baravar; **yoppasiga** – bir vaqtda, hammasi; ta'rifi: hammasi bir vaqtda.

4. «Noaniq uzluksizlik» semali holat ravishlari. Mazkur semaga ega bo'lgan ravishlar noaniq davomiylikdagi uzluksizlikni ifodalaydi. Ular **betinim, beto'xtov, surunkasiga, uzluksiz, ketma-ket, paydar-pay, sirasiga** kabi so'zlardir. Ularning semik mundarijasida «uzluksizlik» semasining bo'lishi zaruriydir. «Noaniq uzluksizlik» semali so'zlarning ko'pchiligi sinonimik qator hosil qiladi. **To'xtovsiz, tinimsiz, betinim, muttasil, uzluksiz, surunkasiga, paydar-pay, ketma-ket** so'zlari o'zaro sinonim bo'lib «to'xtamagan, tinmagan holda» ma'nosini ifodalaydi. Bu ma'no «holat», «to'xtamagan», «noaniq uzluksiz» semalaridan iborat. **Tinimsiz** so'zida belgi darajasi kuchliroq. **Muttasil, uzluksiz** so'zlari uzoqroq davom etuvchi harakatga nisbatan qo'llanadi.

5. Vaqt miqdorini anglatuvchi semalarga ega bo'lgan holat ravishlari. Mazkur sema turlariga ega bo'lgan **uzoq, uzundan-uzoq, qisqa, oz, ko'p** leksemalari vaqt miqdorining ko'p-ozligini bildiradi. Ularning semik tarkibi quyidagicha: **uzoq** – vaqt, davomiylik, ko'p; ta'rifi: ko'p vaqt davom etadigan; **uzun-dan-uzoq** – vaqt, uzoq, juda, davomli; ta'rifi: juda uzoq vaqt davom etadigan; **ko'p** – vaqt, uzoq, davomli; ta'rifi: uzoq vaqt davom etadigan; **oz** – vaqt, kam, davomli; ta'rifi: kam vaqt davom etadigan; **qisqa** – vaqt, juda oz, davomli; ta'rifi: juda oz davom etadigan vaqt.

6. «Izchil vaqtda» semasiga ega holat ravishlari. Bunday ravishlar ma'lum ish-harakatning izchil, ketma-ket bajarilish holatlarini anglatadi. Ular **birin-ketin, birin-birin, birin-sirin, ketma-ket, navbatma-navbat** kabi leksemalardir. Ushbu leksemalar uchun «izchil vaqtda» semasi muhimdir. **Birin-birin, ketma-ket, navbatma-navbat** so'zlari o'zaro sinonim bo'lib, «biri ketidan biri, izchil vaqtda» ma'nosini ifodalaydi. Bu ma'no «izchil vaqtda», «biri orqasidan biri», «davomli» semalari asosida tashkil topgan. Ta'rifi: izchil vaqtda, biri ketidan biri davom etadigan.

7. «O‘tmish» semali holat ravishlari. Bunday semaga ega bo‘lgan holat ravishlarining shakllanishida «o‘tmish» semasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular **avvalgiday, burungiday, burungicha, qadimgiday, qadimgicha, qadimona** kabi so‘zlardir. **Avvalgiday** – avval (o‘tmish), o‘zgarishsiz; ta’rifi: avvalda qanday bo‘lsa shunday; **burungiday (burungicha)** – burun (o‘tmish), o‘zgarishsiz; ta’rifi: burunda qanday bo‘lsa shunday; **qadimgiday (qadimgicha, qadimona)** – qadim (o‘tmish), o‘zgarishsiz. Ta’rifi: qadimda qanday bo‘lsa shunday.

8. «Hozir» semali holat ravishlari. Bunday semali ravishlarga **yangi, yangitta** leksemalar mansubdir. Ushbu leksemalar shakllanishida «hozir» semasi asos bo‘lgan. **Hozir** leksemasi o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi vaqtni bildiradi.

Amerikalik filosof va psixolog Uil’yam Djems ko‘plab tadqiqotlari natijasida «hozir lahzasi» o‘n ikki sekundni tashkil qiladi degan xulosaga kelgan. Boshqa olimlar «hozir» 6-7 va hatto bir sekund davom etadi degan fikrni ilgari suradilar (102,29). Bizningcha, har bir inson ayni damda nafaqat ma’lum sekund yoki minutda, balki muayyan geologik eraning, muayyan asrning biror yili, kuni va soatida yashaydi. Demak, «hozir» nisbiy ma’no bo‘lib, so‘zlovchi aloqador bo‘lgan katta vaqtni ham ifodalay oladi: «*hozir yigirma birinchi asr*» kabi.

Yangi – vaqt, hozirgi; ta’rifi – yaqin o‘tmishdagi yoki hozirgi vaqtda.

9. Harakatning bajarilish vaqti me’yori bilan bog‘liq holat ravishlari. Bunday ravishlarga **tez, darrov** (bajarilish vaqti me’yoridan oz), **sekin** (bajarilish vaqti me’yoridan ko‘p), **barvaqt, erta, elburundan, elburutdan** (belgilangan vaqt me’yoridan avval), **kech** (belgilangan vaqt me’yoridan keyin) leksemalarini kiritish mumkin. Ularning semik mundarijasi quyidagicha: **tez** – odatdagidan oz vaqt, davomida; ta’rifi: odatdagidan oz vaqt davomida; **sekin** – odatdagidan ko‘p vaqt, davomida; ta’rifi: odatdagidan ko‘p vaqt davomida; **erta** – belgili vaqt, oldingi vaqt; ta’rifi: belgili vaqtdan oldingi vaqt; **elburutdan (el burutdan)** – odatdagi vaqt, tong, avval; ta’rifi: belgilangan tong vaqtdan avval; **kech** – belgilangan vaqt, keyin; ta’rifi: belgilangan vaqtdan keyin.

«Qisqa muddatda» semali miqdor ravishlari. Bular qisqa muddatni ifodalovchi **birpas, birpasda, andak, xiyol** kabi so‘zlardir. **Birpasda** – vaqt, qisqa, davomida; ta’rifi: qisqa vaqt davomida; **andak** – qisqa, vaqt; ta’rifi: ozgina, qisqa vaqt; **xiyol** – vaqt, qisqa; ta’rifi: qisqa, ozgina, vaqt.

III bob. VAQT IFODALOVCHI BIRLIKLARNING MATN SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

3.1. Matn va uning tuzilishida temporal semantikaning o'ri

Hozirgi davrda matn tilshunosligi o'zining shakllanish bosqichini kechirmoqda.

XX asrning 60-yillaridan boshlaboq tilshunoslikda burilish ro'y berdi. Tilshunoslik bu vaqtda kelib tildagi birliklar bo'lishi fonema, morfema, leksema gaplarni o'rganishni yakunlab, gapdan kattaroq birliklarni o'rganishga kirishdi.

Ular tilshunoslik fanida sintaktik butunlik, xat boshi, diskurs matn atamaları bilan nomlanadi va ularning ta'rifi turlicha ta'riflansa ham umumlashtirgan holda biror mavzuni batafsilroq yoritishdagi gaplar yig'indisidan iborat bo'ladi, deyishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda tilning eng katta birligi sifatida matn tan olindi. Albatta, matn til birligi sifatida tan olinishida matnning o'ziga xos xususiyatlari yetakchi rol o'ynaydi.

Hozirda o'zbek tilshunosligida tilshunos olimlar matn haqida to'la, yetuk va izchil amaliy ishlarni amalga oshirganicha yo'q, chunki bu fan sohasiga yangi bo'lgan, yetakrli darajada o'rganilmaganidadir. Lekin bunga qaramay, hozirgi zamon tilshunosligidagi so'nggi izlanishlar gap doirasidan tashqarida, gapdan yirik sintaktik butunliklar mavjudligini isbot etdi. Bu esa yangi ilmiy izlanishlar olib borishga turtki bo'ldi.

Matn haqidagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar asrimizning 70-yillaridan boshlanadi, desak mutlaqo xato bo'lmaydi. Matnning o'rganilishi tarixi bayonida shu narsa ma'lumki, tilning bu yangi paydo bo'lgan sathi va birligi masalasi dastlab g'arb va rus tilshunoslari tomonidan o'rganila boshlandi. Bu masalani o'rganish va tadqiq qilish tilshunos olimlar oldida qator vazifalarni qo'ydi.

1. Matn va matn tilshunosligiga doir masalalar
2. Matn ta'rifi masalasi
3. Matn birligi (matnning o'rganish ob'ekti) kabilar.

G'arb tilshunoslari tomonidan matn tilshunosligi bilan bog'liq masalalarning qurilishida, asosan Praga lingvistik maktabi vakillari tomonidan qilingan ishlarni aytib ytish kerak. Ular bu masalani funksional-semantik aspektda analiz qilganlar.¹

Rus tilshunoslari tomonidan esa qilingan ilmiy ishlar 1974 yilda Moskvada ytkazilgan matn lingvistikasiga doir ilmiy-nazariy konferensiyadir. Bu konferensiyada asosan, matn

¹ Зилберман А. Лингвистика текста и обучение чтению английской научной литературы. М. 1989. стр.13

lingvistikasiga doir bir necha doklad va ilmiy axborotlar tinglandi. Tilshunos olimlarning chiqishlarida matn lingvistikasining murakkabligi, ko'p aspektlilik, shu bilan birga tilshunoslik fanida yangi soha ekanligi qayd qilinib o'tiladi. Bu konferensiya tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Ularda aks etgan tekshiruvlar, natijalar matn lingvistikasi bilan bog'liq masalalarni o'rganishga bundan keyingi izlanishlar uchun asosiy turtki sifatida xizmat qiladi.¹

Matn lingvistikasi tilshunoslikdagi yangi soha. Bu sohani o'rganish hozirgi kun talabidir. Mavzuning dolzarbligi shundan ma'lumki, bu hozirgi kun ilmiy kuzatishlar doirasini yanada kengaytiradi, to'ldiradi, izohlar talab qiladi. Bunday qarashlar sintaksisning birligi hisoblangan gap va gapdan yirik nutqiy sintaktik butunlik mavjud emas, degan fikrga zarba berdi.

Rus va g'arb tilshunoslaridan so'ng matn lingvistikasiga bo'lgan qiziqish turkologiyada ham o'z ifodasini topdi. Tatar tilshunos olimi N.Zakiev ishlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.²

O'zbek tilshunoslik olimlarida matn lingvistikasiga doir dastlabki izlanishlar tilshunos olim G'.Abdurahmonov qilindi. G'.Abdurahmonov matn lingvistikasiga to'xtalib y'tarkan, u matn nazariyasiga o'z e'tiborini jalb etdi. Lekin shuni tak'kidlash kerakki, olim bu xususda to'xtalmagan. Matn haqidagi yana ba'zi fikrlarni A.G'ulomov va M.Asqarovalarning 1987 yilda nashr qilingan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligida ko'rishimiz mumkin.

Bu adabiyotda matn sintaksisi o'zbek tilshunosligida izchil y'rganilmaganligi qayd etiladi.

Yuqoridagi bayon qilingan fikrlardan ko'rinib turibdiki, matn tilshunoslik oldida turgan eng muhim masala. Bu masalaga ilmiy-nazariy va ijodiy yondashish, uning tarkibini o'rganish, matn sintaksisining ichki strukturasi eng mayda qismlarigacha o'rganish zarur bo'ladi.

Matn boshqa til birliklaridan farqli ravishda o'zining mayl xususiyatlari shaxs ma'nosini ifodalovchi matndagi shaxs ma'nosi bilan muallif orasidagi bog'lanish borligi yaqqol seziladi.

Matnni til birligi sifatida namoyon bo'lishida matnni tahlil etuvchi sintaktik birliklar, ularning yetakchi mazmunni tashkil etishi, fikrni ifoda etish va tinglovchiga yetkazib berish, ma'lum bir bog'lanishli axborotga ega bo'lishi ahamiyatlidir. Masalan: *Odamlar erta tongdanoq tomlarini, ko'chalarini kuramoqdalar. Tiniq sof havoda qor uchqunlari ko'zni qamashtiradi. Yo'lovchilar qor kurayotganlar bilan naridan-beri salomlashib allaqayoqqa shoshilishardi.*

Keltirilgan matnni ko'rib chiqqanimizda gaplardan anglashilgan mazmunga ko'ra bizga tabiat tasviri ko'z o'ngimizda gavdalanayapti, ya'ni qish ekanligi, qor kurash jarayoni va yo'lovchilarning ko'chada ketishayotgani kabilar. Bu axborotlar fikrni holatga bog'laydi.

Matn til birligi deyilganda uni tashkil etuvchi birliklar bilan, tilning boshqa birliklari bilan uzviy bog'liqligi ham mavjudligini ko'rsatib o'tish joiz. Gaplar, avvalo nisbiy tugallagan ohangni anglatib, grammatik va mazmunning bog'lanish asosida yuzaga kelar ekan, bunda

¹ Лингвистика текста. Материалы научной конференции МТТИЛ. М. 1974. стр. 1-2

² Закиев Н.З. Хозирги татар адабий тили синтаксиси ва пунктуацияси. Қозон. 1984. 199-226-бет

soʻzlar birikmasi va soʻzlar ishtirok etadi. Soʻzlarning ishtiroki esa leksikologiya birligining ham matn bilan bogʻlanish imkoniyati mavjudligini koʻrsatadi. Soʻzlar esa morfemalardan tashkil topganligi va morfema ham fonemadan shakllanganligi til birliklarining oʻzaro bir-biri bilan va tilning eng katta birligi boʻlmish matn bilan oʻzaro aloqadorligini koʻrsatadi.

Matn tildagi boshqa birliklar bilan oʻzaro bogʻliqligi bilan oʻzaro farqli xususiyatlariga ham egadir va shunday boʻlishi ham shart, chunki busiz tildagi dialektik qonuniyat roʻy bermaydi.

Matnning oʻziga xos xususiyatlari tilning eng katta birligi ekanligi, maʼlum bir fikrning tugalligi matndan anglashilgan axborotning maʼlum bir voqeani ham eslatishi, kichik bir vosita orqali yaʼni modal munosabatning maʼlum bir emotsiya bilan ifodalanishi orqali matnning tinglovchiga katta bir voqeaga ishora qilish kabi asosiy xususiyatlardan iborat.

Masalan: Gulnoz oʻsha kitobni (avvalgi kuni kitob magazinidan sotib olgan badiiy kitobni, undagi voqealarni va qahramonlarning istiroblarini) sira unutilmasdim. Bu matnning tahlil qilib koʻrilganda, uning bitta gapdan iborat ekanligini, sodda gapligini anglaymiz. Lekin uni butun holicha matn deb olishimizga toʻgʻri keladi. Sababi gapda ifodalangan oʻsha soʻzi (olmoshi) orqali maʼlum bir ishora orqali yana boshqa bir matnning eslatishga u haqidagi asosiy fikrga, mazmunga ega boʻlishini yuzaga keltiradi. Bu hol albatta, kontekstga bogʻliq holda yuzaga chiqadi. Yana shuni taʼkidlash kerakki, soʻzlarning yoki gaplarning maʼno va mazmuni nutqda reallashadi, yaʼni kontekstga bogʻliq holda. Kontekstda soʻzlarning reallashuvi ogʻzaki nutq asosida yuzaga chiqib, ogʻzaki nutqda ishtirok etuvchi gaplar, yaʼni ikki kishining oʻzaro suhbatini matnning, ogʻzaki matnning tashkil etadi. Demak, bundan koʻrinadiki, matn oʻz ichiga tildagi hodisalarni qamrab oladi. Matn til birliklari ichida murakkab strukturaga va ichki bogʻlanishga xoslik mavjud boʻladi.

Matn til birligi sifatida koʻrayotganimizda uni gaplar va ularning oʻzaro mazmunan ketma-ketligi yuzasidan hosil boʻlgan sintaktik birlik tushuniladi. Shu oʻrinda ularda, yaʼni matnning gapga teng deb tushunish notoʻgʻridir. Chunki gap sintaksisining tekshirish obʼekti hisoblangan holda gapda ifodalangan mazmun nisbiy tugal boʻlib, kichik axborot, xabarni tashkil etadi. Matnda esa bu hol toʻliq tugallangan fikrni anglatishi bilan katta farq qiladi. Matndagi fikrning tugalligi mazmun ifodasi kengligi gapga nisbatan batafsil mazmun yetkazib bera olish xususiyatini keltirib chiqaradi. Matn bilan gap bir-biriga teng kelib qolishi mumkin. Bu hol ularning strukturasi bilan bogʻliq roʻy beradi. Yaʼni matn bir necha sintaktik birliklar majmuasidan iborat boʻlmay, balki bitta gapdan iborat boʻlishi ham mumkin. Bundan tashqari matn birdan ortiq sintaktik birliklar yigʻindisidan iborat boʻlishi ham mumkin. Matn tarqibiga kiruvchi nisbiy mustaqil gaplar – komponentlari mazmunan umumiy bir temani ifodalash uchun

xizmat qiladi. Shu tema matnii tashkil etuvchi birliklar yordamida har tomonlama yoritiladi. Shunga ko‘ra matn kompozitsiya jihatidan quyidagicha qismlarga ajraladi.

1. Boshlanma
2. Mavzu izohi
3. Tugallanma

Boshlanma qismi mavzuni tashkil qiladi. Bunda matnii yoritish qismi, boshlanmasi deb tushunish mumkin.

Mavzu izohiga keladigan bo‘lsak, matn mazmunini ochib berishdagi izohlar tushuntirish, tanishtirish qismi tushuniladi.

Tugallanma esa fikrning yakuni mazmunii to‘liq yakuniga olib kelish kabi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, matnlar bir necha gaplar yig‘indisidan iborat bo‘lib qolmay, balki butun bir asarga ham teng kelishi mumkin. Bu fikrga kelish matnii hajm jihatdan o‘rganilganda yuzaga chiqadi.

Matn hajm jihatidan eng kichik yoki eng kattaga bo‘linadi.

Kichik matnlar

1. Ariza
2. Ma’lumotnoma
3. E’lon
4. Ishonch qog‘ozi – tilxat

Katta matnlar

1. Bo‘lim
2. Qism
3. Bob
4. Bir necha kitobdan iborat bo‘ladi.

Matnning bir necha kitoblardan iborat bo‘lishiga misol qilib badiii asardagi birinchi, ikkinchi va h.k.tarzidagi jildlari misol bo‘ladi. Masalan: M.Ismoiliiyning “Farg‘ona tong otguncha” romani, P.Tursunning “O‘qituvchi” romani kabilar bitta katta matn sifatida ikkita kitobdan iborat.

Yuqorida keltirgan matnlar tuzilishi, hajmi jihatini e’tiborga oladigan bo‘lsak, matn murakkab aspektli ekanligi yana bir bor aniqligi ko‘rinadi.

Matn murakkabligi va ko‘p aspektligini bilgan holda matn leksik-grammatik va stilistik xususiyatlarini ham o‘zida belgilaydi. Leksik – grammatik xususiyati so‘z va so‘z birikmalari va ularning kontekstda reallashuvidan yuzaga chiquvchi mazmun asosii rol o‘ynashi bilan birga matnlarning stilistik xususiyat kasb etishi ham asosii xarakterli tomonidir.

Stilistik xarakter kasb etishi, avvalo, matnning fikr bayon qilishning turli shakllari mavjudligi natijasidir.

Matnlarda fikr bayon qilishning turli shakllari quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Xabar berish
2. Tasvirlash
3. Avtor nutqi
4. Dialog yoki monolog personajlar suhbat

Matnning bu bo‘linishi kontekstual bo‘linish deyiladi.

Matnlar orqali moddiy va ma’anaviy hayot turli shakllarda ijtimoiy, madaniy, umumiy, shaxsiy, badiiy, badiiy va ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuning uchun matn nutqining turli stillariga xos bo‘ladi.

Har bir stil o‘ziga xos janrlarga egadir. Matnlar turli stildagi janr ko‘rinishlaridan iborat bo‘ladi.

Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida matnlarni nutq stil turiga ko‘ra quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin.

1. Og‘zaki nutq matni – dialog, dramatik monolog, doston, ertak, latifa, topishmoq, maqol, askiya
2. Badiiy nutq matni – poetik yo‘li prozaik asarlar yoki ularning fragmentlari: poema, roman, povest, hikoya, ocherk, she’r, drama kabilar
3. Ilmiy nutq matni – tezis, maqola, annototsiya, taqriz, leksiya, kompekti
Ilmiy axborot ish plani – dastur, referat, .dissertatsiya, monografiya kabilar.

4. Rasmiy nutq matni – konkret formada shakllangan ish qog‘ozlari: ma’lumotnoma, qaror, buyruq, qonun, e’lon, telegramma, tavsiyanoma, tarjimaihol, ishonch qog‘ozi, tilxat, akt, vasiyatnoma.

Hukumat qarorlari, xalqaro diplomatik shartnomalar, profsesi hujjatlari, xarbiy ustuvorlar, patent kabilar.

5. Publitsistik matni:

Bosh maqola, informativ maqola, xalqaro-siyosiy-diplomatik nutqlar, hisobot doklodlari, mitinglar va turli marosimlardagi nutq matnlari, ocherk, reportaj, obzor, feleton kabilar.

Ma’lum bo‘ladiki, matn kishilar og‘zaki va yozma nutqning barcha ko‘rinishlarda aks etib yaqqol ko‘rinib turadi, barcha sohalarida qo‘llaniladi. Demak, matn stilistik ahamiyat kasb etishi tilning barcha stillarida qo‘llanishi uning stilistik jihatdan ham boy material, manba sifatida qabul qilishni taqozo etadi.

Matn qaysi stilda qo‘llanishdan qat’iy nazar uning asosiy vazifasi kommunikativlikdir. Kommunikativlik nutq birliklarining ierarxik sistemasi (kichik birliklarning yirik birliklarga

ergashish, tobeligi) asosida yuzaga chiqadi. Bu xususiyatni tilshunoslar matnning asosiy xususiyati sifatida ko'rsatadilar. Bunday qarash matnda nutq birligi sifatida umuman baho berishdir. Matn tilshunoslikning murakkab tadqiqotlaridan biridir. Matn tushunchasi tilshunoslikda keng ma'noda qo'llanadi. Matn tilshunosini aniqlashda unga xos hamma belgi xususiyatlarni hisobga olish kerak bo'ladi:

1. Matn-bu, eng avvalo, nutq shakli: u og'zaki va yozma holda ifoda etilishi mumkin.
2. Matn – predmet, voqea- hodisalar haqidagi ma'lumot, xabarlar yig'indisi.
3. Matn mazmuniy va struktural tugallikka ega bo'lgan yirik sintaktik struktura
4. Matn biroz muallifning nutqi
5. Matn nutq muallifning voqelikka ega bo'lgan turli munosabati
6. Matn tahlil qilish uchun tavsiya etilgan qo'lyozma, nashr qilingan asar yoki uning fragmentlari
7. Matn-mazmunan ketma-ketlilik harakterga ega bo'lgan bir necha sodda yoki qo'shma gaplar yig'indisi.¹

Ma'lum bo'ladiki, matn tushunchasi keng ma'noni qamrab oladi.

Matnning eng kichik birligi yuqorida qayd etilganidek, gapdir. Matn nazariyasi gapning aktual bo'linishi problemi bilan chambarchas bog'liqdir. Matnda ham gapga xos aktual bo'linish kuzatiladi. Matn temasi-nutq predmeti. Matn semasi esa temaning nimadan iborat ekanligidir. Matnning aktual bo'linishida gapiruvchi yoki yozuvchining strategiyasi maqsadi muhim ro'l o'ynaydi.

Demak, matn semantik-stilistik sintaktik butunlik bo'lib o'ziga xos murakkab strukturadir.

Matn strukturasi matn tarkibiga kiruvchi komponentlar – birliklar quyidagilar:

- a) gap-sodda yoki qo'shma gaplar, ularning murakkablashgan ko'rinishlari;
- b) superfazali sintaktik butunliklar
- v) abzats
- g) period

Matn tilshunosligi, eng avvalo, gaplar orasidagi superfazali butunliklar orasidagi aloqalarni, ularning abzats bilan munosabatini o'rganadi.

Umuman olganda, sintaksisning o'rganish ob'ektlari sifatida matn birinchi o'rinda, gap, ikkinchi o'rinda gap va uchinchi o'rinda so'z birikmasi turadi.

Matn lingvistikasi g'arb tilshunosligidan rus tiliga tarjima qilingan ba'zi adabiyotlarda nafrozoviy sintaksis nomi bilan ham yuritiladi va gapdan yirik bo'lgan til birliklarini tekshiruvchi sintaksis, deb izohlanadi.

¹ Мамажонов А. Текст лингвистикаси. Т., 1984. 17-18 б.

Matn muammosi hal qilinayotganda “gap” deganda tilning qanday birligini tushunish kerak, degan masala tug‘iladi. Shuning uchun matn tahlil qilishdan, uning tarkibiga kiruvchi komponentlarni ajratishdan oldin, “gap” terminning konkret ma’nosini chegaralash lozim bo‘ladi.

Matn bir necha gaplarning ketma-ket, uzviy bog‘lanishidir, degan ta’rifimizdagi gap tushunchasini biz odatlanib qolgan qo‘shma gap ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan tashkil topadi degan ifodadagi gap tushunchasidan tamoman farqlashimiz lozim.

Demak, gap-nutq birligi sifatida hech qanday bir sintaktik butunlikning bo‘lagi sifatida, masalalar, qo‘shma gap, murakkab qo‘shma gap yoki matn tarkibida kelganda mana shu butunlik mazmunini ifodalashda yordamchi ma’noni yetkazishda bevosita ishtirok etadi.

Bundan ko‘rinadiki, matnda ifodalanayotgan mazmun fikrning izchilligi bilan gapda ifodalanayotgan mazmun matnga qaraganda tugal bo‘lmaydi.

Yuqorida bayon qilingan va ta’kidlangan fikrlar matn tilshunosligi til sathining eng murakkab ko‘rinishidagi sathi ekanligi, uning hajm jihatidan mazmun va uslubiy jihatlari ham keng va turlicha ekanligini ayon qilib turibdi.

Shunga ko‘ra, tilshunoslikda matnni til birligi sifatida chuqurroq o‘rganish va tadqiq qilish kerakligi va uni matn tilshunosligi sifatida ham o‘rganish zarurligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Ma’lumki, til birliklari paradigmatic va, sintagmatic munosabatlar asosida faoliyat ko‘rsatadi. Ularning ichki semantikasida shunday aloqalarga kirisha olish belgilari mavjud bo‘ladi. Paradigmatic belgi til birliklarining nutq uchun tanlanishi imkoniyati bo‘lsa, sintagmatic belgi shu tanlangan til birliklarining boshqa til birliklari bilan bog‘lana olish (valentlik) belgisidir.

Sintagmatic belgi aslida matn hosil qilish belgisidir. Odatda ikki til birligining bog‘lanishidan hosil bo‘lgan bu leksik yoki qurshov kontekst deyiladi. Bunda sintaktik sathda so‘z birikmasi va gap to‘g‘ri keladi. Sintagmatic bog‘lanish ikki sodda gap orasida ham voqea bo‘ladi. Buning natijasida qo‘shma gap vujudga keladi. O‘z navbatida mustaqil sodda gaplar yoki qo‘shma gaplarning bog‘lanishidan hozir “matn” deb ataluvchi birliklar shakllanadi. Demak aslida sintagmatic bog‘lanish ierarx ko‘rinishga ega bo‘lib, uning quyi bosqichi, ya’ni so‘z birikmasi va gapga nisbatan kontekst yuqori bosqichga nisbatan esa “tekst” (“matn”) atamaları qo‘llanib kelinmoqda. Ba’zan “kontekst” atamasi ham keng ma’nolarda qo‘llanishi mumkin: gap mazmunining konteksti (asari) kabi. Umuman “kontekst” ma’nosida “qurshov”, “chegaralangan butunlik”, “vaziyat” semalari ustun bo‘lsa, “tekst” yoki “matn” terminida gapdan katta kommunikativ bo‘linuvchan butunlikning mazmun va shakl jihatidan yaxshiligi ma’nosi ustunlik qiladi. Xullas, matn atamasi uchun “ikki yoki undan ortiq til (nutq) birliklarining sintagmatic butunligi” kabi umumiy asos me’yorni (ma’noni) qabul qiladigan bo‘lsak, so‘z

birikmasi va gap uchun “mikromatn” va gapdan katta nutqiy birliklar butunligi uchun mikromatn atamalarini qo‘llash o‘rinlidek ko‘rinadi.

Vaqt ma‘noli temporal maydon birliklarining har biri turli darajalarda kontekst va matn shakllantirish imkoniyatlariga ega. Avvalo shuni aytish kerakki, temporal maydonning yadrosi hisoblangan grammatik zamon shakllari gapning muhim qurilish birliklaridir. Grammatik zamon shakli gapga temporal leksik birliklar bilan kengayish imkoniyatini beradi: ketdi, kecha keldi; o‘gan yilning avgust oyida ketdi, ketyapman, hozir ketyapman, bugun ketyapman kabi. Grammatik vositalar hisoblanuvchi payt ma‘noli ko‘makchilar so‘z birikmasi hosil qilishda ishtirok etadi: kun sayin qizimoq, uch kundan keyin kelmoq, yil bo‘yi ishlamoq va hakoza.

Temporal leksema va frazemalar ham o‘zlarining ma‘no hajmi ko‘lamlari bo‘yicha so‘z birikmasi, gap va matn hosil qilish imkoniyatlariga ega. Masalan, “bir soat gapirdi” deyish mumkin lekin “o‘ttiz soat gapirdi” deyish mumkin emas; “U besh” yil ishladi deyish asosli lekin “U bir asr ishladi” deyig mantiqsizlikdir.

Temporallikni ifodalovchi vositalar quyidagi funksiyalari bilan matn shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi: 1. matndagi vaqt kontinumi-voqea-hodisalarning izchil, xronologik ketma-ketligini bildiradi. 2. matndagi voqealarning vaqtini bildiradi: fe‘l zamon formalari voqea-hodisalarning umumiy (mavhum) o‘tgan, hozirgi, kelasi zamonga tegishlilikini anglatgansa, vaqt ma‘noli leksemalar ushbu vaqtning aniq moddalarini belgilaydi. Atov gapli matn turlarida zamon tushunchani vaqt ifodalovchi leksik birliklar orqali anglshiladi. 3. temporallikni ifodalovchi vositalar matn qismlarini (gaplarni) bog‘lovchilar bo‘lib xizmat qiladi. Matndagi bog‘lovchi vositalar qatoriga fe‘l zamon formalarining bir xilligi, vaqt ma‘noli so‘zlar va ularning funksional-sintaktik ekvivalentlari kabilar kiradi.¹

3.2. Vaqt semantikali ot va ravishlarning sintagmatik imkoniyatlari

Vaqt otlari qo‘shnichilik munosabatiga ikki tomonlama, ya‘ni ham ola, ham orqa tomondan, kirisha oladi. Agar payt otlari ma‘lum so‘z birikmasida oldingi komponent bo‘lib kelsa, birikuvchi (nofaol) valentlik, keyingi (oxirgi) pozitsiyada tursa birikuvchi (faol) valentlik hisoblanadi. Payt otlarining sintagmatik imkoniyatlari vaqt o‘lchov birliklari, sutka qismlari, hafta nomlari, oy nomlari, fasl nomlari leksik-grammatik guruhlarida batafsil tahlil qilinadi. Masalan, sutka qismlarini ifodalovchi kun, tong, azon, bomdod, choshg‘oh, tush, peshin, asr, shom, tun, hufton kabi leksemalarning sintagmatik imkoniyatlari, avvalo, ularning semantik mundarijasiga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu leksemalardan birortasi boshqa leksema bilan bog‘lanish hosil qilar ekan, bu bog‘lashuv ikkala leksema sememasidagi bir xil semalarning mavjudligiga

¹ Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования М: Наука 1981, 140 с.

yoki zid semalarning mavjud emasligiga asoslanadi. Agar ikkala bog‘lanayotgan sememada bir xil semalar mavjud bo‘lsa, bu biriktiruvchi yoki birikuvchi leksemaning asosiy leksik konteksti (qurshovi) hisoblanadi. Masalan, tong, sahar, hosil qilsa, tub sifatlar bilan bog‘lashuvi neytral kontekstdir.

3) payt otlari bilan: bahor tonggi, kuz tonggi kabi. Bular asosiy leksik kontekstlardir. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, “tong” leksemasi va uning sinonimlari vaqt munoabatini bildiruvchi ko‘makchilar bilan qo‘llanadi: tongga qadar, tongdan so‘ng, tongdan avval... “Tong” so‘zi bosh kelishikda quyidagi fe‘llar bilan bog‘lana olmaydi: tong tushmoq, tong botmoq, sutka qismlarini anglatuvchi choshgoh, peshin, tush, asr leksemalarining bog‘lanish imkoniyatlari juda chegaralangan. Ularning asosiy leksik kontekstlariga qaraganda neytral kontekstlari ko‘proqdir. Ushbu deksemalar “tong” leksemasi kabi bog‘lanishlar hosil qila olmaydi. Taqqoslang: Bahor tonggi-bahor peshini: tong otmoq, tong yorishmoq-choshgoh otmoq, peshin yorishmoq. Yuqoridagi leksemalarning asosiy leksik kontekstlari vaqt otlari bilan bog‘lashuvda reallashadi: peshin payti, choshgoh payti, asr vaqti, shom vaqti kabi. Sutka qismi nomlaridan “tun” leksemalarining sintagmatik imkoniyatlari kattadir. U “qorong‘i” semasi asosida tun cho‘kdi, tun qorong‘isi, tun daxshati kabi asosiy leksik kontekstlar hosil qiladi.

Payt ravishlari o‘z ma‘no imkoniyatlari asosida ma‘naviy bog‘lanishlar hosil qiladi. Payt ravishlari asosan fe‘l valentligini to‘ldirib, birikuvchi, tortiluvchi (nofaol valentlik) bo‘lib keladi. Payt ravishlari bir tomonlama bog‘lanishga kirishib, o‘zi bog‘lanayotgan leksemadan oldin keladi: endi boshlandi, ertaga boshlanadi kabi. Ma‘lumki, dastlabki valentlikka oid ishlar fe‘l so‘z turkumiga mansub bo‘lgan. Shu asosda fe‘l valentliklari aniqlangan. Fe‘lni kengayishi mumkin bo‘lgan bo‘sh joylardan (valentlik) biri qachon? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi komponent temporalikka (payt ravishlariga) mansubdir. Payt ravishlari fe‘l valentligini to‘ldirib kelar ekan, vandanay ravishlarning qaysi kundagi fe‘llarga bog‘lanishini belgilaydi. Masalan, kecha, bugun, ertaga ravishlari o‘z leksik mundarijasiga ko‘ra (kecha-bugundan avvalgi kun; bugun-o‘tayotgan kun; ertaga- bugundan keyingi kun) uzog‘i bilan 24 soat yoki uning biror bo‘lagida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan harakatni ifodalovchi fe‘llar bilan bog‘lana oladi: kecha yozdi, bugun ko‘rdi, ertaga boradi kabi.

Ishimizda payt ravishlarining sintagmatik imkoniyatlari ularning o‘tgan, hozirgi, kelasi zamoni, sutka qismini, davomli vaqtini, doimiy vaqtini ifodalovchi deksik-semantik guruhlar bo‘yicha o‘rganilgan. Masalan, sutka qismlarini bildiruvchi kunduzgi, ertalab, kechasi, kechqurun leksemalari ham o‘z semalariga mos ravishda bog‘lanishlar hosil qilib, kunduzi (kechasi) qorong‘i tushdi, tun cho‘kdi, kechasi yorishdi kabi birikmalar hosil qila olmaydi. Zero kunduzi ertalab sememalarida “yorug‘” semasi, kechasi, kechqurun sememalarida “qorong‘i” semasi mavjud bo‘lib, ular fe‘l sememasidagi zid semalar bilan moslasha olmaydi. Polisemiya,

sinonimiya, kelishik, ko‘makchi kabi vositalar temporal leksemalarning sintagmatik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

3.3. Payt otlari va ravishlarning matn shakllantirish imkoniyatlari

Vaqt ma‘noli so‘zlar matnda o‘zaro bog‘lanib bayon qilinayotgan voqea-hodisalarning oqimini (kontinumini), xronologik ketma-ketligini bildiradi. Narsa vaqt va makonda harakatlanar ekan, har bir matn turida vaqt kontinumi bo‘lish shart, matn turi, uslubi va muallifning maqsadiga qarab vaqt oqimi yorqin yoki xiraroq berilishi mumkin. Vaqt kontinumi yoki ko‘proq tarixiy-ilmiy, tarixiy-badiiy matn turlarida yorqin ifoda etiladi. Matn komponentlari esa temporal so‘zlar zanjiri bilan bog‘lanadi. Vaqt ma‘noli leksemalar matnda gaplarni birlashtiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular gaplarni mazmun va sintaktik jihatdardan bog‘lagan holda matn shakllantirish imkoniyatiga ega.

Tonggi g‘ira-shirada shaharga tushib ketgan kelinini Solihabibi bu gal qandaydir umid va sabrsizlik bilan kutdi. Ammo kun o‘tishi qiyin bo‘ldi. Peshingacha hovlida qimirlab yurdi: O‘g‘ilopa oldidag‘ijanak bo‘lib yotgan pomidorni tigovich qo‘yib tiradi, bo‘yi kelibtursin deb, ayvonga yaqin ekilgan bo‘yrodek joydagi oshrayxonning tagini chopdi. Peshindan keyin qo‘shnisining beqasam ko‘rpachasini qavishga tushdi. Tovuqning qaqalagani eshitildi. Solihabibi beihtiyor hovliga nazar tashladi. Kun botdi. Nega kelindan darak yo‘q. (O‘.Umarbekov)

Ushbu matndagi voqealar rivoji muayyan vaqt ketma-ketligida, ya‘ni “tong-peshingacha, peshindan keyin – kun botdi” izchilligida bayon qilinmoqda. Ko‘rinib turibdiki, matn tarkibidagi gaplarning bog‘lanib bir butunlik tashkil qilishda asosiy bog‘lovchi vosita vaqt semantikali so‘zlardir.

Payt otlari matndagi gaplarni kontakt va distant aloqalar bilan bog‘laydi. Yonma-yon so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi kontakt, orasida boshqa gaplar mavjud bo‘lgan gaplarning bog‘lanishi distant (masofali) aloqa hisoblanadi. Asr, yil, fasl, hafta, sutka (kun) soat, minut, sekund kabi. Leksemalar matndagi voqea-hodisalarning aniq vaqtini voqea-hodisalar orasidagi vaqt davomiyligini anglatadi.

1963 yilda badiiy adabiyot nashriyotiga o‘tib to 1970 yilgacha muharrir bo‘lim mudiri vazifalarida ishladim. Bu o‘ng yil ichida mening yettita she‘riy kitobim, Yesenin, Svetlovdan qilgan tarjimalari bosilib chiqdi. Hamsa nomli teatrda 1969 yilda “Oltin devor” komediyalar qo‘yildi. (E.Vohidov)

Ushbu matn parchasida 1960 yil “1963 yil”, “1970 yil” “o‘n yil” vaqt ma’noli lug‘aviy birliklardan iborat so‘z birikmalarining kontakt aloqasi orqali matn shakllangan.

Vaqt semantikali leksemalarning matn shakllantirish imkoniyatlari ularning ma’no hajmiga bog‘liq. Ko‘p vaqt davomiyligini bildiruvchi leksemalarning matn shakllantirish imkoniyatlari katta bo‘ladi, ya’ni ular ko‘p vaqtda sodir bo‘luvchi qovea hodisalarni ifodalovchi ko‘proq gaplarni biriktira oladi va aksincha. Vaqt o‘lchov birliklaridan eng katta matn shakllantirish imkoniyatiga vaqt miqdori katta bo‘lgan asr, yil so‘zlarini keltirish mumkin. Asr leksemasi asosida trilogiya; yil, oy, fasd, hafta leksemalari assida qissa: hafta, sutka, kun, tun, soat leksemalari mazmun asosida hikoya yaratish mumkin. Eng kichik vaqt hajmga ega on, lahza leksemalari esa ikki yoki uch gap voqeligini bog‘lay olishi mumkin xolos.

Matn shakllanishida yetakchilik qilayotgan so‘zning semik qatlami muhim ahamiyatga ega. Yetakchi so‘z gaplarni bog‘lar ekan, ushbu bog‘lashuvlar yetakchi so‘zning asosiy va potensial semalari asosida ro‘y beradi.

Qish chillasi avjida. Izg‘irinli yillar esadi. Qo‘l oyoqlariga kishan solingan, kiyimlari yirtiq mahyuuslar Samarqandning Registon maydonida sovuqdan qaltirab, shahar qozisining hukmini tinglaydilar. (P.Qodirov) Ushbu matnda “qish” so‘zi yetakchi bo‘lib, 2-gap 1-gapga uning “sovuq” semasi yordamida bog‘langan. Chunki “qish” semasida ham, “izg‘irin” semasida ham “sovuq” semasi mavjud. 3-gapda esa “soquv” semasi semema holida yuzaga chiqadi va mazkur gapni 1-gap bilan distant 2-gap bilan kontakt bog‘laydi.

Vaqt ma’noli leksemalarning matn shakllantirishda ikki xil holatni kuzatish mumkin. Birinchi holatda matn tarkibidagi barcha gaplar bevosita shu yetakchi so‘zga bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, ushbu so‘z barcha gaplar uchun umumiy bo‘ladi. Bunda matndagi temporal so‘zga bog‘lanayotgan hamma gaplar mazkur so‘z ishtirok etayotgan gapga nirsimon bog‘lanadi.

Odatda yurtimizda bahor fevralning o‘rtalarida keladi va tabiat o‘zgacha tus ola boshlaydi. (1). Havolar ilib, dov-daraxtlar uyg‘ona boshlaydi (2). Qushlar uchib kelib, eski inlarini tuzatishga yoki yangisini qurishga tushadilar (3). Ariqlar zilol suvlarga to‘lib, atrof ko‘m-ko‘k maysazorga aylanadi (4) (“Atrofimizdagi olam”) Ushbu matn parchasida 2,3,4-gaplar bevosita birinchi gapga bog‘lanib, uni izohlab kelmoqda.

Gaplar bir-biriga zanjirsimon aloqa usuli bilan bog‘lanishi mumkin. Bunda vaqt ma’noli yetakchi leksema zanjirining boshlanishi bo‘lib xio‘mat qiladi. Bu kabi matn turlarida kontakt aloqa amalda bo‘ladi:

Matnning o‘rtalari edi. Birdan kunlar isib, tog‘dagi g‘orlar erib ketdi. Bodomsy tosha boshladi. Lekin sinoptiklar bu toshqin havfli emas, kechga yaqin to‘xtaydi, deyishdi. Shunga qaramay ba’zi bir ehtiyot choralari qurildi. Ammo tongga yaqin Burxonovga Bodomsy labidagi

Selketdi qishlog'ini suv bosganini, uch-to'rtta uyni suv olganini xabar qilishdi. Burxonov shu zaxotiy oq yo'lga tushdi (O'. Umarbekov). Ushbu matnda yetakchi so'z bo'lib mart leksemasi kelmoqda. 1-gapdagi oy (mart) leksemasi 2-gapda kun leksemasi bilan aniqlanmoqda. Ushbu bog'lanish oy leksemasining tarkibida "kun" semasining mavjudligi sababli amalga oshirilgan. 3-gapda esa kun leksemasi (kechga yaqin) sutka qismigacha aniqlanib, "kech" semasi ketma-ketlik asosida "tong"ga almashgan va 3-gap 5-gapni shu yo'sinda bog'lagan. 6-gapda "tong" leksemasi yanada kichik vaqt davomiyligi "shu zaxoti" bilan aniqlanmoqda. Demak, ushbu matndagi vaqtning aniqlanishi quyidagilardir: (oy mart) – kun-hech (kechga yaqin) – tong (tongga yaqin) – shu zaxoti.

Vaqt ma'noli leksemalar matnda bog'lovchi vazifasida kelar ekan, bog'lanayotgan so'zlarning sememalarida aynan sema bo'lishi ya'ni semaning sememaga aylanishi lozim. Mazkur aynanlik, sinonimiya, antonimiya, butun qism, tur-jins, darajalanish, sifatlash munosabatlari mavjud bo'ladi. Ushbu munosabatlar leksik takror, olmoshlar, sinonimlar, bir gap darajasida ma'nosi aniqlanmagan so'zlar, shundan beri, o'shandan so'ng, undan keyin kabi leksik-grammatik elementlar kabi vositalar yordamida shakllantiriladi. Shuningdek, vaqt ma'nosi denotatini voqelik sifatida tasdiqlash (atov gap) keyingi fikr yoki tavsifning temporal tema sifatida avval tasdiq yo'li bilan berish (Bahor! Fasllar kelinchagi...) kabi kommunikativ ehtiyojlar ham matn shakllantiruvchi omillardandir.

Vaqt ma'noli so'zlar matn shakllantirish va uning yaxlitligini ta'minlashda temporal maydonning boshqa birliklari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Vaqt ob'ektiv olam mavjudligining shakllaridan biridir. Temporallikning harakat bilan uzviy bog'liqligi, harakat-holat turlarida rang-barangligi, nisbiyligi, abstraktligi kabi hissiy sezilmas belgilari va umuman, vaqtning ontologik tabiati haqida qadimdan tortib hozirga qadar donishmandlar, filosoflar hamda xususiy fanlarning tadqiqotchilari tomonidan har xil qarashlar va ta'limotlar ilgari surildi.

2. Vaqtni narsa harakati davomiyligidagi o'lchanuvchan galma-gal almashinuv deb ta'riflash mumkin.

3. Vaqt o'zgaruvchanlik, bir yo'nalishlilik, bir jinslilik, davomiylik, uzluksizlik, qaytmaslik, cheksizlik, uzluksizlik, galma-gallik, harakat turlariga xoslanish, nisbiy uzayish va qisqarish, mavhumlik, mustaqil hodisalilik (substansionallik), munosabatdorlik (relyativlik), hozirlik, o'tmishlik, kelgusilik, birvaqtlilik, ketma-ketlik, o'rinsizlik (bemavridlik), behudalik, cho'zilishlik, o'tmaslik, ertalik, kechlik, ozlik, ko'plik, kattalik, kichiklik, qimmatlilik kabi ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlarga ega.

4. Vaqtning ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlari tafakkurning tushuncha kategoriyasi asosida tilning semantik birliklariga aylangan.

5. Vaqt ma'nosi tilda semantik ierarx bosqichlar (sathlar) va maydon ko'lamlari bo'ylab ifodalanishga ega.

6. Temporallik leksik-grammatik sathda otlar, olmoshlar, fe'llar (to'liqsiz fe'llar), ravishlar, modal so'zlar, bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar orqali ifodalangan. Undov va taqlid so'zlar vaqtni bilvosita, ya'ni o'z strukturalarining cho'ziqligi yoki qisqaligi yordamida ifoda etadi. Vaqt ma'noli frazemalar kam. Vaqt ma'noli so'z turkumlari ichida otlar va ravishlar yetakchi o'rinni egallaydi.

7. Yalpi temporal maydonning yadrosini fe'llarning sof vaqt ifodalovchi zamon shakllari egallaydi. Vaqt ma'noli leksema va frazemalar esa bu yadroga nisbatan periferik maydonni tashkil etadi. Periferik leksik-semantik maydonning yadrosida payt ravishlari joylashadi. Leksik-frazeologik periferik maydon va uning yadrosi markaziy yadroga mansub bo'lgan fe'l zamon shakllarining abstrakt grammatik ma'nolarini konkret-lashtirishga yordam qiladi.

8. O'zbek tilida umumiy vaqt tushunchasi «vaqt» sememasi orqali ifodalanadi. Uning asosiy semalarini «narsa», «harakat», «davomiylik», «o'lchanuvchan», «galma-gallik» kabilar tashkil etadi. Doimiylik, qaytmaslik, cheksizlik, uzluksizlik kabi semalar potensial yoki

fakulhtativ semalardir. «Vaqt» sememasi boshqa leksik-frazeologik ma'nolardagi sememalar tarkibida sema (tarkibiy qism) sifatida qatnashishi mumkin.

9. Payt ma'noli otlar ikki guruhdan iborat. Birinchi guruh sof vaqtni predmet sifatida ifodalaydi (vaqt, zamon, on kabi). Ikkinchi guruhda esa vaqt ma'nosi boshqa predmet ma'nosining tarkibiy elementi sifatida mavjud bo'ladi (bola, chol, bahor, tushlik kabi). Sof vaqtni ifodalovchi payt otlari va sof vaqtga ega bo'lmagan vaqt semali otlar o'zlarining leksik-semantik (mavzu) guruhlariga ega.

10. Payt otlari o'zlarining muayyan semik strukturalarida birlashtiruvchi va ajratuvchi semalariga ega. Ularning sememalari turli belgilarga ega bo'lgan vaqt turlarini ifodalashga xizmat qiladi.

11. Payt otlari o'z sistemasida ikki va ko'p a'zoli oppozitsiyalarga (privativ, ekvipolent, graduonimik) ega bo'lib, bunda graduonimik munosabatlar yetakchi o'rinni egallaydi. Aslida katta miqdordagi payt otlari vaqtni turli o'lcham va aniqliklarda darajalash, ya'ni semantik usul yordamida hosil qilingan.

12. Vaqt ma'noli ravishlar sof vaqt ma'noli payt ravishlari va payt semali holat, miqdor ravishlaridan iborat. O'z navbatida, har ikki katta guruh tarkibi kichik mavzu guruhlaridan tashkil topgan.

13. Vaqt ma'noli otlar va ravishlar polisemik, sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giperonimik, ma'no kengligi va torligi kabi semantik munosabatlarga ega.

14. Vaqt ma'noli otlar va ravishlarning semantik strukturalarini ular aniq xususiy va umumiy (takrorlanuvchi) semalardan tashkil topganligi uchun kodlashtirish mumkin. Bunday formal yo'nalish mashina tarjimasi, EXM va kibernetik sistemalar faoliyati, umuman, amaliy tilshunoslikning ravnaqi uchun o'ta muhimdir.

15. Vaqt ifodalovchi leksemalar ierarx, ya'ni mikro- (so'z birikmasi, gap) va makro- (mustaqil gaplar bog'lanmasi) matnlarni hosil qilish imkoniyatiga ega.

16. So'z birikmasi va gap kontekstlarining hosil qilinishida vaqt otlari va payt ravishlarining semalar miqdori, vaqt belgisining hajmi, faol va nofaol valentliklari, so'z va gap kengaytirish imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Vaqt ma'noli sememaning boshqa semema bilan bog'lanishi uchun har ikki sememada aynan va zid bo'lmagan semalar mavjud bo'lishi lozim. Har bir payt oti va ravishiga ularning muhim va yordamchi semalari bilan shakllanadigan asosiy (yaqin) hamda poteno'ial (uzoq) kontekstlar xosdir. Polisemiya, sinonimiya, kelishik, ko'makchi kabilar temporal leksemalarning sintagmatik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

17. Vaqt ifodalovchi leksemalar matnning (makromatnning) mazmun va struktur yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ular vaqt kontinuumini shakllantiradi. Temporal

soʻzlarning sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giperonimik, leksik takror kabi munosabatlari matn tuzishga xizmat qiladi.

18. Temporal leksemada vaqt miqdori qancha katta boʻlsa, u shuncha katta hajmli matn (makromatn) hosil qilish imkoniyatiga ega. Vaqt maʼnoli lugʻaviy birliklar voqea-hodisalarning davomiyligi va hajmini belgilab beradi.

19. Vaqt maʼnoli leksemalar matndagi xronologik izchillikni taʼminlab, matn qismlarini kontakt va distant aloqalar bilan bogʻlaydi.

20. Temporal leksemalar matnni nursimon va zanjirsimon usullarda bogʻlay oladi. Nursimon bogʻlanishda vaqt maʼnoli leksema oʻzining vaqt mundarijasi asosida matn boshida yetakchi soʻz boʻlib turadi. Hamma voqea-hodisalar shu soʻz ifodalagan vaqt koʻlamida yuz beradi. Zanjirsimon bogʻlanishda muayyan leksema maʼnosidagi butun yoki umumiy vaqt matnda qism va xususiyliklar tarzida matn komponentlarini bogʻlashga xizmat qiladi (kun: ertalab, tush, kechqurun kabi). Bunda, aniqrogʻi, dastlabki bosh (butun, umumiy) temporal sememaning muayyan semalari keyingi jummalarda sememalar maqomini kasb etadi. Shuningdek, vaqt maʼnosi denotatini voqelik sifatida tasdiqlash (atov gap), keyingi fikr yoki tavsifning temporal predmetini tema sifatida avval tasdiq yoʻli bilan berish (*Bahor! Fasllar kelinchagi...*) kabi kommunikativ ehtiyojlar ham matn shakllantiruvchi omillardandir.

21. Vaqt maʼnoli soʻzlar matn shakllantirish va uning yaxlitligini taʼminlashda temporal maydonning boshqa birliklari bilan hamkorlikda faoliyat koʻrsatadi.

22. Vaqt maʼnoli leksemalar paradigmaticasi va sintagmatikasining atroflicha va chuqur oʻrganilishi temporal sathlar, maydonlar va matnlar mohiyatining toʻliqroq oʻrganilishiga imkoniyatlar yaratadi.

Адабиётлар рўйхати

1. Аҳматова Х. Пайт муносабатини ифодаловчи кўмакчи формалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1988, №1.
2. Бандорко А.В. К теории поля в грамматике // Вопросы языкознания №3.
3. Бандорко А.В. Грамматическая категория и контекст – Ленинград: Наука 1971.
4. Баратов М. Ибн Сино етикаси. -Тошкент: Фан, 1969. -Б. 4-13.
5. Введение в философию. Том III. -Москва: Политиздат. 1989. С.-80-86.
6. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. Тошкент: Фан, 2007.
7. Йўлдошева Ҳ. Интонациянинг темпорал компоненти ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1985. №5.
8. Кедров Б.М. О синтезе наук // Вопросы философии, 1973, №3.
9. Криллов В.И. Логика познания сущности –М: Высшая школа, 1989.
10. Карабоев Е.Ф. Время и логическая форма в философские науки, 1973, №6.
11. Коклянова А.А. Категория времени в современном узбекском языке. –М: Издательство. АН СССР, 1969.
12. Любинская А.Н. Категория времени и системный анализ –М; Знание 1966.
13. Мамажонов А. Текст лингвистикам –Т: Ўқитувчи, 1976.
14. Нейматов Ҳ. , Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т: Ўқитувчи, 1995.
15. Нуриддинов М. Юсуф Қорабоғий ва Ўрта осийда ХВИ-ХВИИ асрларда фалсафий фикр. -Тошкент: Фан, 1991. -Б. 3-47.
16. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. Андижон, 2006.
17. Нурмонов А. Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1995. “1
18. Подольный Р.Г. Освоение времени М. Политиздат 1989.
19. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование –М: Наука 1971.
20. Философский словарь. М., 1991.
21. Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини. Филол.фанлари.док.дисс.автореф. Т: 2001.
22. Ҳакимова М. Вақт маъноли луғавий бирликларнинг микро ва макроматн шакллантириш имкониятлари // Педагогик таълим 2003, №1.
23. Ҳакимова М. Ўзбек тилида лексик-семантик вақт тизими // Тил ва адабиёт таълими, 2002, №3.

24. Всеволодова М. В. Способиъ виъражения временнихъ отношений в современном русском языке. – М. 1975.
25. Шувалова С. А. Смиъсловие отношения в сложном предложении, способиъ их виъражения. – М. 1990.
26. Функциональная грамматика. – Л. 1984.
27. Нурмонов А., Махмудов Н. Ёзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Т., 1999. Фуломов А., Асқарова М., Ҳозирги ёзбек адабий тили (синтаксис). – Т., 1981.
28. [http:// www. yazikoznaniye. ru.](http://www.yazikoznaniye.ru)
29. [http: \\ www. nuu. uz](http://www.nuu.uz)

МАНБАЛАР

1. Воҳидов Е. Ёшлик девони. Тошкент, 1969.
2. Гулдаста. Тўплам. Тошкент: Ёш гвардия, 1961.
3. Жалолов Т. Отаўғил ва Зурафо//Шарқ юлдузи. 1996. №6. -Б. 150-151.
4. Зунунова С. Танланган асарлар. 3 томлик. 1-том. -Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. -368 б.
5. Миртемир. Оҳ, менинг ўзбаки юрагим: Шеърлар.-Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. -240 б.
6. Мўминова З., Ердонова М., Ҳамроева М. Шеърлар. Тошкент: Ёш гвардия, 1988. - 636.
7. Ойбек. Танланган асарлар. Том.1. Олтин водийдан шабадалар. Роман. Тошкент, 1954.
8. Ойбек. Танланган асарлар. Том.2. Қутлуғ қон. Роман. Тошкент, 1957.
9. Раҳматуллаев Ш. Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1984. - 231 б.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. Тошкент: Фан, 1964. -Б. -211.
11. Саид Аҳмад. Уфқ. Роман. 1965.
12. Умарбеков Ў. Ер ёнганда. Тошкент: Ёзувчи. -1993. -30б. -Б. 3-4.
13. Умарбеков Ў. Дамир Усмоновнинг икки баҳори. Тошкент: Ёш гвардия. 1978. -240 б.
14. Ўзбек адабиёти. Дарслик. 11-синф. Т: Ўқитувчи. -Б. 324.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик. Том II. -Москва: Рус тили нашриёти, -1981. -631б.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик. Том III. -Москва: Рус тили нашриёти, -1981. -715 б.
17. Ғофур Ғулом. Мукамал асарлар тўплами. Иккинчи том. Шеърлар. 1941-1953. Тошкент: Фан, 1984. -Б 60-61
18. Қодиров П. Юлдузли тунлар. -Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. -496 б.
19. Ўзбекистон халқлари тарихи. Тошкент: Ўқитувчи, 1992. -190 б.
20. Қаҳҳор А. Танланган асарлар. Том 1. Ҳикоялар, феълетонлар, пьесалар. Тошкент, 1957.